



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 1

BUXORO – 2026

Bosh muharrir:

Ma’murov Bahodir Baxshullayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor

Tahrir hay’ati raisi:

Qahhorov Siddiq Qahhorovich

pedagogika fanlari doktori, professor.

Muqimov K.M.	– O‘zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Xamidov O.X.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sh.N.	– fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ikramov A.A.	– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raximov Sh.A.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Muxtorov E.M.	– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Niyozov A.K.	– texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Sharipov A.Z.	– falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov O.S.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Barotov Sh.R.	– psixologiya fanlari doktori, professor
Olimov Sh.Sh.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov T.H.	– fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
O‘rayeva D.S.	– filologiya fanlari doktori, professor
Amonov M.R.	– texnika fanlari doktori, professor
Bo‘riyev S.B.	– biologiya fanlari doktori, professor
Ma’murov B.B.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayev M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo‘rayev A.R.	– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Saidova M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov M.R.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Izbullayeva G.V.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Tadjixodjayev Z.A. texnika fanlari doktori, professor
Tosheva D.A.	– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Byulent Bayram	– filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universitet)
Timur Kojaog‘lu	– filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Irina Pokrovskaya	– filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti)
Murat Elmali	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Mehmet Y.Y.	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Starikov	– pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

Marcelo

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko‘chasi 2-uy.

Telefon: (+998 65) 226-10-97

Faks: (+998 65) 226-66-75

Elektron manzil: buxdpi@buxdpi.uz.

ISSN – 2181-4201

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA METODIKA

YOSHLAR TARBIYASIDA OILA VA IJTIMOIIY MUHITNING O‘RNI

Hayotov Farmon Davlat o‘g‘li, Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
farmon707icloud.com@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda zamonaviy dunyo sharoitida yoshlarni tarbiyalash masalasida oila va jamiyatning o‘rtasidagi qarilik va ularning o‘rni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. O‘rganish davomida shaxsning kamol topish jarayoniga oila qadriyatlarini, otalarning namuna bo‘lishi va mahalla an‘analarining ta‘siri milliy tarbiya merosi va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar negizida ochib berilgan. Bundan tashqari, maqolada Ibn Sinoning tarbiyaga oid qarashlari, shuningdek, davlat siyosati darajasida qo‘llanilayotgan “Oila – Maktab – Mahalla” hamkorlik tizimining birgalikdagi ishlash tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida yoshlarda barkamol shaxsni tarbiyalash va ularni g‘arazli ta‘sirlardan himoya qilish uchun ijtimoiy muhitni mustahkamlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oila, mahalla, ijtimoiy muhit, yoshlar tarbiyasi, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, shaxs kamoloti, ijtimoiy hamkorlik.

РОЛЬ СЕМЬИ И СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

Хаётов Фармон Давлат угли, Магистрант 2 курса Бухарского
государственного педагогического института
farmon707icloud.com@gmail.com

Аннотация: В данном исследовании с научной точки зрения изучается взаимосвязь и роль семьи и общества в вопросе воспитания молодежи в условиях современного мира. В процессе исследования на основе национального наследия и современных педагогических концепций раскрывается влияние семейных ценностей, родительского примера и традиций махалли на процесс формирования личности. Кроме того, в статье анализируются взгляды Ибн Сины на воспитание, а также принципы совместного функционирования системы сотрудничества «Семья – Школа – Махалля», применяемой на уровне государственной политики. В результате исследования разработаны практические предложения по укреплению социальной среды для воспитания гармонично развитой личности и защиты молодежи от деструктивных влияний.

Ключевые слова: семья, махалля, социальная среда, воспитание молодежи, духовно-нравственные ценности, развитие личности, социальное партнерство.

THE ROLE OF FAMILY AND THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE UPBRINGING OF YOUTH

Khayotov Farmon Davlat ugli, Second-year Master’s student
at the Bukhara State Pedagogical Institute.
farmon707icloud.com@gmail.com

Abstract: This research scientifically examines the relationship and roles of the family and society in youth upbringing within the context of the modern world. The study elucidates the influence of family values, parental role models, and neighborhood (mahalla) traditions on the process of personality development, grounded in national educational heritage and contemporary pedagogical concepts. Furthermore, the article analyzes Avicenna's perspectives on education, alongside the operational principles of the "Family – School – Mahalla" cooperation system implemented at the level of state policy. As a result of the study, practical recommendations have

been developed to strengthen the social environment, aiming to foster well-rounded individuals and protect youth from harmful external influences.

Keywords: family, mahalla, social environment, youth education, moral and spiritual values, personality development, social partnership.

Kirish. Zamonaviy davrda globallashuvning kuchayishi va raqamli texnologiyalarning tarqalishi tufayli yoshlarni tarbiyalash masalasi oddiy pedagogik vazifadan chiqib, strategik ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy muammoga aylandi. “Ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlarini dunyo bo‘ylab sezilmoqda, mafkuraviy kurash maydonlari kengaymoqda va axborot oqimi tobora ortib bormoqda. Bu sharoit yosh avlodning ong va hissiyotlarini begona va zararli ta’sirlardan himoya qilish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu sababli, shaxsning ma’naviy va axloqiy qiyofasini qurishda ikkita asosiy ustun – oila va ijtimoiy muhit (mahalla)ning ahamiyati hech qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi islohotlarning asosiy magsadi inson qadr-qimmatini ulug‘lash va barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Davlat rahamosining ta’kidlashicha, yoshlar tarbiyasi sohasida hech qanday bo‘shliqqa yo‘l qo‘yish mumkin emas. Sababi, tarbiya jarayoni to‘xtab qolgan yoki kuzatuvdan chetda qolgan har qanday joyda ma’naviy tushkunlik paydo bo‘lishi muqarrardir. Shaxs ijtimoiy mavjudot sifatida tarkib topishining dastlabki bosqichlaridanoq oila doirasida milliy qadriyatlarni egallaydi, keyin esa jamiyat va mahalla hayotida bu qadriyatlarning amaliy ko‘rinishlarini kuzatadi va o‘zlashtiradi.

Ushbu tadqiqotning vazifasi – yoshlarni tarbiyalashda oilaviy an’analar va ijtimoiy muhitning o‘zaro bog‘lanishini tahlil qilish, “Oila – maktab – mahalla” hamkorligining zamonaviy sharoitdagi samaradorligini o‘rganish, shuningdek, shaxsning kamol topishida ushbu institutlarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tarbiya masalasiga yondashuvning integrallashgan va kompleks xarakteri yugori bilim bilan birga o‘z milliy o‘zligini anglashga ega, g‘ururli avlodni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism. Har bir shaxs o‘zining rivojlanish davrida ma’lum bir jamiyat ichida, ya’ni makon va zamon chegaralarida hayot kechiradi. Shaxsning qiyofasi shakllanishida davr va ijtimoiy muhit asosiy o‘rin tutadi. Yoshlarni tarbiyalashda zamonaviy holatning o‘ziga xos jihatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

Bugungi kunning eng muhim xususiyati – bu dunyo miqyosidagi integratsiya va benihoya axborotlashgan muhitda yashayotganligimizdir.

“Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlik barqaror bo‘ladi. Farzandlarimizning ma’naviy olamini shakllantirishda oila muhitining o‘rnini hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi”¹.

Oila – insonning dastlabki maktabi, uning dunyoqarashining asosiy qurilish maydonchasi. Bu maktabda bolalar nafaqat sevgi va g‘amxo‘rlikni, balki mas’uliyat, adolat, hurmat kabi abadiy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradilar. Ota-onalarning har bir so‘zi, har bir harakati, uydagi munosabatlar namunasi bolaning ongiga chuqur singib, uning kelajakdagi shaxs sifatidagi yo‘lini belgilaydi. Aql va yurakni bir vaqtning o‘zida rivojlantiruvchi, barkamol avlod shu asosda tarbiyalanadi.

Mustahkam oila tuzilmasi jamiyatning eng kichik, lekin eng mustahkam hujayrasi hisoblanadi. Bunday hujayralardan tashkil topgan jamiyat o‘zining barqarorligi, chidamliligi va taraqqiy etish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Oila ichidagi kelishuv va o‘zaro tushunish, jamiyat hayotiga halol fuqarolik munosabatlariga asos bo‘ladi. Inson birinchi navbatda oilasida jamiyat a’zosi sifatida yashashni, o‘z huquq va burchlarini anglashni o‘rganadi.

Ma’naviy tarbiyaning asosiy manbai – oilaviy muhitdir. Bu muhitda yosh avlodga milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy me’yorlar jonli va samarali tarzda yetkaziladi. Diniy e’tiqod,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: "O‘zbekiston", NMIU, 2017. – B. 384.

vatanparvarlik, katta-kichiga hurmat kabi tuyg'ular, ularning qalbiga oila o'chog'i atrofida joylashadi. Maktab, ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlar bu vazifani oila o'rnini bosolmaydi, chunki ular insonning hissiy va ma'naviy dunyosiga oiladagi kabi chuqur kirib bora olmaydi.

Zamonaviy dunyoning tez sur'atlarida rivojlanishi, tashqi omillar va qiyinchiliklarning ko'pligida, sog'lom oila har bir inson uchun ishonchli boshpana, psixologik tayanchga aylanadi. Bunday oila a'zolari hayotning sinovlaridan osonroq o'tishga, qiyin vaziyatlarda bir-biriga yordam berishga qodir bo'ladi. Shaxsiy baxt va muvaffaqiyatning asosi, shubhasiz, o'zida tinchlik va muvozanat saqlagan oilaviy muhtida yotadi.

Ota-onalar, aynan, bolaning tarbiyasiga katta ahamiyat qaratadilar. Bolaning tug'ilishi bilan nafaqat uning axloqi va ma'naviy rivojlanishiga e'tibor beriladi, balki milliy an'analar va qadriyatlar asosida shakllanishiga alohida urg'u beriladi. O'zbekistonning har qanday mahallasiga tashrif buyurgan har bir kishi, bu yerda yoshlarning qanday ta'lim olishi, ularning odob-axloq va xulq-atvori qanday bo'lishiga bevosita guvoh bo'ladi. O'zbek oilasida voyaga yetgan har bir yosh avval kattalarga salom beradi, hurmat ko'rsatish uchun qo'lini ko'ksiga qo'yadi. Bu xulq-atvor ota-onalar, buva-buvilar tomonidan bolalarga o'rgatiladi va ularning ongiga chuqur ishlanadigan ijobiy fazilatlardan biridir. Aynan shu sababli ham xalqimiz orasida "Bola qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol keng tarqalgan.

Shuningdek, ota-onalar bolalarga nafaqat odob-axloq, balki mehnatsevarlik kabi sifatlarni ham singdiradilar. Uydagi kichik vazifalarni bajarish, o'qish va qo'l mehnatiga o'rgatish orqali bola hayotning muhim qirralari bilan tanishib boradi. Bu jarayonda kattalar bolaga nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki javobgarlik hissini ham o'rgatadilar. Har bir oila o'ziga xos an'analarga ega bo'lib, ular avloddan avlodga o'tib keladi va bolaning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'ladi.

Milliy qadriyatlarimiz bolalarni o'z tarixi, madaniyati va tiliga hurmat ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Bola ertaklar, maqollar va dostonlar orqali o'z xalqining donoligi bilan tanishadi. Bayramlar, to'ylar va oilaviy marosimlar bolaning ongida o'ziga xos iz qoldiradi, uning milliy kimligini mustahkamlaydi. Bu an'analarni saqlash va davom ettirish oilaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bolaning ma'naviy dunyosini shakllantirishda diniy tarbiyaning ham o'rnini katta. Ota-onalar bolalarga yaxshilik, halollik, kambag'allarga yordam berish kabi fazilatlarni dinimizning talablari asosida tushuntiradilar. Masjidga borish, duo o'qish va diniy bayramlarni nishonlash bolaning yurak dunyosini boyitadi, uning qalbini poklaydi.

Muhim jihati shundaki, ota-onalarning tarbiyaviy ta'siri nafaqat so'zlar, balki ularning o'zlari ko'rsatayotgan namuna orqali amalga oshadi. Bolalar kattalarning harakatlarini kuzatib, ularning hayotiy qarashlarini o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham o'zbek oilalarida kattalar o'z xulq-atvori, mehnati va atrofida qilargan munosabati bilan har doim yuqori darajada namuna bo'lishga harakat qiladilar.

O'zbek oilalarida o'g'il bolalarni tarbiyalash ko'pincha otalarning, qiz bolalarni tarbiyalash esa onalarning zimmasiga yuklangan. Agar farzand tarbiyasida ota-ona beparvolik qilsa, kelajakda bu salbiy natijalar berishi tajribada isbotlangan. E'tiborsizlik va befarqlik bolalar tarbiyasining yemirilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bu jihatlarga ota-onalarning doimo diqqat qilishi shart. Shu bilan birga, xalqimizning "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan gapi tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bolaning tarbiyasida mahalla oqsoqollarining ham, umuman qo'ni-qo'shnilarning ham roli muhim bo'lgan. Farzand ayrim xatolar qilsa yoki odob-axloqsizliklar ko'rsatsa, jamiyat tomonidan o'rgatilgan va o'rnini bilan dashnom ham berib borilgan. Bunday harakatlarning barchasi bolaning chiroyli tarbiyalash maqsad qilishganidan va bu yo'lda sa'y-harakat qilganliklaridan dalolatdir. Mahalla aholisi tomonidan berilgan bunday dashnomlarga bolaning ota-onalari har doim to'g'ri tushunishgan va bu haqda e'tiroz bildirmagan.

Bundan kelib chiqib, farzand tarbiyasida nafaqat oilaning balki mahallaning ham o'zni beqiyosdir. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi haqida shunday ta'rif bergan edi: "Yosh bola ta'lim-tarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turish-turmushi namunali bolalar bo'lishi lozim. Zero, yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o'rganadi va ular bilan do'st bo'ladi".

Shu nuqtai nazardan, mahalla – bu bolaning jamiyatdagi birinchi kichik jamoasi, uning shaxsini shakllantiruvchi muhim maktabdir. Mahalla muhitida bolalar nafaqat bir-birlari bilan, balki kattalar, qariyalar va turli xil odamlar bilan muloqot qilish, ularga hurmat va g'amxo'rlik ko'rsatish, jamoada yashash qoidalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yerda uyda o'rgatilgan odob-axloq me'yorlari amaliy mashq maydonasini topadi va kundalik hayotning turli vaziyatlarida sinab ko'riladi.

Mahallaning tarbiyaviy ta'siri shundaki, u bolaga oila doirasidan tashqarida ham ma'qul ko'rilgan qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni uyg'un tarzda singdiradi. Mahalla o'yin maydonchasi, hovlilar, ko'chalari orqali bolaga jamiyat a'zosi sifatida o'z o'rnini topish, mas'uliyat hissini shakllantirish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va raqobat qilish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni beradi. Bu jarayon bolani hayotga tayyorlaydi, uning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi.

Abu Ali ibn Sino ta'kidlaganidek, bola atrofdagilarga taqlid qilish orqali o'rganadi. Shuning uchun mahallada yashovchi har bir kishi, xususan, kattalar, o'z xatti-harakatlari, nutqi va munosabati bilan bolalar uchun bevosita namunaga aylanadi. Mahallaning sog'lom, ezgu an'analarga boy muhiti bolalarni yaxshi tomonga yo'naltiradi, ularning qalbini pok, niyatini halol qiladi. Aksincha, bunday muhitning yo'qligi bolaning ruhiy olamiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda shaharlashuv va individual hayot tarzining kuchayishi ba'zi hududlarda an'anaviy mahalla tizimining zaiflashishiga olib kelmoqda. Bu esa farzand tarbiyasida faqat ota-ona majburiyatlarining oshib ketishi va bolaning ijtimoiy muhitdan mahrum bo'lishi xavfini keltirib chiqaradi. Binobarin, bolalarni yaxshi inson qilib tarbiyalashda mahalla institutining ahamiyatini yangidan anglash va uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini mustahkamlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, - "Yoshlar tarbiyasida bizga "Oila — maktab — mahalla" hamkorligi zanjiri juda zarur. Bu tizim uzviy ishlashi uchun har bir ota-ona, har bir mahalla raisi va o'qituvchi mas'uliyatni his qilishi kerak"².

Oila — bu insonning dastlabki maktabi, uning qadriyatlari, odob-axloq me'yorlari va dunyoqarashi shakllanadigan muqaddas boshqacha. Har bir ota-ona farzandining yuraq va ongiga singdirgan har bir so'z, ko'rsatgan har bir misol, uydagi muhit kelajakdagi insonning qiyofasini belgilaydi. Shu sababli, oilaviy tarbiya faqat bolaning moddiy ehtiyojlarini qondirish emas, balki unga mehnatsevarlik, vatanparvarlik, katta va kichikka hurmat kabi abadiy qadriyatlarni singdirishdir. Ota-onalarning mas'uliyati — bu bolaning shaxsiy rivojlanishiga nafaqat nazorat, balki uning ruhiyatiga hamdardlik bilan yondashish, har qanday muammoda ishonchli tayanch bo'lishdir.

Maktab — bu oilada qo'yilgan negizni mustahkamlovchi, bilim va malaka bilan boyituvchi muhim institut. O'qituvchi nafaqat dars o'tuvchi, balki yosh avlodning ma'naviy etakchisi, ularning qalbiga yorqin orzu va istaklar urug'ini sochuvchi donishmanddir. Sinf xonasi bolalar uchun dunyoni kashf qilish, izlanish va ijod qilish maydoniga aylanishi kerak. Zamonaviy ta'lim mazmuni bolalarni hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlashga, jamoaviy ishlashga va mas'uliyatni his qilishga o'rgatishi lozim. Shuning uchun ham har bir pedagog o'zining nufuzi va ixtisosiy mahorati bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi, ularning iste'dodlarini aniqlash va rivojlantirish uchun sharoit yaratishi zarur.

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2016. – B. 14.

Mahalla — bu milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va oʻziga xos madaniyatimizni saqlovchi, avlodlar oʻrtasidagi uzviy aloqani taʼminlovchi anʼanaviy jamoat birligi. Mahalla raisi va faollari yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ular uchun sogʻlom va maʼnaviy boy muhit yaratish, shuningdek, oila va maktab oʻrtasidagi hamkorlikka vositachilik qilishda beqiyos rol oʻynaydi. Mahalla yoshlar uchun ijtimoiy amaliyot maydoni, sport va madaniyat markazi, ularning jamiyatda faol ishtirok etishini taʼminlovchi platforma boʻlishi lozim. Bu yerda yoshlar oʻz fikrlarini erkin bildirishi, loyihalarini amalga oshirishi va oʻz hissasini qoʻshishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi kerak.

“Oila — maktab — mahalla” zanjiri faqat uzviy hamkorlik va uzluksiz muloqot natijasida oʻz samarasini beradi. Ushbu uch halqa bir-birini toʻldirishi, kuchaytirishi va qoʻllab-quvvatlashi shart. Buning uchun muntazam ravishda umumiy uchrashuvlar, oʻtkazilgan ishlar boʻyicha hisobotlar, oʻzaro maslahatlashuvlar tashkil etilishi, zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy qilinishi muhimdir. Ota-onalar maktab hayotida faol ishtirok etishi, oʻqituvchilar bolaning oilaviy muhiti haqida maʼlumotga ega boʻlishi, mahalla esa ham oilaviy, ham maktabdagi muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va hal etishda faol boʻlishi kerak.

Natijada, ushbu uygʻun hamkorlik yordamida biz maʼnaviyatli, bilimli, vataniga sadoqatli, jamiyat va oilasiga masʼuliyatli yosh avlodni tarbiyalay olamiz. Bu nafaqat bugungi kunning, balki mamlakatimiz kelajagining mustahkam poydevoridir. Har birimizning burchimiz — bu zanjirning har bir halqasini mustahkamlab, uning uzilmasligi va samaradorligi uchun oʻz hissamizni qoʻshishdir.

Oilaviy muhitning ijtimoiy muht bilan uzviy bogʻliqligi³, shuningdek, oila tarbiyasining jamiyat talablari bilan mutanosibli, bu oʻzaro taʼsir jarayonida oila nafaqat ijtimoiy meʼyorlarni oʻzlashtiradigan, balki ularni yangi avlod uchun qayta ishlab, uzatadigan muhim institut sifatida namoyon boʻladi. Ijtimoiy muhitning oʻzgarishi, yangi qadriyatlar va hayotiy sharoitlarning paydo boʻlishi bevosita oila ichidagi munosabatlar tuzilishiga, tarbiya usullariga taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga, sogʻlom maʼnaviy muhitga ega boʻlgan oila jamiyatdagi oʻzgarishlarni salbiy oqibatlaridan himoya qiluvchi va ularni ijobiy yoʻnaltiruvchi filtr vazifasini oʻtaydi.

Oila tarbiyasining ijtimoiy muhit bilan mutanosibli deganda, nafaqat tashqi omillarga moslashish, balki faol oʻzgarishlar uchun asos yaratish ham tushunilishi lozim. Har bir oila oʻziga xos anʼanalar, qadriyatlar va meʼyorlar doirasida shakllansa-da, u jamiyatning umumiy rivojlanish oqimidan izolyatsiya qilinib yashay olmaydi. Shuning uchun zamonaviy sharoitda oila boshliqlari bolalarni nafaqat milliy, balki dunyoviy madaniyat, fan-texnika yutuqlari bilan ham sinchkovlik bilan tanishtirishlari zarur. Bu esa oʻz navbatida oila aʼzolari, ayniqsa ota-onalarning doimiy oʻzini oʻqlash va bilim oshirish majburiyatini tagozo etadi.

Ijtimoiy muhitning oilaga taʼsiri koʻpincha bilvosita yoʻllar, yaʼni ommaviy axborot vositalari, taʼlim tizimi, mahalla hamda doʻstona muhit orqali amalga oshadi. Shu sababli, oila bu kanallar orqali kirib kelayotgan maʼlumotlarni tanlab olish va bolalarning ruhiyatiga moslashtirish qobiliyatiga ega boʻlishi muhimdir. Aks holda, oilaviy tarbiya bilan tashqi muhit oʻrtasida keskin qarama-qarshiliklar paydo boʻlib, yosh avlodda maʼnaviy iztirob, qadriyatlar inqirozi vujudga kelishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda oilaning barqarorligi, ota-onalarning hikmatli yoʻl-yoʻriq koʻrsatishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

“Shaxs — oila — jamiyat” zanjirining uzviyligi shundan iboratki, har bir shaxsning maʼnaviy kamoloti avvalo oila muhitida shakllanadi va keyin jamiyat hayotida namoyon boʻladi. Shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyati, uning ijodiy va mehnat salohiyati koʻpincha oiladagi tarbiyaning sifatiga bogʻliq. Oʻz navbatida, shaxslarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, ularning maʼnaviyat va madaniyat darajasi umumiy milliy gʻururni mustahkamlaydi. Demak, oila maʼnaviyati nafaqat oila aʼzolari, balki butun millatning kelajagi, uning taraqqiyot poydevori hisoblanadi.

³ O. Musurmonova, "Oila maʼnaviyati — milliy gʻurur" (Toshkent, 2000): 112–125-betlar

Xulosa qilib aytganda, farzand tarbiyasi – bu oila va mahallaning uygʻun hamkorligi asosida amalga oshadigan murakkab ijtimoiy jarayondir. Oila bolaga asosiy qadriyatlarni singdirsa, mahalla bu qadriyatlarni keng jamiyat hayotida amaliy koʻnikmalarga aylantiradi va mustahkamlaydi. Ibn Sinoning asrlar oldin bildirgan chuqur fikri bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan boʻlib, u bizga mukammal insonni tarbiyalash yoʻlida barcha ijtimoiy institutlarning, xususan, mahallaning muhim rolini anglatishga undaydi.

Shunday qilib, oilaning sogʻlomligi va mustahkamligi nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyatning sogʻlomligi va mustahkamligining garovidir. Farzandlarimizning yorugʻ kelajagi, ularning pok maʼnaviyati va yuksak axloqi, avvalo, bizlar tarbiyalaydigan oilaviy muhitimizning mevasi boʻladi. Ushbu asosni mustahkamlash – har birimizning oldidagi eng ulkan ijtimoiy masʼuliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – Toshkent: "Oʻzbekiston", NMIU, 2017. – B. 384.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "Oʻzbekiston", NMIU, 2016. – B. 14.
3. Inomova M. Oilada bolalarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: 1999.
4. O. Musurmonova, "Oila maʼnaviyati — milliy gʻurur" (Toshkent, 2000).

AXBOROT-PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI TRANSFORMATSIYALASH: METODLAR, MODELLAR VA RAQAMLI DIDAKTIK VOSITALAR

Ismatov Dilmurod Elmurod o'g'li,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

dilmurod7271@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda axborot-pedagogik kompetensiyaning transformatsion modeli ishlab chiqildi hamda uni amalga oshirishga yo'naltirilgan metodlar, ta'lim shakllari va raqamli didaktik vositalar tizimi asoslab berildi. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan model pedagoglarning kasbiy faoliyatida raqamli muhitga moslashuvchanlik, didaktik dizayn va reflektiv kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ta'lim transformatsiyasi, axborot-pedagogik kompetensiya, raqamli didaktika, kompetensiyaviy model, pedagogik innovatsiya, raqamli kompetensiya, raqamli muhit, pedagogik dizayn, pedagogik kuzatuv.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ: МЕТОДЫ, МОДЕЛИ И ЦИФРОВЫЕ ДИДАКТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА

Ismatov Dilmurod Elmurod ugli,

Бухарский государственный университет, независимый исследователь

dilmurod7271@gmail.com

Аннотация: В статье с научно-теоретических и практических позиций исследуется проблема развития информационно-педагогической компетентности педагогов в условиях трансформации образования. В ходе исследования была разработана трансформационная модель информационно-педагогической компетентности, а также обоснована система методов, форм обучения и цифровых дидактических средств, направленных на её реализацию. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что разработанная модель способствует существенному повышению адаптивности педагогов к цифровой образовательной среде, а также развитию их дидактического проектирования и рефлексивных компетенций.

Ключевые слова: трансформация образования, информационно-педагогическая компетентность, цифровая дидактика, компетентностная модель, педагогическая инновация, цифровая компетентность, цифровая образовательная среда, педагогический дизайн, педагогическое наблюдение.

TRANSFORMATION OF INFORMATION AND PEDAGOGICAL COMPETENCE: METHODS, MODELS, AND DIGITAL DIDACTIC TOOLS

Ismatov Dilmurod Elmurodovich,

Bukhara State University, Independent Researcher

dilmurod7271@gmail.com

Abstract: The article examines the problem of developing teachers' information and pedagogical competence in the context of educational transformation from scientific-theoretical and practical perspectives. The study proposes a transformational model of information and pedagogical competence and substantiates a system of methods, forms of instruction, and digital didactic tools aimed at its implementation. The results of the experimental study demonstrate that the developed model significantly enhances teachers' adaptability to the digital educational environment, as well as their instructional design and reflective competencies in professional practice.

Keywords: educational transformation, information and pedagogical competence, digital

didactics, competency-based model, pedagogical innovation, digital competence, digital educational environment, pedagogical design, pedagogical observation.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatning jadal raqamli rivojlanishi ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlariga, xususan, pedagog faoliyatining mazmuni va shakllariga nisbatan mutlaqo yangi talablarni shakllantirmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etilishi hamda o'quvchilarning o'rganish ehtiyojlari va uslublaridagi transformatsion o'zgarishlar pedagogik faoliyatni yangicha asosda tashkil etishni taqozo etadi. Bunday sharoitda pedagogning kasbiy tayyorgarligi endilikda faqat fan bilimlari va an'anaviy metodik ko'nikmalar bilan emas, balki axborot bilan ishlash madaniyati, raqamli ta'lim muhitini loyihalash, pedagogik jarayonni innovatsion va moslashuvchan asosda boshqarish kompetensiyalari bilan belgilanadi [1].

Ilmiy adabiyotlarda "axborot-pedagogik kompetensiya" tushunchasi turli nuqtayi nazarlardan talqin qilinadi. Aksariyat tadqiqotlarda u pedagogning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalari majmui sifatida izohlanadi. Biroq ta'lim transformatsiyasi sharoitida mazkur yondashuv yetarli emas. Chunki zamonaviy pedagog raqamli vositalarni shunchaki qo'llovchi emas, balki raqamli didaktik muhitni loyihalovchi, uni o'quv maqsadlariga moslashtiruvchi va pedagogik jarayonni tahlil qiluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Shu sababli ushbu maqolada axborot-pedagogik kompetensiyani transformatsion yondashuv asosida rivojlantirish masalasi ilgari suriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar, ta'lim shakllari va raqamli didaktik vositalarni tizimli ravishda ilmiy asoslash hamda ularning integratsiyalashgan transformatsion modelini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarda keng muhokama qilinmoqda. Mazkur muammo, asosan, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi va pedagog faoliyatining mazmunan murakkablashuvi bilan izohlanadi.

1. Milliy tadqiqotlarda axborot-pedagogik kompetensiya masalasi:

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot-pedagogik kompetensiya pedagogning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, B. Ziyomuhhammadov va M. Tojiyev pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'qituvchining axborot bilan ishlash madaniyati va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida raqamli vositalardan foydalanish masalasi asosan metodik nuqtayi nazardan yoritilgan bo'lib, kompetensiyaning transformatsion jihatlari yetarlicha ochib berilmagan [2].

N.A. Muslimovning ilmiy ishlarida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qaraladi. Muallif pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion faoliyat va refleksiya muhim o'rin tutishini asoslaydi. Biroq ushbu tadqiqotlarda axborot-pedagogik kompetensiyaning raqamli ta'lim sharoitidagi transformatsiyasi masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan [3].

Milliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda axborot-pedagogik kompetensiya ko'proq alohida ko'nikmalar majmui sifatida yoritilgan bo'lib, uning integratsiyalashgan modeli va transformatsion mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2. Xorijiy tadqiqotlarda raqamli pedagogika va kompetensiya yondashuvi:

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda axborot-pedagogik kompetensiya masalasi kengroq va tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers" hujjatida pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalari bosqichma-bosqich rivojlanish modeli sifatida talqin qilinadi.

Ushbu modelda texnologik savodxonlik bilan bir qatorda pedagogik integratsiya va innovatsion faoliyat ham muhim o‘rin egallaydi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oltita asosiy yo‘nalish bo‘yicha tavsiflaydi. Ushbu yondashuvda pedagog faqat texnologiya foydalanuvchisi emas, balki raqamli ta‘lim jarayonining dizayneri sifatida qaraladi. Biroq mazkur model umumiy tavsifga ega bo‘lib, aniq milliy ta‘lim tizimlariga moslashtirish masalasi ochiq qolmoqda.

A.W. Bates va T. Anderson kabi olimlar raqamli ta‘lim va onlayn o‘qitish nazariyasini ishlab chiqib, pedagogning raqamli muhitdagi didaktik roli tubdan o‘zgarayotganini asoslaydilar. Ularning tadqiqotlarida pedagogning reflektiv va dizaynerlik kompetensiyalari alohida ta‘kidlanadi [4].

3. Tadqiqotlar tahlilidan milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili quyidagi muammolarni aniqlash imkonini berdi:

- ✓ axborot-pedagogik kompetensiya ko‘pincha texnik ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmoqda;
- ✓ kompetensiyaning pedagogik dizayn va refleksiya bilan integratsiyasi yetarli darajada asoslanmagan;
- ✓ ta‘lim transformatsiyasi sharoitida kompetensiyani rivojlantirishning yagona, tizimli modeli kam uchraydi;
- ✓ milliy ta‘lim tizimi sharoitiga moslashtirilgan amaliy mexanizmlar yetarli emas.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini asoslab beradi hamda ishlab chiqilgan modelning nazariy poydevorini tashkil etadi [5].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini ta‘lim transformatsiyasi sharoitida rivojlantirish muammosini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u kompetensiyaviy, tizimli va transformatsion yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik jarayonni zamonaviy raqamli ta‘lim muhitida tahlil qilish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy konsepsiyaga tayangan holda ishlab chiqildi.

1. Tadqiqotning metodologik asoslari.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

Kompetensiyaviy yondashuv – pedagogning kasbiy tayyorgarligini bilim, ko‘nikma va munosabatlarning integratsiyasi sifatida qarash imkonini berdi hamda axborot-pedagogik kompetensiyani kasbiy rivojlanishning muhim natijasi sifatida talqin qilishga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv – axborot-pedagogik kompetensiyani o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganish va uning tarkibiy tuzilmasini aniqlash imkonini berdi.

Transformatsion yondashuv – ta‘lim jarayonidagi raqamli o‘zgarishlar sharoitida pedagog faoliyatining sifat jihatidan yangilanishini tushuntirishga va kompetensiyaning dinamik rivojlanishini asoslashga xizmat qildi.

Mazkur yondashuvlar uyg‘unligi tadqiqotning nazariy va amaliy yo‘nalishini belgilab berdi.

2. Tadqiqot dizayni va bosqichlari.

Tadqiqot quyidagi izchil bosqichlarda amalga oshirildi:

- ❖ Diagnostik bosqich – pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasining mavjud holatini aniqlash, muammoli jihatlarni belgilash va tadqiqot mezonlarini ishlab chiqish;
- ❖ Loyihalash bosqichi – axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan transformatsion modelni ishlab chiqish;
- ❖ Amalga oshirish bosqichi – ishlab chiqilgan model asosida metodlar, ta‘lim shakllari va raqamli didaktik vositalarni amaliyotga joriy etish;
- ❖ Nazorat va tahlil bosqichi – tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish, olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Mazkur bosqichlar tadqiqotning mantiqiy izchilligini va natijalarining ishonchliligini ta‘minladi.

3. Nazariy tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi:

- ❖ Ilmiy manbalarni tahlil qilish – axborot-pedagogik kompetensiya, raqamli pedagogika va ta'lim transformatsiyasiga oid milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar o'rganildi;
- ❖ Sintez va umumlashtirish – turli ilmiy yondashuvlar asosida mualliflik konsepsiyasi va transformatsion model ishlab chiqildi;
- ❖ Taqqoslash – mavjud modellarning afzallik va cheklovlari aniqlanib, taklif etilgan modelning farqli jihatlari asoslandi.

4. Modellashtirish metodi.

Tadqiqotning muhim metodlaridan biri sifatida pedagogik modellashtirish qo'llanildi. Ushbu metod yordamida axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishning transformatsion modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi bloklardan iborat:

- ❖ Strukturaviy blok – kompetensiyaning asosiy komponentlarini aniqlash;
- ❖ Jarayonli blok – metodlar, ta'lim shakllari va raqamli vositalarning o'zaro uyg'unligini belgilash;
- ❖ Natijaviy blok – rivojlanish darajalarini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish.

Modellashtirish metodi pedagogik jarayonni tizimli ravishda rejalashtirish va tahlil qilish imkonini berdi.

5. Empirik tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda quyidagi empirik metodlar qo'llanildi:

- ❖ Pedagogik kuzatuv – pedagoglarning raqamli vositalardan foydalanish faoliyati va o'quv jarayonini tashkil etish uslublari tahlil qilindi;
- ❖ Tajriba-sinov ishlari – ishlab chiqilgan transformatsion modelning amaliy samaradorligi tekshirildi;
- ❖ Diagnostik metodlar – axborot-pedagogik kompetensiyaning rivojlanish darajasini aniqlash uchun mezon va indikatorlar ishlab chiqildi;
- ❖ Reflektiv tahlil – pedagoglarning o'z faoliyatiga nisbatan munosabatlari va o'zgarishlar dinamikasi o'rganildi.

Empirik tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalari pedagoglari ishtirokida amalga oshirildi.

6. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi omillar bilan ta'minlandi:

- ❖ metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi;
- ❖ nazariy va empirik ma'lumotlarning o'zaro uyg'unligi;
- ❖ tajriba-sinov natijalarining tizimli tahlili;
- ❖ xulosalarning adabiyotlar tahlili bilan mos kelishi.

Muhokama. Olingan tadqiqot natijalari ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalasiga yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Tajriba-sinov natijalari shuni tasdiqladiki, mazkur kompetensiyani rivojlantirishni alohida texnik ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklash ta'lim jarayonining zamonaviy ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Aksincha, axborot-pedagogik kompetensiya tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida rivojlantirilgandagina pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy samaradorligi oshadi.

Avvalgi ilmiy tadqiqotlarda (xususan, raqamli savodxonlikka oid ishlarda) pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasi ko'pincha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalar majmui sifatida talqin qilingan. Bunday yondashuv pedagogni asosan tayyor raqamli resurslardan foydalanuvchi subyekt sifatida tasvirlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari esa ushbu yondashuvning cheklanganligini ko'rsatib, axborot-pedagogik kompetensiyani pedagogik dizayn, reflektiv faoliyat va innovatsion fikrlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kasbiy sifat sifatida talqin qilish zarurligini asoslaydi.

Taklif etilgan transformatsion model doirasida pedagogning roli sezilarli darajada kengayadi. Pedagog endi nafaqat raqamli vositalarni qo‘llovchi, balki o‘quv maqsadlariga mos raqamli kontentni loyihalovchi, ta‘lim jarayonini raqamli muhitda modellashtiruvchi hamda o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib boruvchi dizayner-subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat pedagogik faoliyatning ijodiy va reflektiv komponentlarini kuchaytiradi hamda ta‘lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishda metodlar, ta‘lim shakllari va raqamli vositalarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Agar raqamli vositalar metodik asoslanmasdan qo‘llansa, ular ta‘lim samaradorligini oshirish o‘rniga, jarayonni murakkablashtirishi mumkin. Taklif etilgan modelda esa raqamli vositalar pedagogik maqsadlar bilan uzviy bog‘langan holda qo‘llanilishi natijasida ta‘lim jarayonining mantiqiyliги va tizimliliги ta‘minlandi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda axborot-pedagogik kompetensiya ta‘lim transformatsiyasi kontekstida qayta talqin qilinib, pedagogni raqamli ta‘lim muhitining faol dizayneri sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqildi. Bu yondashuv mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda, kompetensiyani statik holat emas, balki doimiy rivojlanib boruvchi transformatsion jarayon sifatida qaraydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarining ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Xususan, tajriba-sinov ishlari cheklangan ta‘lim muassasalari doirasida amalga oshirilgani sababli, modelning barcha ta‘lim bosqichlarida qo‘llanish imkoniyatlarini yanada kengroq empirik tadqiqotlar asosida tekshirish talab etiladi. Kelgusida mazkur modelni umumiy o‘rta va kasbiy ta‘lim tizimlariga moslashtirish istiqbollari mavjud.

Umuman olganda, muhokama natijalari ishlab chiqilgan transformatsion modelning nazariy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda uning ta‘lim transformatsiyasi jarayonida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Natija. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida axborot-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan transformatsion model ishlab chiqildi va uning nazariy hamda amaliy samaradorligi asoslab berildi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, mazkur model pedagoglarning raqamli ta‘lim sharoitidagi kasbiy faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

1. Strukturaviy-komponentli natijalar.

Tadqiqot davomida axborot-pedagogik kompetensiyaning tarkibi aniqlashtirilib, uning quyidagi asosiy komponentlardan iborat ekani ilmiy asoslandi:

Axborot va raqamli savodxonlik – pedagoglarning raqamli axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlandi.

Raqamli didaktik dizayn ko‘nikmalari – pedagoglarda o‘quv maqsadlariga mos raqamli kontentni loyihalash, dars jarayonini raqamli muhitda modellashtirish va moslashtirish kompetensiyalari shakllandi.

Pedagogik refleksiya – pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, raqamli vositalardan foydalanish natijalarini baholash va takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji kuchaydi.

Innovatsion va tanqidiy fikrlash – pedagoglar yangi pedagogik yechimlarni izlash, raqamli texnologiyalarni ijodiy qo‘llash hamda muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish qobiliyatini namoyon eta boshladilar.

Mazkur komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanib, axborot-pedagogik kompetensiyaning yaxlit tizimini tashkil etdi.

2. Metodik va tashkiliy natijalar.

Tajriba-sinov jarayonida qo‘llanilgan metod va ta‘lim shakllarining samaradorligi tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, quyidagi metodlar pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi:

Loyiha asosida o‘qitish – pedagoglarning mustaqil faoliyatini faollashtirib, raqamli muhitda kompleks pedagogik vazifalarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Muammoli ta‘lim – pedagoglarning tanqidiy fikrlashini kuchaytirib, raqamli vositalardan pedagogik muammolarni hal etishda ongli foydalanishiga zamin yaratdi.

Blended (aralash) ta‘lim – an’anaviy va raqamli ta‘lim shakllarining uyg‘unlashuvi pedagoglarning moslashuvchanligini oshirdi.

Reflektiv topshiriqlar va raqamli portfel – pedagoglarning kasbiy o‘shishini kuzatish va baholash imkonini berdi.

Tashkiliy jihatdan esa ta‘lim jarayonining raqamli muhitga mos ravishda qayta loyihalaniishi pedagoglarning faolligi va ta‘lim jarayonidagi ishtirokini oshirdi.

3. Raqamli didaktik vositalar samaradorligi.

Tadqiqot natijalari raqamli didaktik vositalardan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish pedagogik faoliyat samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan:

- ❖ elektron ta‘lim platformalari pedagoglarga o‘quv jarayonini boshqarish va monitoring qilish imkonini berdi;
- ❖ interaktiv testlar va baholash vositalari pedagoglarning o‘quv natijalarini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirdi;
- ❖ raqamli kontent yaratish vositalari pedagoglarning ijodiy faoliyatini faollashtirdi.
- ❖ Raqamli vositalarning metodik asoslangan holda qo‘llanilishi ta‘lim jarayonining mantiqiyli va tizimlilikini ta‘minladi.

4. Umumiy natijalar va rivojlanish dinamikasi.

Tadqiqot yakunlari shuni ko‘rsatdiki, transformatsion model asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayonida pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasi boshlang‘ich darajadan o‘rta va yuqori darajaga ko‘tarildi. Pedagoglar raqamli ta‘lim muhitida:

- ❖ mustaqil va mas‘uliyatli faoliyat yuritish;
- ❖ raqamli didaktik qarorlar qabul qilish;
- ❖ pedagogik jarayonni tahlil qilish va takomillashtirish
- ❖ ko‘nikmalarini namoyon eta boshladilar.

Shu tariqa, olingan natijalar ishlab chiqilgan transformatsion modelning samaradorligini tasdiqlab, uni ta‘lim transformatsiyasi sharoitida pedagoglarning axborot-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib, axborot-pedagogik kompetensiya ta‘lim transformatsiyasining asosiy omillaridan biri ekanligi, transformatsion model pedagoglarning raqamli muhitga moslashuvchanligini oshirishi, metodlar, shakllar va raqamli vositalarning integratsiyasi pedagogik faoliyat samaradorligini ta‘minlash mazkur yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimida samarali qo‘llanilishi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari. Ta‘lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
2. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Muslimov N.A. Kasbiy kompetensiya va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019.
5. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg, 2017.
6. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca University Press, 2020.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TARBIYA: O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Kurbonova Dilfuza Samiyevna, Buxoro xalqaro universiteti 5-bosqich talabasi
Kurbanovadilya80@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mazmuni, bolalar psixologiyasi qonuniyatlari, yosh davrlaridagi psixik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari hamda temperament, aqliy rivojlanish, emotsional barqarorlik kabi omillarning tarbiya samaradorligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, oila va maktab hamkorligining ahamiyati, differensial yondashuv va individual pedagogik ta’sir metodlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan tarbiya jarayoni shaxsning barkamol rivojlanishiga samarali xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, individual psixologik xususiyatlar, bolalar psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, temperament, aqliy rivojlanish, emotsional xususiyatlar, differensial yondashuv, pedagogik hamkorlik.

ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ВОСПИТАНИЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Курбонова Дильфуза Самиевна, студентка 5-го курса Бухарского Международного университета

Kurbanovadilya80@gmail.com

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические основы учета индивидуально-психологических особенностей учащихся в процессе их воспитания. Освещается содержание лично-ориентированного подхода, закономерности детской психологии, особенности развития психических процессов в возрастные периоды и влияние на эффективность воспитания таких факторов, как темперамент, психическое развитие, эмоциональная устойчивость. Также научно обосновано значение сотрудничества семьи и школы, дифференцированного подхода и индивидуальных методов педагогического воздействия. Результаты исследования показывают, что процесс воспитания, организованный с учетом индивидуально-психологических особенностей учащихся, эффективно служит гармоничному развитию личности.

Ключевые слова: воспитание, лично-ориентированный подход, индивидуально-психологические особенности, детская психология, психология возрастных периодов, темперамент, психическое развитие, эмоциональные особенности, дифференциальный подход, педагогическое сотрудничество.

PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION: THEORETICAL AND PRACTICAL BASES OF TAKING INTO ACCOUNT INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS

Dilfuza Kurbonova, 5th year student at Bukhara International University

Kurbanovadilya80@gmail.com

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of taking into account the individual psychological characteristics of students in the process of their upbringing. The article highlights the content of the personality-oriented approach, the patterns of child psychology, the peculiarities of the development of mental processes in age periods and the influence on the effectiveness of education of such factors as temperament, mental development, emotional stability. The importance of cooperation between family and school, a differentiated

approach and individual methods of pedagogical influence is also scientifically substantiated. The results of the study show that the educational process, organized taking into account the individual psychological characteristics of students, effectively serves the harmonious development of personality.

Keywords: upbringing, personality-oriented approach, individual psychological characteristics, child psychology, psychology of age periods, temperament, mental development, emotional characteristics, differential approach, pedagogical cooperation.

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxs tarbiyasi masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va hisobga olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir bola o'ziga xos ruhiy tuzilma, qobiliyat, temperament va ijtimoiy tajribaga ega bo'lib, ularni bir xil metodlar asosida tarbiyalash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv konsepsiyasi alohida dolzarblilik kasb etmoqda.

Tarbiya – bu yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan uzluksiz ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, unda shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va ma'naviy sifatlari shakllantiriladi. Tarbiya jarayoni faqatgina ma'lum qoidalarni o'rgatish yoki axloqiy normalarni singdirishdan iborat emas, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, ongli tanlov qilishi, ijtimoiy mas'uliyatni his etishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Bu jarayon oila, maktab va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladi hamda o'quvchining ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarni tarbiyalashda ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurati, avvalo, bolalar psixikasining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bolalar psixologiyasi turli yosh davrlarida sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi hamda taraqqiy etish qonuniyatlarini o'rganadi. Har bir yosh bosqichi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Masalan, kichik maktab yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo'lsa, o'smirlik davrida mantiqiy va abstrakt fikrlash rivojlana boshlaydi. Bu o'zgarishlarni hisobga olmasdan turib, samarali tarbiyaviy ish olib borish qiyin.

Individual psixologik xususiyatlar ichida temperament alohida o'rin tutadi. Temperament shaxsning ruhiy jarayonlari tezligi, barqarorligi va emotsional reaksiyalarining kuchini belgilovchi biologik asosli xususiyatdir. Masalan, sangvinik o'quvchi tez moslashuvchan va faol bo'lsa, xolerik o'quvchi jo'shqin, ba'zida impulsiv bo'lishi mumkin. Flegmatik o'quvchi sekinroq, ammo puxta ishlaydi, melanxolik esa sezgir va ta'sirchan bo'ladi. Tarbiyaviy jarayonda ushbu farqlarni inobatga olish pedagogdan individual yondashuvni talab etadi. Bir xil talab va uslub barcha o'quvchilar uchun birdek samarali bo'lmaydi.

Aqliy rivojlanish darajasi ham o'quvchilarning individual farqlarida muhim omil hisoblanadi. Ba'zi bolalar tez idrok qiladi va yangi ma'lumotni oson o'zlashtiradi, boshqalari esa ko'proq vaqt va takrorlashni talab etadi. Tafakkur tezligi, xotira hajmi, diqqat barqarorligi ham individual tarzda namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida differensial yondashuvni qo'llash, ya'ni topshiriqlarni o'quvchining imkoniyatiga mos ravishda tashkil etish muhimdir. Bu nafaqat bilim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Emotsional xususiyatlar ham tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hissiy jihatdan sezgir o'quvchi tanqidni og'ir qabul qilishi yoki muvaffaqiyatsizlikka kuchli reaksiya bildirishi mumkin. Aksincha, ba'zi o'quvchilar tanqidga nisbatan barqaror bo'ladi. Shu bois pedagog tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishda psixologik noziklikni saqlashi, har bir o'quvchining ruhiy holatini hisobga olishi zarur. Rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va ijobiy mustahkamlash metodlari bu borada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar psixologiyasi o'z tadqiqotlarida falsafa, pedagogika, anatomiya va fiziologiya fanlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Bolaning nerv tizimi va oliy nerv faoliyati xususiyatlari uning psixik rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Nerv tizimining yetarlicha shakllanmaganligi diqqatning tez chalg'ishi, tez charchash yoki emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Dars davomiyligini yoshga mos belgilash, dam olish rejimini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollikni ta'minlash tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismidir.

Shaxsga yo'naltirilgan tarbiya o'quvchining qiziqishlari va motivatsiyasini ham inobatga oladi. Har bir bolaning qiziqish doirasi turlicha bo'lib, kimdir aniq fanlarga, boshqasi esa san'at yoki sportga moyil bo'lishi mumkin. Tarbiya jarayonida ushbu qiziqishlardan samarali foydalanish o'quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ijobiy natijalarga olib keladi. Qiziqish asosida tashkil etilgan faoliyat o'quvchining ijtimoiylashuviga ham yordam beradi.

Oila va maktab hamkorligi tarbiya samaradorligining muhim omillaridan biridir. Ota-onalar farzandining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi va pedagoglar bilan muntazam aloqada bo'lishi zarur. Oila va maktab o'rtasidagi uzviy hamkorlik tarbiyadagi izchillikni ta'minlaydi, muammolarni erta aniqlash imkonini beradi va bolada ishonchli psixologik muhitni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy pedagogikaning asosiy talabi hisoblanadi. Har bir bolaning o'ziga xosligini e'tirof etgan holda tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat shaxsning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagog va psixologlar yosh davrlari psixologiyasi, bolalar psixologiyasi hamda fiziologiya fanlari yutuqlariga tayangan holda ish olib borgan taqdirdagina tarbiya jarayoni haqiqiy samaradorlikka erishadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa kelajak avlodni intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
2. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Nishonova Z.T., Safayev N.S. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2010.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
7. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.

SPORT PSYCHOLOGY: MENTAL PREPARATION FOR VICTORY

Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Student at Bukhara State Pedagogical Institute
narzullayevmavlonbek@gmail.com

Abstract: The title of the article hints at a very interesting topic, namely, the psychological aspects of sports, and it does get into the core principles and methods of mental preparation in sports psychology. It does provide an overview of the major areas affecting an athlete's performance and success in competitions from the psychological perspective. The results of the research reveal that the incorporation of systematic mental preparation, which includes setting of goals, visualization, stress management, and self-control, into athletic training is so essential that it alters competitive results appreciably.

Keywords: sport psychology, mental preparation, athletic performance, competitive sports, mental training, self-regulation, goal-setting, victory mindset

СПОРТИВНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА К ПОБЕДЕ

Нарзуллаев Мавлонбек Зикрилло угли, Студент Bukhara State Pedagogical Institute
narzullayevmavlonbek@gmail.com

Аннотация: Данная статья рассматривает основополагающие принципы и методологии психологической подготовки в спортивной психологии, анализируя, как психологическая готовность влияет на спортивные результаты и успех в соревнованиях. Результаты исследования демонстрируют, что систематическая психологическая подготовка, включающая постановку целей, визуализацию, управление стрессом и саморегуляцию, представляет собой важнейший компонент спортивной тренировки, который значительно влияет на результаты соревнований.

Ключевые слова: спортивная психология, психологическая подготовка, спортивные результаты, соревновательный спорт, психологическая тренировка, саморегуляция, постановка целей, победный настрой

SPORT PSIXOLOGIYASI: G'ALABAGA MENTAL TAYYORGARLIK

Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi
narzullayevmavlonbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola sport psixologiyasida ruhiy tayyorgarlikning asosiy tamoyillari va metodologiyalarini o'rganadi, psixologik tayyorgarlikning sport natijalari va musobaqa muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqsad qo'yish, vizualizatsiya, stress boshqaruvi va o'z-o'zini tartibga solishni o'z ichiga olgan tizimli ruhiy tayyorgarlik sport mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, musobaqa natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sport psixologiyasi, ruhiy tayyorgarlik, sport natijalari, musobaqaviy sport, ruhiy mashg'ulot, o'z-o'zini tartibga solish, maqsad qo'yish, g'alabaga yo'naltirilgan ong.

Modern sports science is very much aware that even the most physically gifted athletes won't necessarily be able to win if they are not psychologically ready [1]. Beside other disciplines, psychology, physiology, and education are the main areas of psychology in sports that seek the understanding and the mental part of athletic performance [2]. The importance of mental training can be seen more clearly in difficult situations where athletes who are equally strong physically are competing and it is often the psychological side that decides the winner [3]. Mental readiness involves various cognitive, emotional, and behavioral components that allow athletes to perform at their best under pressure, keep their focus during the competition, and are able to bounce back from a failure [4]. The idea of psychological preparation for victory is much more than just motivation, it includes high-ranked mental skills like visualization, self-talk, arousal control, and

attention control that are all capable of being developed, through structured training programs, in a systematic manner [5].

METHODOLOGY AND LITERATURE ANALYSIS

A systematic literature review approach was applied in the research to critically evaluate scientific writings on mental preparation in sport psychology, taking into account both theoretical models and empirical observations from various locations worldwide and local areas. The criteria for selecting the works mainly focused on psychological readiness, physical and mental training methods, and sports performance enhancement in the context of competition. According to self-determination theory, the highest level of motivation is present when the athletes feel freedom of choice, possess the required skills, and have good interpersonal relations, which underscores the role of intrinsic motivation in consistent athletic greatness [5]. Theories of achievement goals distinguish between task-oriented and ego-oriented motivational climates and show that the latter leads to non-adaptive patterns of achievement whereas the former gives rise to more adaptive achievement patterns through personal improvement [6]. Concepts like psycho-regulation and ideomotor training have been developed in Russian sport psychology and the latter has been one of the ways to mental preparation done through the integration of mental and physical preparations thereby making a great contribution to the understanding of mental preparation [7]. Visualization or mental imagery is yet another essential method through which athletes mentally practice their successful execution, activating the same neural pathways as in physical practice and thus improving motor learning [8]. Attention control training enables the athletes to keep their focus on the task at hand while in the process, effectively screening out distractions, which is a skill that is very important in moments of great pressure during competitions [9]. Pre-performance routines combining these mental skills create consistent psychological states that facilitate reliable performance under varying conditions.

RESULTS AND DISCUSSION

The literature review of sports psychology of the present day has already pointed out that mental preparation has a large and positive effect on the performance of athletes in many areas such as skill execution, quality of decision making, emotional control, and becoming more resilient in hard situations. It is a common finding that systematic mental training is one of the main factors contributing to the difference in the performance of the athletes who do it and those who rely only on physical preparation, with the sizes of the effects differing among the sports and skill levels. The power of particular mental preparation methods is also determined by various factors such as the level of experience of the athlete, the type of sport, the individual psychological traits, and the quality of implementation [3]. Goal-setting as a technique is the most effective when applying specific, measurable, achievable, relevant, and time-bound (SMART) criteria, with the research indicating that challenging but reachable goals maximize motivation and performance more so than vague aspirations or unreasonably difficult targets [5].

The effectiveness of visualization practice is so powerful that it is considered as the most effective method for learners to acquire new skills and the same for performers to improve their performances, researchers reporting that the combination of mental and physical practice leads to better results than physical practice alone, especially when the case is of complex motor skills which are demanding the precise sequence and timing to a large extent [8]. The reason why visualization is so powerful can be found in neuroscience, as neuroimaging studies point out that rehearsal in the mind activates the same dressage regions, making the execution of the physical and thus more efficient overall. On the other hand, self-talk affects performance in different ways depending on its content and purpose, where self-instructional self-talk is good for skill execution whereas motivational self-talk fosters effort and tenacity, implying that athletes are to choose the type of self-talk that best fits the situation [10]. In the context of mental preparation, anxiety management during competition becomes a vital step, as studies indicate that there are two general types of psychological interpretations of anxiety and that teaching the athletes to interpret their physiological arousal as readiness instead of threat boosts performance under stress.

Pre-performance rituals are found to be especially useful in maintaining stable mental states during the tournament, as it is evidenced by studies that personalized routines containing several mental skills promote optimal arousal and concentration. Mental preparation's incorporation into comprehensive training programs demands systematic periodization such as that in physical training, with gradual skill development proceeding from basic techniques to sport-specific applications [2]. Different psychological characteristics among athletes require mental training tailored to each athlete's individual needs, since each athlete differs in learning style, motivation, and sensitivity to various interventions. The long-term benefits of mental preparation are significantly dependent upon continuous practice and incorporation into athletes' daily training schedules rather than being applied occasionally during the competition period, thus underscoring the need to make mental training a regular practice. The cultural setting has an effect on the choice of mental preparation techniques, with the need for different psychological interventions in collectivist sports cultures as opposed to those in individualistic contexts, thus bringing to light the importance of having sports psychology that is culturally aware.

CONCLUSION

This comprehensive review of the literature in sport psychology highlights the role of mental preparation as an important and scientific-validated factor in athletic development, while systematic psychological training considerably improving competitive performance and achievement outcomes. The proof has always been in the pudding when it comes to the low and high end of the spectrum of mental skills that include the likes of goal-setting, visualization, self-talk, arousal regulation, and attention control being engulfed into the very fabric of training programs that are designed to develop psychological competencies that go hand in hand with physical capabilities. The process of mental preparation is by no means a one-size-fits-all approach, rather it requires customized strategies that take into consideration athlete-specific traits, sport-specific requirements, and cultural contexts, while still integrating constant practice throughout training periodization rather than treating it as a just before competition isolating intervention. The development of sport psychology in future should include the following areas: the opening up of mental training resources for more people, the creation of tech-based psych skill training tools, and the conduct of long-term studies looking into the enduring effects of mental preparation on athletes during and after their careers transitions. The acceptance and hence the spread of sport psychology principles across the board requires the unity of the efforts of athletes, coaches, and sport psychologists, thus creating the organizational cultures that view psychological development as one of the three pillars of holistic athlete preparation for top-notch performance along with physical conditioning and competition excellence.

REFERENCES

1. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2019). *Foundations of Sport and Exercise Psychology* (7th ed.). Human Kinetics.
2. Dosil, J. (Ed.). (2016). *The Sport Psychologist's Handbook: A Guide for Sport-Specific Performance Enhancement*. John Wiley & Sons.
3. Williams, J. M., & Krane, V. (2021). *Applied Sport Psychology: Personal Growth to Peak Performance* (8th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Moran, A., & Toner, J. (2017). *A Critical Introduction to Sport Psychology* (3rd ed.). Routledge.
5. Horn, T. S., & Smith, A. L. (Eds.). (2019). *Advances in Sport and Exercise Psychology* (4th ed.). Human Kinetics.
6. Hanin, Y. L. (2010). Coping with anxiety in sport. In A. R. Nicholls (Ed.), *Coping in Sport: Theory, Methods, and Related Constructs* (pp. 159-175). Nova Science Publishers.
7. Gorbunov, G. D., & Gorbunova, E. Y. (2016). *Psihologiya fizicheskoy kultury i sporta* [Psychology of Physical Culture and Sport]. Sovetskiy Sport.

8. Holmes, P., & Collins, D. (2021). The PETTLEP Approach to Motor Imagery: A Functional Equivalence Model for Sport Psychologists. *Journal of Applied Sport Psychology*, 13(1), 60-83.
9. Hatzigeorgiadis, A., Zourbanos, N., Galanis, E., & Theodorakis, Y. (2011). Self-Talk and Sports Performance: A Meta-Analysis. *Perspectives on Psychological Science*, 6(4), 348-356.
10. Cotterill, S. T., Sanders, R., & Collins, D. (2010). Developing Effective Pre-Performance Routines in Golf: Why Don't We Ask the Golfer? *Journal of Applied Sport Psychology*, 22(1), 51-64.

HARBIY TA'LIMDA TALABALARNI TARBIYALASHNING ASOSIY JIHLTLARI

Nazarov Tohir Toshpo'lotovich, Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti nazarovtohir560@gmail.com

Shavkatov Shoxjahon Sheraliyevich, Harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada harbiy ta'lim talabalari tarbiyalash bilan bo'g'liq bo'lgan jarayonlar o'z aksini topgan. Tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati, o'qitish bilan birga talabalarni tarbiyalash dolzarb hisoblanadi. Talabalarni tarbiyalashda metodlarning ahamiyati katta, chunki har qanday vaziyatda o'qituvchining shaxsiy taktikasi bo'lsa u tarbiyada adashmaydi. Yoshlarni tarbiyalashda prinsiplar va tamoyillar ham inobatga olinadi. Tarbiya jarayonida o'tmishda jasorat ko'rsatgan buyuk sarkardalarning harakatlari talabalarga unutilmas, ta'surot va g'urur bag'ishlaydi. Talabalarning zamonaviylashuv jarayonida yod g'oyalardan saqlanishi ta'lim jarayoniga bog'liq bo'lgan axborot texnologiyalardan foydalanish hozirgi ta'limga qo'yilgan talablar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, ma'naviy boylik, ma'rifat, dunyoqarash, tafakkur, menlik, zakovat, harbiy yo'nalish, jarayon, yuksalish, insonparvarlik komillik, bilim, intellektual.

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ВОЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Назаров Тахир Ташполотович, Доцент факультета военного образования Бухарского государственного педагогического института nazarovtohir560@gmail.com

Шавкатов Шахджахан Шералиевич, Студент 1 курса факультета военного образования

Аннотация: В статье рассматриваются процессы, связанные с воспитанием военнослужащих. Суть процесса воспитания, наряду с обучением, имеет важное значение. Методы играют огромную роль в обучении студентов, поскольку в любой ситуации, если у учителя есть своя тактика, он не ошибется в воспитании. Принципы и принципы также учитываются при обучении молодежи. Действия великих лидеров, проявивших мужество в прошлом, в процессе обучения незабываемы, впечатляющи и вызывают у студентов чувство гордости. Использование информационных технологий, связанных с образовательным процессом, и защита студентов от чуждых идей в процессе модернизации являются необходимыми условиями для современного образования.

Ключевые слова: воспитание, образование, духовное богатство, просветление, мировоззрение, мышление, самосознание, интеллект, военная ориентация, процесс, возвышение, гуманистическое совершенство, знание, интеллект.

THE MAIN ASPECTS OF STUDENT EDUCATION IN MILITARY EDUCATION

Nazarov Takhir Tashpolotovich, Associate Professor at the Faculty of Military Education Bukhara State Pedagogical Institute nazarovtohir560@gmail.com

Shavkatov Shahjahan Sheralievich, 1st year student of the Faculty of Military Education

Abstract: The article reflects the processes associated with the upbringing of military students. The essence of the upbringing process, along with teaching, is relevant. Methods are of great importance in educating students, because in any situation, if the teacher has his own tactics, he will not be mistaken in upbringing. The actions of great leaders who showed courage in the past during the education process are unforgettable, impressive and give students pride. The use of information technologies, which are related to the educational process, and the protection of students from alien ideas in the process of modernization are requirements for modern education.

Key words: upbringing, education, spiritual wealth, enlightenment, worldview, thinking, self, intelligence, military orientation, process, elevation, humanistic perfection, knowledge, intellectual.

Kirish. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida butun ijtimoiy hayotning tabiiy bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun uning qarama-qarshiliklari, ijtimoiy hayotning eng umumiy qarama-qarshiliklarining ifodasi hisoblanadi. Tarbiya aks ettiradigan bunday qarama-qarshiliklar qatoriga qotib va eskirib qolgan ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kunlari rivojlanishini ortga surish natijasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar kiradi. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy tarbiyada, o'sib kelayotgan avlodni tayyorlashga konservativ yondashishlar mustahkam o'rnatilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bizning jamiyatimizda ijtimoiy hayotni va ishlab chiqarish kunlarini faqat davlat mulkchiligi asosida tashkil etilishi ishlab chiqarish o'sishini ortga surishga olib keldi. Davlat mulkchiligi va rejalashtirilishi ustunligi ijodiy shaxs faolligi va tashabbuskorligiga ko'pincha to'sqinlik qiladi. Oliy ta'lim tizimida bu o'zining mazmuni, shakli va metodlari qandaydir rasmiylash hamda bir xilligi bilan ifodalanadi. Tarbiyadagi boshqa bir qarama-qarshilik hayot talablari va shaxsning ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarligi darajasi o'rtasida yuzaga keladi. Hayot talablarini anglab yetish, mana shu talablar asosida tarbiya mazmunini va tashkil etilishini ko'ra bilish ilmiy-texnik taraqqiyot keskin rivojlanishidan ortda qoladi. Ushbu qarama-qarshilikning chuqurlashib borgan sari o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy tayyorlashga xalaqit qiluvchi konservativ holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda yo'qotish zarur bo'ladi. Uni hal etish ta'lim va tarbiya mazmunini muntazam va mos ravishda hal etishni, ta'lim va tarbiya metodlarini tashkil etishni hayot talablariga javob bera oladigan qilishni talab etadi. Harbiy ta'lim jarayonida talabalarni qanday qilib tarbiyalasak yaxshi natijaga erishamiz degan dolzarb muammo kelib chiqadi.

Tadqiqot obyekti. Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida - bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga hos jihatlari, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Savol tug'iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo'ladi? Qachonki, u jismonan sog'lom, vijdonan pok, ma'naviyati yuksak bo'lsa. Bunda o'qiyotgan talabalarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu gaplarini keltirib otishni o'rinni deb topdim: “Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir... Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq...”[1]. Tarbiya – jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyatida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanar ekan, talabalarning komil inson bo'lishlari, rivojlanishlari, shaxsiyliklari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadilar. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketmaketligini ta'minlaydi. Tarbiya – ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

1. Tarbiya rivojlanayotgan talabalarni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirish amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, talabalar shakllanadilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.

2. Tarbiya – doimiy zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud. U jamiyatning mavjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarni tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlash muhim vositasi hisoblanganligi uchun u zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklari va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya – o'qitishning bir qismi sifatida ta'limni ham o'z ichiga oladi[2].

Qo'llaniladigan metodlar. Talabalarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda, asosan, quyidagi metod va vositalardan foydalaniladi:

- I. I. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.
- II. II. Ibrat-namuna metodlari.
- III. III. Rag'batlantirish va jazolash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Talabalarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishqa qo'llaniladigan usullar ijtimoiy ongni shakllantirish metodlarini tashkil etadi. Bu metodni amalga oshirishda quyidagi shakllardan keng foydalaniladi: tushuntirish; uqtirish; o'g'it-nasihah; maslahat berish; iltimos va istak; buyruq va talab; axloqiy suhbatlar; ma'ruza va munozaralar.

Tushuntirish. Tushuntirish tarbiya ishlari jarayonida juda ko'p qo'llaniladi. Talabalarga biror fazilatning afzalligi va kishi uchun zarurligi qisqa, aniq qilib tushuntirib beriladi. Masalan, "Kattalar bilan xushmuomalada bo'lish, maktabda, ko'chada va jamoat orasida odob saqlash" ni tushuntirilganda kattalarni hurmat qilish, ularga baqirib-chaqirib emas, balki shirin muomala qilish kerakligi; ko'chada yurganda esa ko'cha qoidalariga rioya qilish, intizom saqlash, jamoat orasida yurganda, ya'ni ko'pchilik orasiga kirganda, jamoat yerlarida: kino, teatr, park, stadion va shuning kabi joylarda tartib-qoidalarga bo'ysunish kerakligi aniq qilib tushuntiriladi. Ota-onani hurmat qilish, uning aytganlariga quloq solish haqida tushuntiriladi. Lekin bizda, ba'zan shunday hollar bo'ladiki, talaba biror axloq qoidasini buzgandagina unga shu qoida tushuntiriladi. Aslida talaba biror odobsizlik qilganda yoki nojo'ya ishlar qilgandagina emas, balki xulq-atvorining va xatti-harakatining yaxshi tomonlarini ma'qullash yo'li bilan olib borilishi kerak. Shuningdek biror axloqiy qoida tushuntirilganda uning qanday qilib bajarilishini ham ko'rsatmoq lozimdir.

Uqtirish. Uqtirish biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan o'qib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tarbiyachilar talabalarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. "O'qigandan uqqan yaxshi" degan xalq maqoli bor. Uqib olingan axloqiy fazilat shaxsda mahkam singib qoladi.

Ishontirish usullari. Talabalarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri ishontirish metodidir. Ishontirish deb, talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida ularning ongi, tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga aytiladi.

II. Ibrat-namuna metodlari. Talabalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat usuli talabalaridagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir. O'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning o'zlarini, hammadan burun, talabaga namuna bo'lmoqlari, o'zlarida eng yaxshi fazilatlarni aks ettirmoqlari kerak, talabalar o'z atrofidagi kishilarda hammayaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ulardan ijobiy namuna olishlari nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, talabalar ibrat uchun namunalarni ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan, fan, adabiyot va san'at arboblari hayoti va faoliyatidan, xalq og'zaki ijodi, talabalar adabiyoti, institut, sinf hayoti, ota-onalar faoliyatidan olmoqlari kerak. Talabalar quyidagilardan namuna oladilar: 1. Ota-ona namunasi. 2. O'qituvchi xatti-harakati. 3. O'rtoqlari namunasi. 4. Ilg'or kishilar namunasi. 5. Adabiy asarlar, film qahramonlari xatti-harakati. 6. Nasihat, pandnoma. Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-botalabarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Talabalar faqat yaxshi hislatlarga emas, ba'zan yomon sifatlarga harn taqlid qiladilar. Shuning uchun kattalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan.

III. Rag'batlantirish va jazolash. Rag'batlantirish va jazolashning tarbiyaviy ahamiyati Talaba o'z xatti-harakati, qilg'iga boshqalarning baho berishlariga muhtojdir. Shuning uchun

ham talabalar biror harakat yoki qiliq qilsalar, darhol atrofdagi kishilarga qaraydilar. Bu bilan ular “mening qilig‘im sizlarga ma‘qulmi yoki ma‘qul emasmi” demoqchi bo‘ladilar. Boshqalar tomonidan uning harakatiga berilgan ijobiy baho unga yoqimli bo‘ladi, kayfiyatini yaxshilaydi, quvontiradi, salbiy baho esa uni xafa qiladi va tashvishga soladi. Talabalar hayotida va kamolotida ularni qurshab olgan va tevarak-atrofdagi kishilar hamda jamoatchilikning ularning xatti-harakati va xulqiga bergan bahosi g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Har bir talaba o‘sgan va kamol topgan sari har qadamida ota-onaning va tevarak-atrofdagi odamlarning maqtovi, ma‘qullashiga sazovor bo‘lishga, tanbeh eshitmaslikka intiladi. Rag‘batlantirish va jazolash dastavval talabalarning xarakteri va xulqida ijobiy hislatlar tarbiyalashga yordam beradi, ularning hatti-harakati va xulqini to‘g‘ri yo‘lga solib yuboradi hamda paydo bo‘lgan ijobiy fazilatlarini mustahkamlashga da‘vat etadi. Rag‘batlantirish va jazoni mohirlik bilan qo‘llash orqali talabalarni tarbiyalashda g‘oyat katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, har qanday ma‘qullash ham, qoralash ham talabalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatavermaydi, balki aksincha salbiy natija berishi mumkin.

1. Tarbiya-ijtimoiy-tarixiy rivojlanish har bir bosqichida, o‘zining vazifasi, mazmuni va shakllari bo‘yicha aniq tarixiy xususiyatga ega bo‘ladi. U jamiyat hayoti xususiyati va tashkil etilishi bilan bog‘liq hamda shuning uchun o‘z davrining ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Sinfiy jamiyatda turli sinflar, qatlamlar va guruhlarda talaba-yoshlarni tarbiyalash asosiy tendentsiyalari ba‘zan qarama-qarshi bo‘ladi.

2. O‘zib kelayotgan avlodni tarbiyalash – ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o‘zlashtirishlari hisobiga, ularni katta avlod ijtimoiy munosabatlarga, munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zarur faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi va talabalar o‘zaro ijtimoiy munosabatlari va o‘zaro aloqalari, ta‘sirlari har doim ularni talabalar yoki o‘qituvchilar anglab yetishlaridan qat‘iy nazar, tarbiyaviy yoki tarbiyalovchi hisoblanadi. Eng umumiy shakllarida bu o‘zaro munosabatlar, talabalar hayoti, sog‘ligi va ovqatlanishlarini ta‘minlashga, jamiyatda ularning o‘rnini va ularning ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan.

O‘qituvchi va talabalar bilan o‘zlarining tarbiyaviy munosabatlarini anglab yetishlari va talabalarda u yoki bu sifatlarini shakllantirish maqsadlarini o‘z oldilariga qo‘yar ekanlar, ularning munosabatlari yanada pedagogik, anglab yetilgan maqsadga yo‘naltirilgan tus oladi. O‘qituvchilarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab yetishlari asosida, jamiyatda talabalar va jamiyat manfaatlari yo‘lida tarbiyalash qonunlaridan tushunilgan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi.

Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobi o‘gitlari” kabi asarlarda ijtimoiy muammolarga to‘xtalar ekan, inson va uning tarbiyasi muammosiga alohida e‘tibor qaratadi. Uning falsafiy tizimida bu muammo eng muhim va murakkab sanalgan. Forobiy fikricha, inson komil bo‘lishi uchun tafakkuri yuksak darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Tafakkur shu qadar bo‘lishi kerakki, u insonga bir nimani xabar qilganda, inson shuurida ham, ongida ham o‘sha narsa abadiy muhrlanib qolishi lozim.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, talaba faoliyatining muayyan mahsulidir. Bu maqsadlarga erishish talaba faoliyatini tashkil qilishi bilan amalga oshiriladi. Pedagog sa‘y-harakatlari muvaffaqiyatini baholash talaba axloqi va ongida qanday ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishiga asoslanib, amalga oshiriladi. Ta‘lim va tarbiya shaxs shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Tarbiyaning amaliy va rivojlantirib boriluvchi ta‘siri ichki va tashqi sharoitlar tizimidagi ziddiyatlarga qarshi kurashdir. Organizm va atrof-muhit o‘rtasidagi muvofiqsizlik buzilishi – bu tashqi ziddiyat bo‘lib, ularning o‘zaro birdamligi jarayonida bartaraf qilinadi. Ichki ziddiyatga esa, shaxsda yuzaga kelgan yangi talablar va ularni qondirish uchun zarur bo‘lgan vositalarga egalikning erishilgan darajasi o‘rtasidagi tafovut aloqador hisoblanadi. Shuningdek, yangi aqliy vazifa va avval o‘zlashtirilgan bilim, yangi vaziyat va orttirilgan tajriba uquvi va ko‘nikmasi orasidagi tafovut ham ichki ziddiyatga oiddir. Pedagog vazifasi shundan iboratki, yuzaga kelgan vaziyatdan talabalarning tarbiyasi har tomonlama rivojlanishini ta‘minlovchi kuch sifatida oqilona foydalanishiga erishish lozim.

Jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan shaxs shakllanishi birligi inson ravnaqi va istiqbolining o'ziga xosligidir. Aynan shuning uchun tarbiyaga yaxlit yondashuv talab qilinadi[3].

Avvalo, ta'lim va tarbiya bir maqsadni – barkamol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni harbiy ta'lim ham tarbiya bilan birga qo'shib ketadi va bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar auditoriya va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi. Talabalar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdiridagina ta'siri kuchli bo'ladi. Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi institutning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi. Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning – oila va institut, jamoatchilik, mahalla faollari, harbiy qismlar va Mudofaa ishlari bo'limlarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi. Tarbiya ishidagi bu hamjihatlik va hamkorlikni ta'min etishda institut asosiy rol o'ynaydi. Institut yuqorida aytilgan muassasalar bilan mustahkam aloqada bo'lib, tarbiya sohasida bahamjihatlikda ishlashga erishadi. Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning hammasida talabalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarga hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim. Har bir shaxs o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo, uning fe'latvori, oilada olgan tarbiyasi sababdir.

Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Shunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish-turishiga axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi. O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarni yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitobni axloq deyilur". Axloq – inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yolarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Ibn Sino ham "axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilishi ilmidur" deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me'yori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtyojidan, ijtimoiy manfaatlar va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Demak, axloqning rivojlanishi obyektiv shart-sharoitlari bilan sub'ektiv omillarning o'zaro munosabati qay darajada ekanligi bilan bog'liqdir. Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta'siriga tushadi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan shaxsning ma'naviy qiyofasi, yangi dunyoqarash, g'oya va tasavvurlari, jumladan axloqi ham, shuningdek, unga bo'lgan qarashlari ham o'zgarib boradi. Har qanday shaxs o'z dunyoqarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta'sirida shakllangan odat va ko'nikmalarini o'zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o'zini o'rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlariga, yurish-turishlari va muomalalariga muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi[4].

Ilmiy yangiligi, O‘zbekona, milliy axloqda ota-botalabarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o‘tgan saboqlari va bizga doimo madad bo‘lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelmoqda. Chunki, bir tomchi bo‘lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo‘sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg‘oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko‘p yillardan beri yashirinib kelinar edi. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan talabalarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydayalanish oilaviy tarbiyamiz uchun obyektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma‘naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtboshimiz “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko‘tardiki, yuksak ma‘naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo‘lib qoldi.

Harbiy ta‘lim jarayonida talabalarni tarbiyalash – bu nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik ruhini, mas‘uliyat va intizomni mustahkamlashga qaratilgan uzluksiz va tizimli jarayondir. Mazkur jarayon harbiy xizmatchining shaxs sifatida kamol topishi, jamoada ishlash qobiliyati va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Harbiy ta‘limda tarbiya quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida olib borilishi lozim:

1. **1. Vatanparvarlik va fuqarolik mas‘uliyati** – talabalarda Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tayyorlikni shakllantirish.

2. **2. Intizom va mas‘uliyat** – buyruqlarga so‘zsiz rioya qilish, ichki tartib-qoidalarga amal qilish va shaxsiy javobgarlikni his etish.

3. **3. Ma‘naviy-axloqiy barkamollik** – halollik, adolat, jasorat, fidoyilik kabi fazilatlarini mustahkamlash.

4. **4. Jismoniy va ruhiy tayyorgarlik** – murakkab sharoitlarda bardoshlilik, sabr-toqat va irodani chiniqtirish.

5. **5. Jamoaviylik va yetakchilik** – hamkorlikda ishlash, o‘zaro ishonch va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv mashg‘ulotlar, amaliy treninglar va psixologik tayyorgarlik usullaridan foydalanish tarbiya samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi va qo‘mondonlarning shaxsiy namunalari, adolatli munosabati hamda rag‘bat va nazorat mexanizmlarining uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta‘lim jarayonida talabalarni tarbiyalash – bu har tomonlama yetuk, intizomli, ma‘naviy barkamol va Vatan himoyasiga doimo tayyor kadrlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik ahamiyatga ega jarayondir. Ushbu jarayon izchil, maqsadga yo‘naltirilgan va zamon talablari asosida tashkil etilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asari “Ma‘naviyat” 2008.
2. J.Xasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Fan. 2006 y.
3. R.A.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova, N.XVoxidova. Pedagogika. Darslik. – T., 2010.
4. Ибрагимов Х, Абдуллаева Ш. Теория педагогики. Т.: Наука и технологии, 2008.

TEKNOLOGIK-TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI

Qudratov Shahzod Nasim o'g'li,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

shahzod100997@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida muhim hisoblangan texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi hamda uni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari kompetensiyaviy yondashuv asosida ochib beriladi. Tadqiqot davomida texnologik faoliyat va ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi. Olingan xulosalar pedagogik amaliyotda innovatsion faoliyatni tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: texnologik kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ilmiy faoliyat, fragment, raqamli platform, texnologik vosita.

ЦЕЛИ, ЗАДАЧИ И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Кудратов Шахзод Насим угли,

Бухарский государственный университет, независимый исследователь

shahzod100997@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы технологическо-исследовательской компетентности, имеющей важное значение в современной системе образования. С позиций компетентностного подхода раскрываются сущность и структурное содержание технологическо-исследовательской компетентности, а также цели, задачи и принципы её развития. В ходе исследования обосновывается, что интеграция технологической и научно-исследовательской деятельности является важным фактором повышения эффективности образовательного процесса. Полученные выводы могут служить методической основой для организации инновационной деятельности и повышения качества образования в педагогической практике.

Ключевые слова: технологическая компетентность, исследовательская компетентность, компетентностный подход, инновационное образование, педагогические технологии, научная деятельность, фрагмент, цифровая платформа, технологическое средство.

GOALS, OBJECTIVES, AND PRINCIPLES OF DEVELOPING TECHNOLOGICAL AND RESEARCH COMPETENCE

Kudratov Shahzod Nasim ugli,

Bukhara State University, Independent Researcher

shahzod100997@gmail.com

Abstract: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of technological and research competence, which is considered an important component of the modern education system. Based on the competency-based approach, the essence and structural composition of technological and research competence, as well as the goals, objectives, and principles of its development, are revealed. In the course of the study, it is substantiated that the integration of technological activity and scientific research activity is a significant factor in increasing the effectiveness of the educational process. The conclusions obtained may serve as a methodological basis for organizing innovative activities and improving the quality of education

in pedagogical practice.

Keywords: technological competence, research competence, competency-based approach, innovative education, pedagogical technologies, scientific activity, fragment, digital platform, technological tool.

Kirish. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasidagi tub o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Axborot hajmining keskin ortishi, ilm-fan va texnika taraqqiyotining tezlashuvi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida ta'limning an'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan modeli o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmayapti. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning faqat tayyor bilimlarni egallashini emas, balki ularni mustaqil ravishda tahlil qilish, qayta ishlash, yangi bilimlar yaratish va amaliy muammolarni hal etishda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida mutaxassisga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligi va texnologik vositalardan samarali foydalanish malakasidir. Endilikda mutaxassis faqat ma'lum algoritmlar asosida faoliyat yurituvchi ijrochi sifatida emas, balki murakkab, noaniq va tez o'zgaruvchan vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llay oluvchi shaxs sifatida shakllanishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonida shaxsda yangi turdagi kompetensiyalarni, xususan texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyalarning keng joriy etilishi ilmiy-tadqiqot faoliyatining mazmuni va tashkil etilish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, elektron resurslar va sun'iy intellekt elementlari ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarning mavjudligi yoki ularni qo'llashning o'zi tadqiqot faoliyatining samaradorligini avtomatik ravishda ta'minlab bermaydi. Texnologik vositalar faqatgina ilmiy-metodologik asoslangan yondashuv, muammoni aniqlash, tadqiqot metodlarini tanlash va natijalarni tahlil qilish bilan uyg'unlashgandagina real ilmiy-amaliy natijalarga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan, texnologik faoliyat va ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasi ta'lim jarayonining muhim metodologik masalasiga aylanmoqda. Aynan ushbu integratsiya texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining mohiyatini belgilab beradi. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi shaxsning zamonaviy texnologiyalar yordamida ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiqot jarayonini loyihalash, ma'lumotlarni tahlil qilish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirgan integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologik kompetensiya va tadqiqotchilik kompetensiyasi ko'pincha mustaqil tushunchalar sifatida o'rganiladi. Texnologik kompetensiya asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, raqamli savodxonlik va texnologik vositalarni boshqarish bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi esa ilmiy muammolarni qo'yish, gipoteza ilgari surish, tadqiqot metodlarini tanlash, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlari orqali izohlanadi. Biroq zamonaviy ta'lim amaliyotida bu ikki kompetensiyani alohida rivojlantirish yetarli emasligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda [1].

Mazkur holat texnologik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini yagona integrativ tizim sifatida ko'rib chiqishni, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlarini ilmiy asoslashni taqozo etadi. Aynan shunday yondashuv ta'lim jarayonida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish va raqamli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash imkonini beradi.

Shu sababli mazkur maqolada texnologik va tadqiqotchilik kompetensiyalari alohida emas, balki yagona texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasi doirasida qaraladi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab

beriladi. Maqola texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini zamonaviy ta'limning dolzarb ilmiy-pedagogik muammosi sifatida yoritishga qaratilgan

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiya tushunchasini umumiy nazariy asoslash (xalqaro doira). Xorijiy adabiyotlarda “kompetensiya” tushunchasi ko‘pincha shaxsning bilim + ko‘nikma + munosabat/qiyamat + real vaziyatda qo‘llay olish integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvni tizimli ravishda asoslagan yirik konseptual manbalardan biri — OECDning DeSeCo (Definition and Selection of Competencies) loyihasidir. DeSeCo kompetensiyalarni “hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyat” bilan bog‘lab, ularni keng ijtimoiy-amaliy kontekstda ko‘radi.

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini “faqat texnik ko‘nikma” sifatida emas, balki murakkab muammolarni hal etish va ijtimoiy-amaliy natija bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida asoslash uchun DeSeCo kabi manbalar nazariy “tayanch” beradi.

“Texnologik” komponent: raqamli/AKT kompetensiyalarining xalqaro standartlashuvi. Texnologik komponentni asoslashda UNESCOning ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT) hujjati muhim o‘rin tutadi. Ushbu ramka o‘qituvchi (va keng ma’nodda ta’lim subyekti) uchun AKT kompetensiyalarini tizimlashtirib, ularni o‘quv jarayoni, baholash, pedagogika, boshqaruv va uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan bog‘laydi [2].

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: ICT-CFT texnologik kompetensiyani “qurilma ishlatish” darajasidan yuqoriga olib chiqib, uni ta’limiy maqsadga xizmat qiluvchi texnologik dizayn va qaror qabul qilish jarayoni sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Texnologiya–pedagogika integratsiyasi: Shulman – TPACK konsepsiyasi. Ta’limda integratsiya masalasini nazariy asoslashda Shulman tomonidan ilgari surilgan Pedagogical Content Knowledge (PCK) g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi: mazmun (content) va pedagogika (pedagogy) bir-biridan ajralmaydi, ular o‘qituvchining kasbiy bilimida “qorishma” holatda namoyon bo‘ladi.

Keyingi bosqichda Mishra va Koehler bu yondashuvni kengaytirib, texnologiya omilini qo‘shib TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) konsepsiyasini ishlab chiqdilar. TPACK texnologiyani o‘qitish jarayoniga “qo‘shimcha” emas, balki mazmun va pedagogika bilan o‘zaro kesishuvchi bilimlar tizimi deb talqin qiladi.

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: “texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi”ni asoslashda TPACK yondashuvi kuchli nazariy tayanch bo‘la oladi, chunki u texnologiya integratsiyasini bilimlar tizimi sifatida izohlaydi, shunchaki vosita sifatida emas.

Mahalliy (O‘zbekiston) tadqiqotlari tahlili. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha mahalliy yondashuvlar. O‘zbek pedagogik adabiyotlarida “pedagogik texnologiya” va “innovatsion ta’lim” masalalari bo‘yicha bir qator darslik va qo‘llanmalar mavjud. Xususan, N. Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar” yo‘nalishidagi ishlari ta’lim jarayonini loyihalash, metodik yechimlarni tizimlashtirish va innovatsion yondashuvlarni asoslashga qaratilgan [3].

Shuningdek, “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” yo‘nalishidagi mahalliy darsliklar texnologik yondashuvni o‘qituvchi kompetensiyalari, darsni loyihalash, metod va vositalarni tanlash bilan bog‘laydi.

Maqola mavzusi bilan bog‘lanishi: bu ishlarda “texnologik” komponent ko‘proq ta’lim jarayonini loyihalash va tashkil etish texnologiyalari sifatida yoritiladi; bu esa texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining “texnologik” tomonini milliy pedagogik an’ana doirasida asoslash imkonini beradi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha mahalliy ilmiy ishlar. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aynan “tadqiqotchilik kompetensiyasi”ni rivojlantirishga bag‘ishlangan maqolalar va amaliy-metodik izlanishlar ko‘paygan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga bag‘ishlangan ishlar tadqiqotchilik kompetensiyasini mustaqil izlanish, muammo qo‘yish, metod tanlash, natijani tahlil qilish kabi

komponentlar orqali asoslaydi.

Talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish masalasi bo'yicha ishlar "ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi"ni ta'lim jarayonida ilmiy tafakkurni rivojlantirish bilan bog'laydi. Informatika o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha maqolalarda kompetensiya rivoji ko'pincha tajriba-sinov va metodik model orqali asoslanadi. Maqola mavzusi bilan bog'lanishi: mahalliy adabiyotlar tadqiqotchilik kompetensiyasini ko'proq metodik jihatdan (qanday rivojlantirish) yoritadi; bu sizning maqolangizda vazifalar va tamoyillarni asoslash uchun bevosita mos keladi [4].

Mahalliy manbalarda "AKT/axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi" talqini. Mahalliy ilmiy-uslubiy manbalarda "axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi" ko'pincha axborot bilan ishlash, kommunikatsiya va raqamli vositalardan ta'limiy maqsadda foydalanish qobiliyati sifatida izohlanadi. Maqola mavzusi bilan bog'lanishi: bu manbalar texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining texnologik qismiga "milliy terminologiya" (AKT/axborot-kommunikatsiya) orqali ilmiy tayanch beradi. Umumlashtiruvchi xulosa: adabiyotlar bo'yicha tendensiyalar va ilmiy "bo'shliq". Mos keladigan umumiy natija. Xorijiy adabiyotlar texnologik kompetensiyani ko'proq ramkalar/standartlar (UNESCO ICT-CFT, kompetensiyalar tasnifi) va integratsion nazariya (PCK/TPACK) orqali asoslaydi [5].

Mahalliy adabiyotlar esa ko'proq metodik modellar, ta'lim jarayonini loyihalash, hamda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasiga urg'u beradi. Ilmiy bo'shliq (sizning maqolangizni kuchaytiradigan nuqta). Ko'plab manbalarda "texnologik" va "tadqiqotchilik" kompetensiyalari alohida yoritiladi; ularni yagona "texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi" sifatida integrativ model ko'rinishida sistemalashtirish kamroq uchraydi. Shu bois sizning maqolangizda: maqsad-vazifa-tamoyillarni integrativ kompetensiya doirasida belgilash, "texnologiya"ni tadqiqot metodologiyasi va natija tahlili bilan bog'lash, mavzuning ilmiy yangiligini aniqroq ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy pedagogika va ta'lim nazariyasida keng qo'llanilayotgan kompetensiyaviy, tizimli hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlarning tanlanishi tadqiqot obyektining murakkab, ko'p komponentli va integrativ xarakterga egaligi bilan izohlanadi. Chunki texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi nafaqat bilimlar majmui, balki shaxsning ilmiy, texnologik va kasbiy faoliyatini uyg'unlashtiruvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida namoyon bo'ladi [6].

I. Tadqiqot yondashuvlari. *1. Kompetensiyaviy yondashuv.* Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning yetakchi metodologik asosi sifatida tanlandi. Mazkur yondashuv ta'lim natijalarini faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki shaxsning real kasbiy va ilmiy faoliyatda ushbu bilimlarni qo'llay olish qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Kompetensiya tushunchasi bu yerda bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va faoliyat tajribasining integratsiyalashgan birligi sifatida qaraladi.

Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rganish shaxsning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligi, texnologik vositalardan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish malakalari hamda innovatsion muammolarni hal etish qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv doirasida kompetensiyaning tarkibiy komponentlari (bilimiy, amaliy-operatsion, motivatsion va refleksiv) ajratildi va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

2. Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv kompetensiyani tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ularning funksional vazifalari va umumiy tizimdagi o'rni aniqlashga yo'naltirilgan.

Tizimli yondashuv asosida texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining maqsadi, vazifalari, tamoyillari, tarkibiy komponentlari va rivojlanish mexanizmlari yagona tizim doirasida ko'rib chiqildi. Bu esa kompetensiyani rivojlantirish jarayonini fragmentar emas, balki

izchil va uzviy tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur yondashuv kompetensiyaning rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish zaruratini asoslashga xizmat qiladi [7].

3. *Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.* Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv kompetensiyaning real faoliyat jarayonida shakllanishini asoslashga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxsda zarur kompetensiyalar faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish orqali emas, balki amaliy faoliyatda, xususan ilmiy-tadqiqot va texnologik faoliyat jarayonida shakllanadi.

Mazkur tadqiqotda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishni muammoli vaziyatlarni hal etish, tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, texnologik vositalardan foydalanish va natijalarni tahlil qilish jarayonlari bilan bog'lash imkonini berdi. Bu esa kompetensiyani shaxsning faol subyekt sifatidagi pozitsiyasi orqali tushuntirishga xizmat qildi.

II. Tadqiqot metodlari. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, asosan nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

1. *Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish.*

Ushbu metod orqali texnologik kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili mavzuning ilmiy holatini aniqlash, mavjud yondashuvlar va qarashlarni tizimlashtirish hamda tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashga xizmat qildi.

2. *Mantiqiy tahlil va umumlashtirish.*

Mantiqiy tahlil metodi yordamida o'rganilgan ilmiy qarashlar, tushunchalar va yondashuvlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar aniqlandi. Umumlashtirish orqali texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining mohiyati, maqsadi, vazifalari va tamoyillari bo'yicha xulosalar shakllantirildi.

3. *Taqqoslash va tasniflash metodlari.*

Taqqoslash metodi texnologik va tadqiqotchilik kompetensiyalarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashda qo'llanildi. Tasniflash metodi esa kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini, rivojlantirish yo'nalishlari va tamoyillarini ilmiy asoslangan guruhlariga ajratish imkonini berdi.

4. *Nazariy modellashtirish.*

Nazariy modellashtirish metodi texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishda qo'llanildi. Ushbu metod kompetensiyaning tarkibiy elementlari va ularning o'zaro aloqalarini vizual va mantiqiy jihatdan tasavvur etish, shuningdek, rivojlantirish jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Metodologik cheklovlar. Mazkur tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda empirik (tajriba-sinov, diagnostika, statistik tahlil) metodlardan foydalanilmadi. Shu bois tadqiqot natijalari konseptual va metodologik xulosalar bilan cheklanadi hamda ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish kelgusidagi ilmiy izlanishlarning vazifasi sifatida belgilanadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasini zamonaviy ta'lim tizimining muhim metodologik va amaliy muammolaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetensiyani rivojlantirishni faqat alohida fan, maxsus kurs yoki texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar doirasida cheklash uning mazmunini toraytiradi va kutilgan natijalarga erishishni qiyinlashtiradi. Aksincha, texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi butun ta'lim jarayonida integrativ yondashuv asosida, fanlararo bog'liqlikni ta'minlagan holda shakllantirilishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi faqat texnik bilimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari bilan chegaralanmaydi. U ilmiy tafakkur, metodologik madaniyat, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish

qobiliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda innovatsion yondashuvni o'zida mujassamlashtirgan murakkab integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat mazkur kompetensiyani rivojlantirish jarayonida faqat texnologik vositalarni o'rgatish emas, balki ilmiy izlanish metodologiyasini, tadqiqot madaniyatini va refleksiv faoliyatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur maqola natijalarini mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ko'plab ishlarda texnologik kompetensiya va tadqiqotchilik kompetensiyasi alohida-alohida o'rganilgan. Xususan, texnologik kompetensiya ko'pincha raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish yoki pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq holda yoritilgan. Tadqiqotchilik kompetensiyasi esa ilmiy izlanish ko'nikmalari, tadqiqot metodlarini bilish va ilmiy tafakkurni rivojlantirish nuqtayi nazaridan talqin qilingan. Ushbu maqolada esa mazkur kompetensiyalar yagona tizimda, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi integrativ kompetensiya sifatida ko'rib chiqildi.

Maqolada texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining maqsadi, vazifalari va tamoyillarining yagona tizim sifatida yoritilishi uning pedagogik amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xususan, bu yondashuv ta'lim jarayonini loyihalashda, o'quv dasturlari va fanlar mazmunini ishlab chiqishda, shuningdek, ta'lim natijalarini baholashda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kompetensiyaning tizimli tavsifi pedagoglarga uning rivojlanish jarayonini izchil rejalashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirish va nazorat qilish imkonini beradi.





Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim oluvchilarning passiv bilim oluvchi subyekt sifatidagi rolini o'zgartirib, ularni faol, mustaqil va mas'uliyatli tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya va uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Biroq mazkur tadqiqot natijalarini talqin qilishda ayrim cheklovlarni ham e'tiborga olish zarur. Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda empirik ma'lumotlar va tajriba-sinov natijalari keltirilmagan. Shu sababli ilgari surilgan xulosalar konseptual va metodologik tavsiyalar darajasida bo'lib, ularni ta'lim amaliyotida samaradorligini aniqlash uchun maxsus empirik tadqiqotlar o'tkazish zarur. Kelgusida texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan yondashuvlarni tajriba-sinov asosida tekshirish, diagnostika mezonlari va baholash ko'rsatkichlarini aniqlash ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Umuman olganda, mazkur muhokama texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalasining nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda uni zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash zarurligini asoslab beradi.

Natija. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasining mohiyati. 1. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiqot metodlarini tanlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir.

U quyidagi komponentlardan iborat:

-  bilimiy komponent (ilmiy va texnologik bilimlar);
-  amaliy-operatsion komponent (texnologiyalar va tadqiqot metodlaridan foydalanish);
-  motivatsion komponent (ilmiy izlanishga ehtiyoj);
-  refleksiv komponent (o'z faoliyatini tahlil qilish).

2. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning maqsadi

Asosiy maqsad — ta'lim oluvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda amalga oshirishga tayyorlikni shakllantirishdir. Ushbu maqsad quyidagi natijalarga erishishni ko'zda tutadi:

- ✚ innovatsion fikrlashni rivojlantirish;
- ✚ mustaqil ilmiy izlanish olib borish qobiliyatini shakllantirish;
- ✚ kasbiy faoliyatda texnologik yechimlardan samarali foydalanish.

3. Rivojlantirish vazifalari

Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

- ✚ ilmiy-tadqiqot faoliyatining nazariy asoslarini egallash;
- ✚ axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✚ muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish;
- ✚ ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- ✚ refleksiv faoliyatni yo'lga qo'yish.

4. Rivojlantirish tamoyillari

Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ✚ Ilmiylik tamoyili – faoliyatning ilmiy asoslanganligi;
- ✚ Tizimlilik va izchillik tamoyili – kompetensiyaning bosqichma-bosqich rivoji;
- ✚ Integrativlik tamoyili – texnologik va tadqiqotchilik faoliyatining uyg'unligi;
- ✚ Faollik va mustaqillik tamoyili – ta'lim oluvchining subyekt sifatida ishtiroki;
- ✚ Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili – bilimlarning real muammolar yechimiga qaratilishi.

Xulosa. Texnologik-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning aniq belgilangan maqsadi, vazifalari va tamoyillari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish orqali innovatsion, mustaqil va ilmiy fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев В.И. Педагогика высшей школы. – Казань: Центр инновационных технологий, 2018. – 500 с.
2. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании. – М.: ИЦПК, 2017. – 236 с.
3. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании. – М.: Академия, 2019. – 192 с.
4. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – М.: Просвещение, 2018. – 304 с.
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования. – М.: Народное образование, 2016. – 287 с.
6. Кодиров А.А. Замонавий педагогик технологиялар. – Тошкент: Fan, 2020. – 212 б.
7. Саидов С.С. Таълимда инновацион фаолият. – Тошкент: O'qituvchi, 2019. – 180 б.

ALISHER NAVOIY MEROSIDA KOMIL INSON TARBIIYASI NAZARIYASI VA UNING TA'LIMDAGI O'RNI

Temirov Nodirbek Ashur o'g'li, Buxoro Innovatsiyalar Universiteti "Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyati turlari bo'yich) yo'nalishi II bosqich magistri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati yordamchisi, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi a'zosi

nodirbektemirov13777@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasi haqidagi pedagogik qarashlari, ularning falsafiy ildizlari va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mutafakkirning ma'naviy komillik, ilm, odob, halollik, axloqiy poklik va ustoz-shogird an'anasiga asoslangan ta'limiy qarashlari Yangi O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimi bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogika konsepsiyalari, milliy qadriyatlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari asosida komil inson tarbiyasini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, komil inson, ma'naviy tarbiya, ilm-ma'rifat, ustoz-shogird, Yangi O'zbekiston, ta'lim islohotlari, milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogika, barkamol avlod.

ТЕОРИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ И ЕЕ МЕСТО В ОБРАЗОВАНИИ

Темиров Нодирбек Ашурович, магистр II курса специальности «Теория и история педагогики (по видам деятельности)» Бухарского инновационного университета, помощник депутата Законодательной палаты Олий Меджлиса Республики Узбекистан, член Молодежной консультативной группы при Бухарском городском совете народных депутатов.

nodirbektemirov13777@gamil.com

В данной статье глубоко анализируются педагогические взгляды Алишера Навои на воспитание совершенной личности, их философские корни и практическое значение. Образовательные взгляды мыслителя, основанные на духовном совершенстве, знаниях, порядочности, честности, нравственной чистоте и традиции «учитель-ученик», освещаются в неразрывной связи с системой образования Нового Узбекистана. Также раскрываются теоретические и практические основы формирования воспитания совершенной личности на основе современных педагогических концепций, национальных ценностей и инновационных образовательных подходов.

Ключевые слова: Алишер Навои, совершенная личность, духовное воспитание, наука и просвещение, учитель-ученик, Новый Узбекистан, образовательные реформы, национальные ценности, современная педагогика, гармоничное поколение.

THE THEORY OF PERFECT HUMAN EDUCATION IN THE HERITAGE OF ALISHER NAVOIY AND ITS PLACE IN EDUCATION

Temirov Nodirbek Ashur o'g'li, Master of the II stage in the specialty "Theory and History of Pedagogy (by types of activity) of the Bukhara Innovation University, Assistant to the Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Member of the Youth Advisory Group under the Bukhara City Council of People's Deputies

nodirbektemirov13777@gamil.com

This article deeply analyzes Alisher Navoi's pedagogical views on the upbringing of a perfect person, their philosophical roots and practical significance. The thinker's educational views based on spiritual perfection, knowledge, decency, honesty, moral purity and the tradition of the teacher-student are highlighted in an inextricable connection with the education system of New Uzbekistan. Also, the theoretical and practical foundations of the formation of a perfect

person's upbringing based on modern pedagogical concepts, national values and innovative educational approaches are shown.

Keywords: Alisher Navoi, perfect person, spiritual upbringing, science and enlightenment, teacher-student, New Uzbekistan, educational reforms, national values, modern pedagogy, harmonious generation.

Kirish. Alisher Navoiy (1441-1501). To'liq ismi - Nizomiddin Alisher Navoiy. U Hirotda tug'ilib, shu yerda yashab ulg'ayadi. Bolaligidan adabiyot va badiiy ijodga muhabbati baland edi, she'r tinglashni va o'qishni juda sevgan. Alisher Hirotda va Mashhadda o'qigan, mantiq, falsafa, musiqa, husnixat va boshqa fanlari, arab, fors tillarini o'rgangan. 15 yoshida xalq orasida iste'dodli shoir sifatida tanilgan. Ustozlari: Mir Sayyid Qobuliy (tog'asi), Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Ali G'aribiy, Abullays Samarqandiy. Shogirdlari: Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Sultonali Mashhadiy, Ustod Noiy, Abdulloh Husayniy va h.k. Asarlari: "Hamsa": "Hayrat ul-abror" (1483), "Farhod va Shirin" (1484), "Layli va Majnun" (1484), "Sab'ai sayyor" (1484), "Sadi Iskandariy" (1485); "Xazoin ul-maoniy" (1491-1498), "Muhokamat ul-lug'atayn" (1499), "Badoyi ul-bidoye" (1500), "Majolis un-nafoiy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Nasoyim ul-muhabbat", "Nazmul javohir". Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazini talqin etadi. Uning asar qahramonlari jismonan ko'rkam, go'zal bo'lish bilan birgalikda ma'nan yetuk, ahloqan barkamol shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi. U o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrokning ahamiyati, aqiy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi. Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlar: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yolini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlar ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida o'zining axloqiy qarashlarini bayon qilgan. U haqiqiy insonni - sof vijdonli, pok, mehnatsevar, saxovatli, insofli, odobli, kamtar, xayoli, muruvvatli shaxs deb hisoblaydi. Bunday xislatlarni odamlarda tarkib toptirish uchun esa ularda ana shu olijanob xislatlarni tarbiyalash lozim deydi. Asarda Navoiy mamlakatda tinchlik, osoyishtalik, obodonchilik bo'lishi uchun podshoh adolatli bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi, shundagina xalq ham shohga qarab insof bilan ish yuritadi, deb uqtirdi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari, yaxshi xulq-atvor xususida to'xtalib o'tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta'rifini beradi. U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini to'ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o'tilgan xislatlarga ta'rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo'lgan yomon illatlar to'g'risida so'z yuritadi va ulardan qutilish yo'llarini ham bayon qiladi. Alloma axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritir ekan: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi". Alisher Navoiy asarlarida ilm odobi, jamiyat boshgaruv odobi, adolatli boshliq odobi masalalari yuqori o'rinda turgan. Ta'lim jarayonida Navoiy asarlaridan foydalanish natijasida talabalarda barcha ijobiy axloqiy fazilatlar yuksaltirish mumkin. Alisher Navoiy o'zbek ma'naviyati, madaniyati va pedagogik tafakkurining eng yuksak namoyandalaridan biridir. Uning asarlari nafaqat adabiy durdona, balki inson tarbiyasi, axloqiy komillik va ma'naviy

yetuklikning mukammal dasturi sifatida qadrlanadi. Navoiy asarlarida komil inson tarbiyasi masalalari markaziy o‘rinda bo‘lib, mutafakkir tarbiyani insonni jamiyatga foydali, ma‘rifatli, halol, vijdonli, adolatli qilib tarbiyalash jarayoni sifatida talqin qiladi. Navoiyning pedagogik qarashlarining asosini ilmga bo‘lgan hurmat tashkil etadi. Uning fikricha, ilm insonni jaholatdan xalos etadi, qalbni yoritadi va jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor bo‘ladi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy: “Ilm insonga sharaf, jaholat esa uyat keltirur”, — deb ta‘kidlaydi. Bu fikr bugungi zamonaviy ta‘lim konsepsiyasida ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ilmning yuksak qadrlanishi Yangi O‘zbekiston ta‘lim islohotlarining ham asosiy tamoyillaridan biridir. Navoiyning pedagogik qarashlarida odob va axloq tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. U insonning komillikka erishuvi uchun avvalo odobli, pok niyatli, to‘g‘ri so‘zli bo‘lishi zarurligini qayd etadi. Uningcha, odob — inson kamolotining mezoni, tarbiyaning eng muhim ko‘rsatkichidir. “Xamsa” dostonlarida keltirilgan ibratli hikoyatlar orqali u yoshlarni halollik, sabr, adolat, rostgo‘ylik, insof kabi fazilatlarga chorlaydi. Mutafakkirning tarbiya konsepsiyasida ustoz-shogird an‘anasi alohida baholanadi. Unga ko‘ra, tarbiya jarayoni – avlodlar davomiyligini ta‘minlovchi muqaddas omil bo‘lib, ustoz ma‘naviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, shogird esa ilm olishga intiluvchi, ma‘naviy yetuklikka erishuvchi shaxsdir. Navoiyning ustozlarga bo‘lgan hurmati va ularni yuksak maqomda ko‘rsatishi bugungi pedagogik etikada ham muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston ta‘lim-tarbiya tizimi ham Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlanmoqda. Bugungi ta‘lim islohotlari yoshlarni intellektual, ma‘naviy, axloqiy jihatdan rivojlantirishni, ularni mustaqil fikrlovchi, ijodkor, bilimli shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qilgan. Prezident huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish agentligi tomonidan belgilangan standartlar, maktab va oliy ta‘lim tizimida innovatsion metodlar joriy etilishi, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ta‘lim siyosatining mazmunini belgilab bermoqda. Zamonaviy pedagogika ilmiga ko‘ra, ta‘lim jarayoni — shaxsning intellektual rivoji bilan birga, uning ma‘naviy va axloqiy dunyosini boyitishga qaratilgan uzviy tizimdir. Bu tamoyillar Navoiy asarlarida yuksak darajada o‘z ifodasini topgan. Mutafakkirning har bir fikri, nasihat va ibratli misollarida bugungi barkamol avlod tarbiyasiga mos pedagogik g‘oyalar mujassamdir. Shuning uchun ham hozirgi O‘zbekistonda Navoiy merosi ta‘lim dasturlariga keng tatbiq qilinmoqda. Milliy qadriyatlar bilan zamonaviy innovatsion ta‘lim yondashuvlarining uyg‘unligi — bugungi pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, kompetensiya asosidagi yondashuvlar qo‘llanilayotgani bilan birga, Navoiy merosidagi ma‘naviy fazilatlar, odob-axloq mezonlari va tarbiyaviy tamoyillar yoshlar qalbiga singdirilmoqda. Bu birlik komil inson tarbiyasi uchun ideal metodologik asosdir. Alisher Navoiy o‘zining bebaho adabiy va ma‘rifiy merosi bilan nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun Sharq ma‘naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biridir. Uning inson tarbiyasiga oid qarashlari bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan bo‘lib, komil insonni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik konsepsiya sifatida ahamiyat kasb etadi. Navoiy o‘z asarlarida insonning kamolotga erishishi faqat tashqi ta‘lim bilan emas, balki qalb tarbiyasi, axloqiy poklik, aql-idrokni charxlash, ma‘naviy fazilatlarni egallash orqali amalga oshishini ta‘kidlaydi. Uning fikrlariga ko‘ra, tarbiya — insonni jamiyatga nafi tegadigan, xulqi pok, ilmli, odobli va mas‘uliyatli qilib yetishtirishga qaratilgan uzviy jarayondir. Mutafakkirning ta‘limotida ilm-ma‘rifatning o‘rni benihoya yuksak baholanadi. Navoiy ilmni shaxsning eng ulug‘ ziynati, jamiyatni rivojlantiruvchi ichki kuch sifatida talqin qilib, jaholatni insoniyatning eng katta dushmani sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oya zamonaviy O‘zbekiston ta‘lim siyosatida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bugungi islohotlarning asosiy maqsadi ham yoshlarni zamonaviy bilimlarga ega, ijodkor va fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Ta‘lim tizimining raqamlashtirilishi, yangi o‘quv dasturlarining joriy etilishi, xalqaro baholash tizimlariga mos kompetensiyaviy yondashuv — bularning barchasi Navoiy ilgari surgan ilmga intilish ruhining amaliy ko‘rinishidir.

Navoiy axloqiy fazilatlarni inson komilligining mezoni deb biladi. U halollik, sabr, to‘g‘rilik, adolat, vijdon, insof kabi fazilatlarni insonning ma‘naviy qiyofasini belgilovchi asosiy sifatlar sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning fikricha, ilmsiz axloq bo‘lmaganidek, axloqsiz ilm ham

insonni haqiqiy komolotga eltmaydi. Bu fikr bugungi ta'lim tizimida ham muhim o'rin tutadi. Xususan, maktablar va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning kengaytirilishi, tarbiya fanlarining yangilanishi, yoshlar bilan ma'naviy ishlarda klassik merosga tayangan holda yondashuvlar ishlab chiqilayotgani Navoiy qarashlari bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Global axborot makonida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash uchun bunday qadriyatlarning ta'siri yanada muhimdir.

Ustoz-shogird an'anasi Navoiy merosining eng ko'p qadrlanadigan jihatlaridan biridir. Mutafakkir ustozni bilim beruvchi emas, balki shogirdning qalbiga ma'naviy yo'l ochuvchi murabbiy, tarbiyachi sifatida tasvirlaydi. Ustozning har bir amali, har bir so'zi shogirdning dunyoqarashiga, xulqiga, hatto hayotiy maqsadlariga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, Navoiy shogirdning ustozga hurmati, unga sodiqligi, ilm olishdagi matonatini alohida tarannum qiladi. Bugungi O'zbekiston ta'lim islohotlarida o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratish, malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar aynan shu qadriyatlarning davomidir. Ta'lim sifatini oshirish, pedagoglar nufuzini yuksaltirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar Navoiy ta'limotining bugungi kun bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi chuqur islohotlarning yangi bosqichiga kirgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash strategik vazifa sifatida belgilangan. Interfaol ta'lim metodlari, raqamli platformalar, STEAM ta'limi, kreativ va tanqidiy fikrlashga asoslangan dars jarayonlari joriy etilayotgani bilan birga, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytirish borasida Navoiy merosi muhim manba vazifasini o'tamoqda. Yoshlarning dars jarayonida nafaqat bilim olishi, balki axloqiy, ma'naviy, vatanparvarlik fazilatlarini egallashi komil inson tarbiyasining zamonaviy talqini bo'lib, bu yo'nalishda Navoiyning asarlari o'quv-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari bugungi Yangi O'zbekiston ta'lim tizimining ma'naviy asosini tashkil etadi. Mutafakkirning ilmga intilish, odob-axloqning ustuvorligi, ustoz-shogird munosabatlariga oid g'oyalari zamonaviy pedagogikaning negizini boyitib, yoshlar tarbiyasiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Navoiyning ma'rifiy merosini bugungi ta'lim-tarbiya jarayoniga chuqur tatbiq etish, yoshlarni ma'naviy yetuk, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilib, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib qolaveradi.

Buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangan. Chunki, hazratning insonparvarlik g'oyalari millatidan, jinsidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar umuminsoniyatning manfaatiga xizmat qilmoqda.

Navoiy ijodining markazida inson turadi. Allomaning nazaridagi inson ijodkor, qobiliyatli, bilimli, sabr-qanoatli, rostgo'y adolatli, halol, insofli mehnatsevar va kamtarlik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lgan shaxs.

Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog'u toshlar, o'simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so'z bilan aytganda butun borliq yaratilgan.

Ammo hazrati inson bu mo'jizalarning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha noz-ne'matlar, yaxshi narsalar inson uchun yaratilgan. Aql-farosat sohibi bo'lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson aql farosati, tafakkuri, muomala madaniyati, o'zini tutishi, tevarak-atrofga bo'lgan munosabati bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi.

Mutafakkir "Nasoyimul muhabbat" asarida avliyolarga xos bo'lgan 16ta sifatga, ya'ni tavba, halol luqma bilan ovgatlanish, o'z kasbi bilan kun o'tkazish, shariatga rioya etish, tariqat odobini saqlash, kamsuqumlik, farzandlari va xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil, saxiy va mard bo'lish, ilmlilik, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabrli, sadoqatli va vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqqmaslik xislatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Alisher Navoiy insonga hayotdagi faoliyatiga, kasbi-koriga, foydali ishlariga qarab baho bergan. Allomaning barcha asarlarida komil insonga xos sifatlar yoritib berilgan. Jumladan, odob to'g'risidagi fikr-mulohazalari e'tiborga loyiq. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, istarasi issiq va yoqimli bo'ladi. Bunday inson doimo izzat-hurmatga loyiq. Yutuq va erishilgan natijalar odob orqali kelishi, obro' misqollab yig'ilishi va botmonlab to'kilishi mumkinligi hayotning sinovidan o'tgan haqiqatdir. Shuningdek, mutafakkirning komil insonga xos g'oyalaridan biri qo'li ochiqlik, saxiylikdir. "Karam - bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoq. Karam - birovning mashaqqat tikanining og'irlig'ini ko'tarmoq va u tikan uchidan gulidek ochilmoq va o'sha qilgan ishlarni tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uni yuziga solmaslikdir".

Himmatli kishilar xalqning orasida obro'ga sazovor bo'ladi. Alloma odamlarni insofli, saxovatli, adolatli, ahil va karomatli bo'lishga, bir-biriga yordam berishga da'vat etadi. Mutafakkir ehsonni ulug'lab: "Ehson degan sifatni abadiy saodat bil. Kishilik bog'ining ko'ngilga yoqar daraxti ehsondir. Barcha maqbul sifatlar va holatlar ehsonga qarashlidir, bu sifat va holatlarni u o'z ichiga olgan hamda shuning o'zida voqeadir. U barcha ezguliklarni o'zida to'plagan va barcha yaxshiliklar haqiqatdan unga tegishlidir

Navoiyning fikricha, yaxshilikni o'ziga maqsad qilib olgan odamlar saxiy va himmatli bo'ladi. "Saxiylik kishilar bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqinli daryoning asl gavharidir".

Navoiy odamlarga saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o'zidagi aql va bilim yordamida ularga ma'naviy ko'mak ham berishi kerakligini aytadi. Shoir saxiylik himmatli bo'lish bilan bog'liq ekanini uqtirib shunday deydi: "Saxiylik odamning odobidir, himmat uning joni, himmat dunyoga yuz ming kushoyish bo'lar, himmatsiz kishi er sendek emas, jonsiz badanli kishi tirik emas"

Navoiy komil insonga xos xislatlar tavoze, ishq, vafo, saxovat himmat, muruvvat, ilm, kamtarlik kabi fazilatlar ekanini aytadi. "Qanoat - bu buloqdir, suvini olgan bilan qurimaydi, xazinadir. Naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir, urug'i lazzat va shafqat mevasini beradi; daraxtdir, shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi", deb ifodalaydi. "Sabr achchigdir, ammo u foyda beruvchi, qattigdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlarni ochqichdir. Achchiq so'zli nasihatday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'liq yuz beradi". Alisher Navoiyning fikricha, har bir inson xalqiga xizmat qilishi va foyda keltirishi kerak. o'z manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo'ymasligi lozim. Xalqqa ish, so'z va ko'ngil bilan ham foyda keltirish kerak. El-yurt manfaati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson desa bo'ladi. Hazratning insonga muhabbati vatanga muhabbati bilan bog'lanib ketgan. "Hayratul abror" dostonida shoir Hirotning tabiatini, tiniq chashmalarni tog'u toshlarni yuksak mehr-muhabbat bilan kuylaydi.

Asarda Hirotning Misr bilan bir qatorda Samarqandning tilga olinishi bu ko'hna kentning dunyo tamaddunida o'z o'rni borligiga yana bir bor ishonch uyg'otadi, qalblarimizni quvontiradi, Vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usini oshiradi.

Alisher Navoiy ilgari surgan xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Hazratning g'oyasida so'z va ishning birligiga amal qilish fikri ilgari surilgan.

U o'z mablag'idan xalq uchun masjidlar, madrasalar, hammomlar, shifoxonalar, hovuzlar, ko'priklar, rabotlar qurdirgani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

Bugungi asosiy vazifamiz - mutafakkirning umrboqiy g'oyalaridan, xayrli ishlaridan ibrat olish va uni hayotimizning mazmuniga aylantirish. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiyning ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda va uning asarlari qaytadan nashr etilmoqda.

2020-yil 19-oktyabrda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Bu

qarorda mutafakkirning asarlarida teran ifoda etilgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rni va bu g'oyalarning yoshlar qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati nazarda tutilgan. Ulug' shoirning adabiy-ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganish va targ'ib qilish maqsadida tegishli vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, qarorda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi Alisher Navoiyning asarlarini uzluksiz o'qitish konsepsiyasini ishlab chiqishi hamda 2021-2022 o'quv yillarida barcha ta'lim muassasalarida shu asosida o'qitish yo'lga qo'yilsin", deb ta'kidlangan. Qarorda "Navoiy va yoshlar" maxsus dasturini ishlab chiqish, umumta'lim maktablarida "Navoiy vorislari" g'azalxonlik tanlovini va Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarida "Navoiyni anglash" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash vazifasi belgilab berilgan edi. Bu vazifalar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmogda.

o'quvchi-yoshlarda ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda, Navoiy merosidan foydalanishni takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun Navoiy asarlaridagi maqolot, hikoyat va rivoyatlar asosida multimediyalar tayyorlanish;
- boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan tasviriy san'at, musiqa darslarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilsa;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Navoiy asarlarining lug'lati ishlab chiqilsa;
- umumta'lim maktablarida "Navoiyning til sandig'i" tashkil etilsa;
- oliy ta'lim muassasalarida "Navoiy pedagogikasi" maxsus kurs yoki tanlov fan sifatida o'qitilsa;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida o'qitiladigan ijtimoiy fanlardagi mavzularga Navoiyning insonparvarlik g'oyalari singdirilib, ular tinglovchilarga yetkazilsa;
- Navoiyning bolaligi, o'smirligi, o'spirinligi va katta yoshdagi hayotiy faoliyati aks etgan seriallar tayyorlanib xalqimizga tagdim etilsa;
- mutafakkirning ijodi faqat tavallud kunida yoki bayramlarda emas, yil davomida tizimli ravishda o'rganilsa millatimizning quyoshi bo'lgan hazrat Navoiyning ruhiyati oldidagi ma'naviy burchimizni bajargan bo'lamiz.

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 28 yanvarda "Yangi o'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Bu farmonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yettita ustuvor yo'nalishdan iborat "Yo'l xaritasi" ishlab chigildi.

Taraqqiyot strategiyasida "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" belgilab berilgan. "Qadr - odamning odamlar orasida, xalqning xalqlar orasida topgan hurmati, o'rni, obro' e'tiborini, nufuzini bildiradi. Inson qachon xor, baxtsiz bo'ladi? Agarda el nazaridan qolsa yoki qadr-qimmatini yerga urilsa, poymol qilinsa.

Mamlakatimizda "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi asosida Yangi o'zbekistonni barpo etishning zarur, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Bundan sal kam olti asr oldin hazrat Navoiy ilgari surgan insonparvarlik g'oyasining taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan hamohang ekanini ko'rish mumkin.

Bu g'oyalar mamlakatimizning kelajagiga, xalqimizning farovon va osoyishta hayot kechirishiga, inson qadr-qimmatining ulug'lanishiga xizmat qiladi.

Navoiyning ijod bulog'idan suv ichgan bu g'oyalar xalqimizni va mamlakatimizni porloq

cho‘qqilar sari undayveradi.

Sharq xalqlarining adabiyoti ganchalik chuqur o‘rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko‘rina boradi. Adabiy aloqalarning o‘rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to‘laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Navoiy merosini o‘rganish yolg‘iz o‘zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig‘i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko‘rsatganligidan uning ijodini o‘rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o‘zbek xalgining adabiyotini o‘rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag‘ishlagan bu ulug‘ san'atkorning hayoti va ijodini o‘z madaniyatlarini o‘z adabiyotlari tarixini chuqur o‘rganish, o‘zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o‘rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo‘lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o‘zining kuchli ta'sirini ko‘rsatgan. Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushuncha.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham, o‘zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o‘zining umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo‘li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo‘lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Ahloq shaxsning og‘ir baqolig‘ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axlogdir". Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshgalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi: Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta'riflaydi.

El gochsa birovdin el yomoni bil oni,

Ahvolida idbor nishoni bil oni.

Fe'l ichra ulus bolam joni bil oni,

Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do‘st-inoq va hamjihat bo‘lib yashamas ekanlar, o‘z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg‘izlik bilan hech qanday ish qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do‘st bo‘lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi, shu bilan birga soxta, g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi. Navoiy ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganligida deb biladi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘laydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning inson tarbiyasi haqidagi qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosati bilan uyg‘un holda yangi mazmun kasb etmoqda. Mutafakkirning ilm, odob, halollik, ustoz-shogird an’anasi, ma’naviy komillik haqidagi fikrlari zamonaviy pedagogikaning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Navoiyning pedagogik merosi – barkamol avlodni tarbiyalashda beqiyos manba bo‘lib, uni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan, 1978;
2. Ya. G‘ulomov. Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida. Kitobda: "Ulug‘ o‘zbek shoiri". -T.:1948;
3. Bertels E.E. Navoiy. Opit tvorcheskoy biografii. -M,L.: 1948;
4. Oybek. Navoiyning tarjimai holi. Kitobda: "Navoiy gulshani". -T.:1967;

5. S.G'anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;
6. V.Abdullaev. Navoiy Samargandda. -T.: 1968;
7. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969;
8. V. Zohidov. Ulug shoir ijodining qalbi. -T.: o'zbekiston, 1970;
9. A.Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). -T.:1976;
10. S.Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. - T.: Fan, 1978;
11. Fitrat. Navoiyning forsiy shoirlig'i va fors tilidagi asarlari to'g'risida.
12. Tanlangan asarlar. 2-jild. -1.: 2000;
13. M.Shayxzoda. G'azal mulkining sultoni. Asarlar. Olti tomlik. T.4. -T.:1972;
14. Hamid Sulaymon. Alisher Navoiyning fors tilidagi poetik merosi tadqiqotidan.
15. "o'zbek tili va adabiyoti" jurn. 1965, № 5;
16. A.Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. -T.: 1979;
17. A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. -T.: 1961;
18. Yo.Ishoqov. Navoiy poetikasi. — T.:1984;
19. M.Hakimov. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. - T.: 1983).
20. B. Akrom. Fasohat mulkining sohibqironi. -T.:1991;
21. Z.Hamidov. Navoiy badiiy san'atlari. — T.: Universitet, 2001;
22. N.Bozorova. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. -T.: 2002;
23. "Insoniyat haqida Navoiyning fikri. — T.: 1919;
24. Fitrat. "Farhodu Shirin" dostoni to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000;
25. T.Jalolov. "Xamsa" talqinlari. -T.: 1962;
26. S.Erkinov. Alisher Navoiyning "Farhodu Shirin"i va uning qiyosiy tahlili. — T.: Fan, 1971;
27. A.Qayumov. "Xayratul-abror" talqinlari. - T.: 1972;

IJTIMOY INTEGRATSIYA - INSONNING “O‘ZLIGINI” JAMOA ORQALI ANGLASH JARAYONI

Raxmatov Alisher Obidovich, Mustaqil izlanuvchi, xalq deputatlari Buxoro viloyati, Kengashi
bosh mutaxassisi

+998335500302, alisherraxmatov154@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy integratsiya inson shaxsining shakllanishi va uning “o‘zligini” anglash jarayonidagi muhim ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ijtimoiy integratsiya shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib borishi hamda jamoa bilan o‘zaro ta’siri orqali ro‘y beradigan murakkab jarayon ekanligi asoslab beriladi. Jamoa shaxs uchun ijtimoiy oyna vazifasini bajarib, uning o‘ziga baho berishi, ijtimoiy rolini anglash va shaxsiy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada ijtimoiy integratsiyaning shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ faollik va ma’naviy kamolot bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlarning insonni jamiyatga integratsiyalashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy integratsiya, shaxs, jamoa, o‘zlikni anglash, ijtimoiylashuv, identifikatsiya, ijtimoiy muhit.

СОЦИАЛЬНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ — ПРОЦЕСС ОСОЗНАНИЯ ЧЕЛОВЕКОМ СВОЕЙ «ИДЕНТИЧНОСТИ» ЧЕРЕЗ ОБЩЕСТВО

Ракматов Алишер Обидович, независимый исследователь, главный специалист

Бухарского областного Кенгаша народных депутатов

+998335500302, alisherraxmatov154@gmail.com

Аннотация: В статье социальная интеграция рассматривается как важное социально-психологическое явление в процессе формирования личности и осознания ею собственной идентичности. Обосновывается, что социальная интеграция представляет собой сложный процесс, осуществляющийся через адаптацию личности к обществу, включение в систему социальных отношений и взаимодействие с коллективом. Коллектив выступает в качестве социального зеркала, способствующего самооценке личности, осознанию социальных ролей и укреплению личностной идентификации. В статье раскрывается взаимосвязь социальной интеграции с процессами социализации, социальной адаптации, коммуникативной активности и духовного развития личности. Также с научно-теоретических позиций обоснована роль образовательных и социальных институтов в интеграции личности в общество.

Ключевые слова: социальная интеграция, личность, коллектив, самосознание, социализация, идентификация, социальная среда.

SOCIAL INTEGRATION — THE PROCESS OF AN INDIVIDUAL UNDERSTANDING THEIR “IDENTITY” THROUGH SOCIETY

Alisher Obidovich Rakhmatov, Independent Researcher, Chief Specialist of the Bukhara

Regional Council of People's Deputies

+998335500302, alisherraxmatov154@gmail.com

Annotation: This article analyzes social integration as an important socio-psychological phenomenon in the process of personality formation and self-awareness. Social integration is substantiated as a complex process that occurs through an individual’s adaptation to society, inclusion in the system of social relations, and interaction with the community. The community serves as a social mirror for the individual, contributing to self-evaluation, understanding of social roles, and strengthening personal identification. The article highlights the close relationship between social integration and socialization, social adaptation, communicative activity, and moral development of the individual. In addition, the role of educational institutions and social institutions in integrating individuals into society is theoretically and scientifically justified.

Keywords: social integration, personality, community, self-awareness, socialization, identification, social environment.

Insonning o'zini anglashi faqat ichki tafakkur yoki psixologik tajriba bilan emas, balki jamiyatdagi muloqot, hamkorlik, mehnat va ijtimoiy faoliyat orqali ro'y beradi. Bu jihatdan, integratsiyaning antropologik mohiyati insonning "yagona dunyodagi" mavjudligini anglatadi. Inson boshqalar bilan birgalikda yashash orqali ma'no topadi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan munosabat orqali o'z qadrini his etadi. E.Frommning fikricha, insonning eng katta ruhiy ehtiyoji - bu "aloqadorlik", ya'ni boshqalar bilan ma'naviy bog'lanish ehtiyojidir. Agar inson jamiyatdan uzilib qolsa, uning ong va ruhiyatida yolg'izlik, begonalashuv, ma'nosizlik holati paydo bo'ladi. Demak, ijtimoiy integratsiya insonning ruhiy barqarorligi va hayot mazmuni uchun zarur ekzistensial shartdir.

Ijtimoiy integratsiyaning falsafiy mazmunini ochishda uning qiymati, qadriyatga asoslangan (aksiologik) mohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Integratsiya jamiyatdagi turli qiymatlar - tenglik, adolat, hurmat, hamjihatlik, erkinlik kabi universal tamoyillarning hayotiy amaliyotda namoyon bo'lishini ifoda etadi. Ya'ni integratsiya nafaqat ijtimoiy munosabatlar tizimidagi funksional muvofiqlik, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligidagi ma'naviy birlikdir.

Aksiologik nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy integratsiya jamiyatning ma'naviy barqarorligini belgilaydigan mezondir. Agar jamiyatda umumiy qiymatlar tizimi shakllangan bo'lsa, insonlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlik yuqori bo'ladi. Bunday holatda ijtimoiy munosabatlar faqat huquqiy yoki iqtisodiy shartlar bilan emas, balki ma'naviy mas'uliyat va axloqiy qoidalar bilan ham boshqariladi. Bu esa jamiyatning ichki muvozanati va barqarorligi uchun asos yaratadi.

Shu ma'noda, integratsiya jamiyatning faqat tashqi birligi emas, balki uning ma'naviy muhitidagi uyg'unlik darajasini ham ifoda etadi. Buni falsafiy nuqtai nazardan "ijtimoiy ong birligi" deb atash mumkin. Agar jamiyatda ijtimoiy ong va umumiy qadriyatlar tizimi mustahkam bo'lsa, integratsiya jarayonlari tabiiy ravishda kechadi. Ammo ma'naviy inqiroz, qiymatlar parchalanishi yoki individualizm hukmron bo'lgan holatda integratsiya so'nib, ijtimoiy dezintegratsiya avj oladi.

Antropologik va aksiologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy integratsiya - bu insonning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va jamiyatning uyg'un rivojlanishini ta'minlovchi umumfalsafiy kategoriyadir. U shaxsning jamiyatdagi mavqeini, insoniy munosabatlarning mazmunini va jamiyatning umumiy ma'naviy yo'nalishini belgilaydi.

Shuning uchun ham zamonaviy falsafada ijtimoiy integratsiya "inson va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy ko'priq" sifatida talqin etiladi. Bu ko'priq orqali inson faqat jamiyatga emas, balki insoniyat madaniyatining umumiy tizimiga ham qo'shiladi.

Ijtimoiy integratsiya fenomeni faqat milliy yoki lokal darajada emas, balki global falsafiy kontekstda ham dolzarbdir. XXI asrda globallashtiruv, axborotlashuv va madaniy plyuralizm jarayonlari kuchayishi natijasida insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga qadam qo'ydi. Bu jarayonda ijtimoiy integratsiya masalasi nafaqat ichki jamiyatlar ichida, balki turli madaniyatlar, dinlar va qiymat tizimlari o'rtasidagi munosabatlar miqyosida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashtiruv falsafasi nuqtai nazaridan, integratsiya - bu insoniyatning yagona kommunikatsion va madaniy makonga aylanish jarayonidir. F.Fukuyama, E.Giddens, Yu.Habermas, S.Xantington kabi mutafakkirlar asarlarida global integratsiya masalasi turlicha talqin etilgan. Masalan, Giddens "refleksiv modernizatsiya" nazariyasida global integratsiyani zamonaviy jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'radi. Uning fikricha, axborot texnologiyalari, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va madaniy almashinuvlar orqali butun dunyoda "ijtimoiy hamjihatlikning yangi shakllari" shakllanmoqda.

Biroq global integratsiyaning ijobiy qirralari bilan birga, uning ziddiyatli tomonlari ham mavjud. S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasida ta'kidlanishicha, global

integratsiya madaniy identiklikning yo‘qolishi, milliy qadriyatlar zaiflashishi va g‘arb madaniyatining hukmronligi orqali “madaniy gegemoniya” holatiga olib kelishi mumkin. Bu nuqtai nazardan integratsiya har doim ham uyg‘unlashuvni anglatmaydi, balki ayrim hollarda begona madaniy ta’sirlar natijasida dezintegratsiyaga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Global falsafiy kontekstda integratsiyani madaniy muloqot falsafasi orqali tahlil qilish muhim. Bu falsafiy yo‘nalish (M.Baxtin, X.Gadamer, P.Rikyor) inson va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglash va ma’no almashinuv jarayonlarini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Gadamerning “gorizontlar birlashuvi” g‘oyasiga ko‘ra, haqiqiy integratsiya – bu bir madaniyatning boshqasiga singib ketishi emas, balki ularning ma’naviy muloqot orqali umumiy ma’no maydonida uyg‘unlashuvidir. Shu ma’noda, global integratsiyaning falsafiy mohiyati – “madaniyatlar muloqoti” orqali umuminsoniy ma’naviy makonni shakllantirishdir.

Zamonaviy sivilizatsiya modellarda ham ijtimoiy integratsiyaning turli shakllari kuzatiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi tajribasida integratsiya iqtisodiy, huquqiy va madaniy uyg‘unlikka asoslangan institutsional tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu model fuqarolik tengligi, huquq ustuvorligi va umumiy qiymatlar (erkinlik, inson huquqlari, demokratiya)ni ta’minlashga qaratilgan. Ammo bunday integratsiyaning muvaffaqiyati uning ma’naviy poydevori – ishonch, madaniy hurmat va umumiy identiklik tuyg‘usining darajasiga bog‘liq.

Shuningdek, Sharq sivilizatsiyalarida (xususan, Islom va Konfutsiychilik an‘analarida) integratsiya g‘oyasi ma’naviy birlik va axloqiy uyg‘unlik tamoyillari bilan asoslanadi. Masalan, islom falsafasida “umma” tushunchasi - barcha musulmonlarning ma’naviy va axloqiy jamoasi sifatidagi integratsiya shaklidir. Bu birlik diniy emas, balki ma’naviy-axloqiy hamjihatlikni anglatadi. Konfutsiy falsafasida esa “jamoaviy uyg‘unlik” insonning axloqiy muvozanat va ijtimoiy burch orqali jamiyat bilan birlashishini nazarda tutadi. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir sivilizatsiya tizimida integratsiyani o‘z madaniy kod va ma’naviy qiymatlariga asoslanib talqin etadi. Demak, integratsiyaning universal modeli yo‘q - uning mazmuni har bir madaniyatda o‘ziga xos ma’no va shaklda namoyon bo‘ladi. Ammo barcha modellar uchun umumiy jihat - bu insonni jamiyat va insoniyat bilan ma’naviy birlashtirish maqsadi.

Ijtimoiy integratsiyaning global falsafiy konteksti uning universal ahamiyatini ko‘rsatadi. U faqat milliy barqarorlik yoki ijtimoiy tizimning muvofiqligi uchun emas, balki butun insoniyatning ma’naviy uyg‘unligi va tinch hamjihatligi uchun ham zarurdir. Zamonaviy sivilizatsiya rivojlanish shunday xulosaga olib keladiki: insoniyat kelajagi “hukmronlik falsafasi”da emas, balki “integratsiya falsafasi”da mujassamdir.

Shaxsning ijtimoiy integratsiyalashuvi nazariyasini anglash jarayonida uning falsafiy-ontologik asoslari muhim o‘rin tutadi. Chunki har qanday integratsiya jarayonining mohiyati, avvalo, insonning jamiyat bilan o‘zaro munosabati, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mavqei va faolligi orqali namoyon bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy integratsiya insonning faqatgina tashqi muhitga moslashishi emas, balki uning shaxsiy mohiyatini, o‘zligini anglashi, jamiyatdagi ma’naviy, madaniy va axloqiy munosabatlarga qo‘shilishi jarayoni hamdir.

Falsafada integratsiya tushunchasi umumiy butunlikni tashkil etish, tizim elementlarining o‘zaro bog‘lanishi va uyg‘unlikda faoliyat yuritishini anglatadi. Demak, ijtimoiy integratsiya insonning ijtimoiy muhit bilan uyg‘un holatga kirishini, uning jamiyatda faol ijtimoiy mavqega ega bo‘lishini ta’minlaydigan jarayondir. Bu jarayonda shaxsning individual imkoniyatlari, dunyoqarashi, axloqiy-ruhiy holati, bilim va malaka darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, ijtimoiy integratsiyalashuvni ikki yo‘nalishda tahlil etish mumkin: birinchisi, uning individual-psixologik asoslari, ikkinchisi esa ijtimoiy-strukturaviy asoslari. Birinchi yo‘nalish shaxsning ichki dunyosi, uning motivlari, ehtiyojlari va qadriyat yo‘nalishlarini qamrab olsa, ikkinchisi jamiyatning institutsional tizimi, ijtimoiy rollar va normalarning shaxs ongiga ta’siri bilan bog‘liq. Shu jihatdan ijtimoiy integratsiyaning metodologik tahlilida inson faoliyatining subyekt munosabati markaziy o‘rin tutadi.

Ijtimoiy va falsafadagi turli nazariy maktablar bu masalaga nisbatan turlicha yondashgan. Masalan, E.Dyurkgeym ijtimoiy integratsiyani jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin etgan

bo'lsa, T.Parsons uni ijtimoiy tizimning funksional elementi sifatida ko'radi. Parsons nazariyasida integratsiya "AGIL" tizimining ajralmas qismi sifatida jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida izohlanadi. Shuningdek, P.Burde va Yu.Xabermas ijtimoiy integratsiyani kommunikatsiya va ijtimoiy kapital orqali amalga oshadigan jarayon sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik va muloqot ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy integratsiya insonning jamiyatdagi ma'naviy borliq sifatida shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. U faqat tashqi ta'sir natijasi emas, balki ichki o'zgarish, ongli harakat va o'zini anglash orqali kechadigan jarayondir. Bu holatda integratsiya jarayoni shaxsning o'rnini, uning maqsad va qadriyatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy integratsiyaning asosiy tamoyillaridan biri - butunlik va uyg'unlik tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, har bir jamiyat o'z a'zolari o'rtasida muayyan hamjihatlik va uyg'unlikni saqlab turishi orqali barqarorlikka erishadi. Agar jamiyatda ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar izdan chiqsa, integratsiya darajasi pasayib, dezintegratsiya jarayonlari yuzaga keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy integratsiya falsafada jamiyat barqarorligining asosiy mezoni sifatida qaraladi.

Ikkinchi muhim falsafiy tamoyil - subyekt munosabatlari tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, inson jamiyatda faqat ijtimoiy obyekt sifatida emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida ishtirok etadi. Ya'ni har bir shaxs integratsiya jarayonining faol ishtirokchisi bo'lib, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligi bu jarayonning yo'nalishini belgilab beradi.

Uchinchi muhim tamoyil - har xillikda birlik tamoyilidir. Jamiyatning murakkab tizimi turli ijtimoiy guruhlar, etnik va madaniy qatlamlardan iborat bo'lib, ularning bir-birini to'ldirishi ijtimoiy integratsiyaning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bu nuqtai nazardan, plyuralizm va madaniy xilma-xillikni qabul qilish zamonaviy ijtimoiy integratsiyaning muhim sharti hisoblanadi. XX asr falsafasida bu g'oya J. Rolz, Ch. Teylor, A. Etsioni kabi mutafakkirlar asarlarida keng yoritilgan. Ular integratsiyani "qadriyatlar xilma-xilligini uyg'unlashtirish jarayoni" sifatida ta'riflab, liberal demokratik jamiyatdagi insoniy huquqlar va tenglik g'oyalariga asoslab berishgan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy integratsiya insonning shaxs sifatida shakllanishi va "o'zligini" anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson jamoa bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan, u nafaqat ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtiradi, balki o'zining jamiyatdagi o'rni, roli va mas'uliyatini anglay boshlaydi. Jamoa shaxs uchun ijtimoiy tajriba manbai bo'lib, uning dunyoqarashi, xulq-atvori va ma'naviy kamolotini shakllantiradi. Ijtimoiy integratsiya jarayoni muvaffaqiyatli kechganda, shaxs jamiyatda o'zini erkin, faol va foydali a'zo sifatida his qiladi.

Aksincha, integratsiyaning yetarli darajada ta'minlanmasligi shaxsda begonalashuv va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalari, oila va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan insonni jamoaga uyg'unlashtirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ishlarni amalga oshirish ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy integratsiya jarayonining falsafiy tamoyillari inson va jamiyat munosabatlarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot bo'lib, u jamiyatsiz, ya'ni boshqalar bilan o'zaro munosabatsiz o'zini to'laqonli namoyon eta olmaydi. Shu sababli, ijtimoiy integratsiya insonning ongli faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon faqatgina iqtisodiy yoki siyosiy munosabatlar doirasida emas, balki ma'naviy, madaniy va axloqiy sohalarda ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - B.56.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.

Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti 2017 y.

3. Aristotel. Socheneniya v 4-x tomax.T.2. –M.:Мысл, 1978. 704-bet.
4. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt – saodat va kamolot haqida. –T.:Yozuvchi. 2001. 89 bet.
5. Axloq – odobga oid hadis namunalari. –T.: Fan.1990. 170-bet.
6. Bekon F. Sochineniya v dvux tomax.T.2. –M.:Мысл, 1978.- 482 s;
7. Byome Ya. Sorok voprosov o dushe.-M.: Sofiya, 2004.- S 108;
8. Besedy Epikteta. -M.: Lodomir, 1997.-312s;
9. Buber M. Problema cheloveka. Prespektivy \\ Labirinty odinochestva.\ Pod red. N.E.Pokrovskogo. –M.: Progress, 1989.

HUQUQIY SAVODXONLIGINI YUKSALTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARINING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SAMARALI METODLARNING AHAMIYATI

Nabiyeva Shohinabonu Izzatillo qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) yo'nalishi 2-kurs magistri
nabiyevashaxina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimiz tayanchi bo'lgan yoshlarning huquqiy savodxonligi va madaniyatini yuksaltirishda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy ongni shakllantirishda o'rta ta'lim muassasalarning o'rnini va huquqiy bilimni shakllantirishda qo'llanilayotgan metodlarning ahamiyati va turli takliflar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: huquqiy ta'lim, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, o'rta ta'lim muassasalar, qonun, metodlar, konstitutsiya, yoshlar, jamiyat, o'quvchi.

REFORMS BEING IMPLEMENTED TO IMPROVE LEGAL LITERACY AND THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE METHODS IN FORMING THE LEGAL CULTURE OF STUDENTS IN SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Nabiyeva Shohinabonu Izzatillo qizi, Bukhara State Pedagogical Institute
2nd-year Master's student in Teaching social and humanitarian sciences (Legal Education)
nabiyevashaxina@gmail.com

Abstract: This article describes the reforms implemented in the field of education to improve the legal literacy and culture of the youth, who are the backbone of our society, the role of secondary education institutions in the formation of legal consciousness, the importance of the methods used in the formation of legal knowledge, and various proposals.

Key words: legal education, legal culture, legal consciousness, secondary educational institutions, law, methods, constitution, youth, society, student.

РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ, И ВАЖНОСТЬ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Набиева Шохинабону Иzzатилло кызы, Бухарский государственный педагогический институт магистрант 2 курса направления
Преподавание социально-гуманитарных наук
(право образование)
nabiyevashaxina@gmail.com

Аннотация: В данной статье описываются реформы, проводимые в сфере образования с целью повышения правовой грамотности и культуры молодежи, являющейся основой нашего общества, роль средних учебных заведений в формировании правового сознания, важность методов, используемых при формировании правовых знаний, а также различные предложения.

Ключевые слова: юридическое образование, правовая культура, правовое сознание, средние учебные заведения, право, методы, конституция, молодежь, общество, студент

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon ta'lim tizimi bo'yicha har daqiqada islohotlar amalga oshirmoqda. Yosh avlodni bilimli, savodxon, mustaqil fikrlaydigan va har jihatdan komil qilib tarbiyalash davlatimizning ustuvor yo'nalishi qilib belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni- bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi"[1]. Tarbiya, ta'lim va bilim ravnaq topgan yurtda, rivojlanish va taraqqiyot ham bo'ladi. o'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishga

katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat o'qish va ta'lim olish sifatini yaxshilash, balki jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. o'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimining modernizatsiyasi bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2020-yil 23-sentabrda kuchga kirgan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni ta'limni rivojlantirish va uning sifatini oshirishni maqsad qilgan[2]. Ushbu qonun, shuningdek, huquqiy ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Huquqiy ta'lim esa, o'z navbatida, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Aholining huquqiy madaniyat va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda[3]. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi "Davlat ta'lim muassasalarida yuridik ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 532-sonli qarori qabul qilindi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi, demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishi va huquqiy tizimning samarali ishlashi, ayniqsa yoshlarning huquqiy bilimlarga ega bo'lishiga bog'liq. Yoshlarda huquqiy savodxonlikni oshirish nafaqat ularning o'z huquqlarini bilishi va himoya qilishini ta'minlash, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Yoshlar — jamiyatning kelajagi hisoblanadi. Ularning huquqiy bilimlari, nafaqat o'zlarini, balki butun jamiyatni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Yoshlarga huquqiy bilimlarni o'rgatish, ularga o'z huquqlarini anglash va huquqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish, jamiyatda huquqiy ongni shakllantiradi. Bu esa qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytiradi va huquqiy xatoliklarning oldini oladi. Yoshlarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi esa o'z huquqlarini buzishga olib kelishi mumkin, natijada ijtimoiy notinchlik, qonunbuzarliklar va adolatsizlik holatlari yuzaga keladi. Huquqiy bilimlar yoshlarning huquqiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Yosh avlod, ayniqsa o'z huquqlarini qanday himoya qilishni bilmagan holda, ko'pincha turli ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarga duch keladilar. Masalan, ish joyida mehnat huquqlari buzilishi, oilaviy munosabatlarda adolatsizlik, ta'lim tizimidagi tengsizlik kabi muammolar, huquqiy bilimning yo'qligi sababli keng tarqalgan. Yoshlarga huquqiy bilimlarni o'rgatish, ularning qonuniy huquqlarini himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning jamiyatda adolatni ta'minlashda faol qatnashishlariga yordam beradi. Jamiyatda yoshlar nafaqat o'z huquqlarini himoya qilishda, balki davlat boshqaruvi jarayonlarida ham faol ishtirok etishlari kerak. Huquqiy bilimlar orqali ular o'zining fuqarolik burchlarini tushunib, saylovlarda qatnashish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda ovoz berish huquqidan foydalanish imkoniga ega bo'lishadi. Huquqiy bilimlar yoshlarga qonunlar va me'yorlarni tushunishga yordam beradi, shuningdek, ular jamiyatda huquqiy va ijtimoiy adolatni o'rnatish yo'lida to'g'ri qarorlar qabul qilishadi. Ya'ni davlatimiz rahbari amalga oshirayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham huquqiy savodxon, siyosiy faol fuqarolarni tarbiyalashdir.

Huquqiy ongni shakllantirish albatta, o'rta ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Ya'ni Professor Dmitrievning ta'rificha, "Huquqiy ong – bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisi[4]. Huquqiy ongni shakllantirishda o'rta ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, qonun oldidagi mas'uliyatini tushuntirish, jamiyatda fuqarolik huquq va erkinliklariga hurmat bilan yondashishga o'rgatish aynan o'rta ta'limda amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari bu nafaqat bilim olish joyi, balki yoshlarni ijtimoiy, axloqiy va huquqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash muassasasi hisoblanadi. O'rta ta'lim muassasalari huquqiy ta'limning rivojlanishi va yoshlarni huquqiy ongga ega fuqarolar sifatida tarbiyalanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu bois, maktab

bosqichida huquqiy ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarga nafaqat huquqlarini bilish, balki jamiyatda qonunlarga hurmat bilan yondashish, adolat va tenglikni anglashga yordam beradi. Bu jarayon orqali o'quvchilar qonunlarning jamiyatda qanday ishlashini, o'z huquqlari va burchlarini tushunishni o'rganadilar. Huquqiy ta'lim yosh avlodga inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, qonunlar, huquqbuzarliklar va adolatli jamiyat tushunchalarini aniq tushunishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda qonunlarga hurmat va ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi.

o'rta ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish uchun bir nechta samarali metodlar mavjud. Bu metodlar o'quvchilarga huquqiy bilimlarni o'rgatishda va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, interfaol darslar ya'ni o'quvchilar huquqiy mavzularni o'rganish davomida darsliklarda berilgan amaliy misollar va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi. Guruhlarda ishlash, rol o'ynash va huquqiy holatlar ustida ish olib borish samarali metodlardan biri hisoblanadi. Case-study metodi orqali hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni tahlil etishadi. o'quvchilar amaliy holatlar asosida huquqiy masalalarni tahlil qilib, o'z qarorlarini qabul qilishga harakat qilishadi[5]. Bu metod o'quvchilarga qonunlarni va ularning amaldagi ta'sirini tushunishga yordam beradi. Keng tarqalgan metodlardan biri qonunlarni taqdim etish va tahlil qilishdir. o'quvchilarga amaldagi qonunlar va huquqiy normativ hujjatlar haqida batafsil ma'lumot berish, ularning qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Darslar davomida muayyan qonunlarni o'rganish va ularning hayotdagi misollarini ko'rib chiqish samarali natijalar beradi. Diskussiyalar va munozaralar tashkil qilish, bunda o'quvchilar huquqiy mavzular bo'yicha fikr almashadilar, o'z pozitsiyalarini asoslab beradilar. Bu metod ularning tanqidiy fikrlash va huquqiy savodxonligini oshiradi. Amaliy mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish ham huquqiy savodxonlikni oshiradi. Huquqiy sohalarida mutaxassislar bilan o'tkazilgan seminarlar, huquqshunoslar va amaliyotchilar tomonidan tashkil etilgan amaliyotlarlar o'quvchilarga huquqiy bilimlarni o'zlashtirishda ko'proq yordam beradi. Qonunlar va huquqiy savodxonlik bo'yicha testlar olish metodi, o'quvchilarga turli savollar bilan testlar yoki viktorinalar o'tkazish orqali ularning bilim darajasini aniqlash va mustahkamlash mumkin. Vaqtinchalik huquqiy loyihalar metodi ko'magida o'quvchilarni huquqiy muammolarni hal qilish uchun loyiha ishlari bilan shug'ullantirish, ularning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu metodlar orqali o'quvchilar huquqiy masalalarni tushunish, huquqiy hujjatlar bilan ishlash va jamiyatdagi huquqiy muhitni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktab bosqichida huquqiy ta'limni yanada rivojlantirishda birinchi navbatda, huquqiy fanlar safiga qo'shimcha darsliklar va o'quv dasturlari kiritilishi zarur. Misol uchun, "Huquq ta'limi", "Fuqarolik jamiyati asoslari", "Inson huquqlari" va yangi tahrirdagi konstitutsiya moddalarini o'rganishga qaratilgan "Huquqim kafolati" kabi darsliklarning joriy etilishi o'quvchilarga huquqiy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari "Konstitutsiya alifbosi", "Konstitutsiya saboqlari", "Konstitutsiya asoslari" fanlarini joriy qilish kerak[6]. Bu fanlar orqali o'quvchilar huquqiy tizim, qonunlar, fuqarolik va davlatning asosiy tamoyillari bilan tanishadilar. O'quvchilarga huquqiy ta'lim berishda ko'proq amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va treninglar o'tkazish samarali bo'lishi mumkin. Bu tadbirlar orqali o'quvchilar huquqiy vaziyatlar haqida real misollarni tahlil qilish, turli huquqiy masalalarda fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Huquqiy ta'limni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham muhim. Masalan, tarix, adabiyot yoki ijtimoiy fanlar darslarida o'quvchilarga huquqiy qadriyatlar va tarixiy huquqiy jarayonlar haqida ma'lumotlar berish, ularni huquqiy ongini shakllantirishga mo'ljallangan turli videoroliklar, filmlar va dasturlar ishlab chiqarish kerak. Bu holat o'quvchilarning huquqiy bilimi va tushunchalarini yanada kengaytiradi. O'quvchilarni huquqiy faoliyatga jalb qilish orqali yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli haqida tasavvur yaratish muhimdir. Masalan, huquqiy ta'limning bir qismi sifatida "Yoshlar parlamenti" yoki "Huquqiy klublar" tashkil etish, o'quvchilarga huquqiy muammolarni amalda hal qilishni o'rgatish mumkin. Bu kabi tashabbuslar o'quvchilarda huquqiy ongini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Maktabda huquqiy ta'limning rivojlanishi, jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga, fuqarolarning huquqlari va burchlarini anglashiga olib keladi. Huquqiy ta'lim yoshlarni nafaqat o'z huquqlarini bilishga, balki jamiyatda qonunlarga, adolatga, tenglikka hurmat bilan yondashishga ham o'rgatadi. Bu esa, ijtimoiy barqarorlikni saqlashga, huquqbuzarliklarni kamaytirishga va jamiyatda demokratik qadriyatlarni kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, huquqiy ta'limning rivojlanishi yoshlarni jamiyatda faollikka, o'z huquqlarini himoya qilishga va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi. Bu o'quvchilarning jamiyatdagi o'rni va roli haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi va ularni kelajakda qonunlarga hurmat qiluvchi, adolatni qadrlaydigan fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. o'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining modernizatsiyasi va huquqiy ta'limni rivojlantirishdagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlash, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish va demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishni ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim va huquqiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan har bir qadam jamiyatning huquqiy savodxonligini oshiradi va adolatli jamiyatni qurishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Gulnora Inomjonova.,Nikoh shartnomasi- oila mustahkamligining huquqiy kafolati ilmiy-amaliy qo'llanma.-T.;Adolat,2007.-537b.
4. Ю.А.Дмитриев. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под ред. Пиголкина. –Москва.; Юрайт-Издат, 2006. –С.547 .
5. Sadikova Yorkinoy Salijonovna, Raufov Orifjon, & Kurbanov Akbar Aslamovich. (2021). MODERN SCIENCE AND HIGHER EDUCATION ARE THE FOUNDATION OF SCIENCE AND DEVELOPMENT. European Scholar Journal, 2(4), 244-246. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/549>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyatni-yuksaltirish-davr-talabi/viewer>

ELEKTRON KUTUBXONALARNING O‘QUV JARAYONIGA TA’SIRI VA TALABALAR UCHUN YARATAYOTGAN IMKONIYATLARI

Rasulova Inobat, Axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko‘rsatish bo‘limi bibliografi
Kenjayeva Mohigul, Elektron axborot resurslari bo‘limi kutubxonachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron kutubxonalarining zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni, ularning o‘quv jarayoniga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri hamda talabalar uchun yaratilayotgan qulayliklar tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta’lim resurslariga tezkor va qulay kirish imkoniyati kengayib, bilim olish sifati oshmoqda. Elektron kutubxonalar an’anaviy kutubxonalarni to‘ldiruvchi muhim axborot manbai sifatida qaralmoqda.

Kalit so‘zlar: elektron kutubxona, raqamli resurslar, masofaviy ta’lim, axborot texnologiyalari, talaba, bilim olish

THE IMPACT OF ELECTRONIC LIBRARIES ON THE EDUCATIONAL PROCESS AND OPPORTUNITIES FOR STUDENTS

Rasulova Inobat, Bibliographer of the Information and Library Resources Service Department.
Kenjayeva Mohigul, Librarian of the Electronic Information Resources Department.

Abstract: This article examines the role of electronic libraries in modern education, their positive impact on the learning process, and the opportunities they provide for students. With the development of information technologies, access to educational resources has become faster and more convenient, improving the quality of learning. Electronic libraries are considered an important complement to traditional libraries in providing digital knowledge resources.

Keywords: electronic library, digital resources, distance learning, information technology, students, education

ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ БИБЛИОТЕК НА УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ

Расулова Инобат, библиограф отдела обслуживания информационно-библиотечными ресурсами.

Кенжаева Мохигул, библиотекарь отдела электронных информационных ресурсов.

Аннотация: В статье рассматривается роль электронных библиотек в современной системе образования, их влияние на учебный процесс и преимущества для студентов. Развитие информационных технологий обеспечивает быстрый доступ к образовательным ресурсам, что повышает качество обучения. Электронные библиотеки выступают важным дополнением к традиционным библиотекам.

Ключевые слова: электронная библиотека, цифровые ресурсы, дистанционное обучение, информационные технологии, студенты

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda elektron resurslardan foydalanish keng ommalashib, o‘quv jarayonini yanada samarali va qulay qilish imkonini bermogda. Shu jarayonda elektron kutubxonalar muhim axborot manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Elektron kutubxona — bu turli formatdagi ilmiy, o‘quv va badiiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar hamda multimedia materiallarini raqamli shaklda saqlovchi va foydalanuvchilarga onlayn tarzda taqdim etuvchi axborot tizimidir. Ular nafaqat vaqt va makon chegaralarini bartaraf etadi, balki talabalar uchun bilim olish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Hozirgi globallashuv davrida tezkor axborotga ega bo‘lish raqobatbardosh mutaxassis yetishtirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu bois ko‘plab oliy ta’lim muassasalari elektron

kutubxonalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur ishda elektron kutubxonalarining o'quv jarayoniga ta'siri, ularning talabalarga berayotgan imkoniyatlari va zamonaviy ta'limdagi roli yoritib beriladi.

ASOSIY QISM

Elektron kutubxonalar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi bilim olish jarayonini tubdan o'zgartirib, an'anaviy o'qitish usullarini raqamli vositalar bilan boyitmoqda. Elektron kutubxonalarining paydo bo'lishi bilim resurslariga bo'lgan ehtiyojni tez, qulay va samarali tarzda qondirish imkonini yaratdi. Ular nafaqat bosma adabiyotlarning raqamli nusxasi sifatida, balki multimedia materiallari, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va interaktiv platformalar orqali ta'lim jarayonining sifatini oshiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Elektron kutubxonalarining asosiy afzalliklaridan biri axborotga cheklanmagan kirish imkoniyatidir. Talabalar geografik joylashuvdan qat'i nazar, istalgan vaqtda internet orqali zarur manbalarni topishi va foydalanishi mumkin. Bu ayniqsa chekka hududlarda yashovchi yoki masofaviy ta'lim olayotgan talabalar uchun katta qulaylik yaratadi. Natijada ta'limdagi tenglik tamoyili mustahkamlanadi va bilim olish imkoniyatlari kengayadi.

Shuningdek, elektron kutubxonalar ta'lim resurslarining yangilanishini tezlashtiradi. An'anaviy bosma adabiyotlarni qayta nashr etish vaqt talab qilsa, raqamli platformalarda yangi materiallarni yuklash va tarqatish juda tez amalga oshiriladi. Bu esa talabalar va o'qituvchilarni zamonaviy ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishini ta'minlaydi. Xususan, fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot kabi tez rivojlanayotgan sohalarda bu juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron kutubxonalar o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini ham yaratadi. Talabalar o'z o'rganish tezligi va qiziqishlariga mos materiallarni tanlab o'qishi mumkin. Qidiruv tizimlari, filtrlash vositalari va tavsiya mexanizmlari orqali zarur ma'lumotni tez topish imkoniyati mavjud bo'lib, bu vaqtni tejaydi va o'qish samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, elektron kutubxonalar multimediyaviy imkoniyatlarga ega. Video darslar, audio kitoblar, grafik materiallar va interaktiv testlar orqali bilim olish jarayoni yanada qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Ayniqsa, vizual va eshitish orqali o'rganishga moyil talabalar uchun bunday resurslar juda foydalidir. Bu holat o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida ham elektron kutubxonalar muhim rol o'ynaydi. Xalqaro ma'lumotlar bazalari, ilmiy jurnallar va konferensiya materiallariga onlayn kirish imkoniyati talabalarining ilmiy salohiyatini oshiradi. Ular turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar bilan tanishib, o'z ishlari uchun ishonchli manbalar topishadi. Bu esa ilmiy ishlarning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Elektron kutubxonalar ekologik jihatdan ham foydalidir. Qog'oz sarfining kamayishi atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadi. Minglab kitoblarni bosma shaklda saqlash o'rniga raqamli formatda joylashtirish nafaqat joyni tejaydi, balki tabiat resurslarini asrashga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektron kutubxonalardan foydalanishda ayrim muammolar mavjud. Texnik nosozliklar, internet tezligining pastligi yoki qurilmalar yetishmasligi ba'zi talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik darajasi past bo'lgan foydalanuvchilar resurslardan samarali foydalana olmasligi mumkin. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari nafaqat elektron platformalarni joriy etishi, balki ulardan foydalanish bo'yicha trening va ko'rsatmalarni ham tashkil etishi lozim.

Mualliflik huquqi masalalari ham elektron kutubxonalar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Raqamli resurslarning noqonuniy tarqatilishi muammosi ilmiy adabiyotlar sifatiga va mualliflar manfaatiga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun qonunchilik asosida himoyalangan platformalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, elektron kutubxonalar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda kuchli

vosita bo‘lib, bilim olishni qulay, tezkor va samarali qiladi. Ularning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish talabalar bilim saviyasini oshirish bilan birga, ta‘lim tizimini global axborot makoniga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Elektron kutubxonalar zamonaviy ta‘lim tizimida muhim innovatsion resurs sifatida shakllanib, o‘quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirmoqda. Ular bilim manbalariga tezkor va qulay kirish imkonini yaratib, talabalar uchun axborot olish jarayonini ancha yengillashtiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarining xilma-xilligi ta‘minlanib, bilim olish usullari yanada boyitilmoqda.

Elektron kutubxonalar masofaviy ta‘limni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Internet orqali istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati talabalarni mustaqil o‘rganishga undaydi va o‘quv jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi. Bu holat ayniqsa global muammolar davrida ta‘limning barqarorligini saqlab qolishda katta rol o‘ynadi.

Shuningdek, ilmiy izlanishlar uchun zarur bo‘lgan xalqaro manbalarga kirish imkoniyati talabalar va tadqiqotchilar salohiyatini oshirib, ilmiy ishlarning sifatini yaxshilaydi. Elektron resurslar orqali tezkor ma‘lumot almashinuvi ta‘lim tizimini jahon miqyosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq elektron kutubxonalarni samarali qo‘llash uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va mualliflik huquqini himoya qilish muhim hisoblanadi. Ushbu omillar ta‘lim jarayonining barqarorligi va sifati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelajakda elektron kutubxonalar sun‘iy intellekt, shaxsiylashtirilgan tavsiya tizimlari va interaktiv o‘qitish platformalari bilan yanada rivojlanishi kutilmoqda. Bu esa ta‘lim jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov B. B. Raqamli ta‘lim texnologiyalari asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022.
2. Karimova M. A. Elektron kutubxonalar va axborot resurslaridan foydalanish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Salimov D. X. Zamonaviy ta‘limda raqamli platformalar. — Samarqand: Zarafshon, 2020.
4. UNESCO. Digital Transformation in Education: E-Libraries and Learning Resources. — Paris, 2023.
5. Smith J., Brown L. The Role of Digital Libraries in Higher Education. — London: Routledge, 2020.
6. Borgman C. L. Digital Libraries and Knowledge Infrastructure. — Cambridge: MIT Press, 2019.
7. G‘aniyev S. R. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta‘limdagi o‘rni. — Toshkent, 2021.
8. Abdulloyev A. Elektron resurslar va masofaviy ta‘lim tizimi. — Toshkent: Innovatsiya, 2022.
9. Arms W. Digital Libraries. — Massachusetts: MIT Press, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘limni raqamlashtirish strategiyasi. — Toshkent, 2023.

THE IMPACT OF INTERACTIVE TEACHING METHODS ON STUDENTS' ACADEMIC ACHIEVEMENT IN HIGHER EDUCATION

Ochilova Marjon, Bukhara pedagogical institute

Faculty of linguistics

marjonaochilova1511@gmail.com

Abstract: This study explores the impact of interactive teaching methods on students' academic achievement in higher education. In recent years, traditional lecture-based instruction has increasingly been criticized for its limited effectiveness in promoting active learning and critical thinking. To address this issue, many institutions have begun to integrate interactive, student-centered teaching approaches. This research adopts a mixed-methods design, combining quantitative analysis of students' academic performance with qualitative data collected through questionnaires. The findings demonstrate that interactive teaching methods significantly improve students' motivation, engagement, and overall academic performance. The study provides practical recommendations for educators and academic institutions seeking to enhance teaching quality and learning outcomes.

Keywords: interactive teaching, higher education, student-centered learning, academic achievement, educational innovation

OLIV TA'LIMDA INTERAKTIV O'QITISH METODLARINING TALABALARNING AKADEMIK YUTUQLARIGA TA'SIRI

Ochilova Marjona, Buxoro Pedagogika Instituti

Lingvistika fakulteti

marjonaochilova1511@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot oliy ta'limda interaktiv o'qitish metodlarining talabalarning akademik yutuqlariga ta'sirini o'rganadi. So'nggi yillarda an'anaviy ma'ruza asosidagi o'qitish usullari faol o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yetarli darajada samarali emasligi sababli tanqid qilinmoqda. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida ko'plab ta'lim muassasalari interaktiv va talaba markazidagi o'qitish yondashuvlarini joriy etishni boshladilar. Mazkur tadqiqot aralash usulga asoslangan bo'lib, unda talabalarning akademik ko'rsatkichlari bo'yicha miqdoriy tahlil hamda so'rovnomalar orqali to'plangan sifat ma'lumotlari qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interaktiv o'qitish metodlari talabalarning motivatsiyasi, dars jarayonidagi faolligi va umumiy akademik natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun ta'lim sifatini va o'qish natijalarini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi.

Kalit so'zlar: interaktiv o'qitish, oliy ta'lim, talaba markazidagi ta'lim, akademik yutuqlar, ta'lim innovatsiyasi.

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА АКАДЕМИЧЕСКУЮ УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Очилова Марджона, Бухарский педагогический институт

Факультет лингвистики

marjonaochilova1511@gmail.com

Аннотация: Данное исследование рассматривает влияние интерактивных методов обучения на академическую успеваемость студентов в системе высшего образования. В последние годы традиционное лекционное обучение всё чаще подвергается критике из-за его ограниченной эффективности в развитии активного обучения и критического мышления. Для решения этой проблемы многие образовательные учреждения начали внедрять интерактивные и ориентированные на студента подходы к обучению. В исследовании используется смешанный метод, включающий количественный анализ

академической успеваемости студентов и качественные данные, собранные с помощью анкетирования. Результаты показывают, что интерактивные методы обучения значительно повышают мотивацию студентов, их вовлечённость в учебный процесс и общую академическую успеваемость. В работе также представлены практические рекомендации для преподавателей и образовательных учреждений, направленные на повышение качества преподавания и результатов обучения.

Ключевые слова: интерактивное обучение, высшее образование, студентоориентированное обучение, академическая успеваемость, образовательные инновации.

Introduction: Higher education plays a vital role in preparing individuals for professional life and contributing to social and economic development. As global demands for skilled and adaptable graduates continue to rise, universities are under increasing pressure to improve the quality of teaching and learning. Traditional teacher-centered approaches, which rely heavily on lectures, often position students as passive recipients of knowledge. As a result, these methods may fail to develop critical thinking, problem-solving skills, and long-term knowledge retention.

In contrast, interactive teaching methods emphasize active student participation, collaboration, and engagement in the learning process. Approaches such as group discussions, problem-based learning, case studies, and classroom presentations encourage students to take responsibility for their learning. The more actively students participate in lessons, the more effectively they comprehend and apply new knowledge.

Previous studies suggest that interactive teaching positively influences academic performance and learner motivation. However, empirical evidence from higher education contexts remains limited in some regions. Therefore, this study aims to investigate the impact of interactive teaching methods on students' academic achievement in higher education institutions and to identify students' perceptions of these methods.

Methods

This research employed a mixed-methods approach to provide a comprehensive understanding of the research problem. The quantitative component focused on measuring students' academic achievement, while the qualitative component explored students' perceptions of interactive teaching methods.

Participants

The study involved 120 undergraduate students enrolled at a higher education institution. The participants were randomly divided into two groups: an experimental group (60 students) and a control group (60 students). The experimental group was taught using interactive teaching methods, while the control group received traditional lecture-based instruction.

Teaching Procedures

The experimental group was exposed to various interactive teaching strategies, including group discussions, problem-based learning activities, case study analysis, and short student presentations. These activities were designed to promote collaboration, critical thinking, and active engagement. The control group followed a conventional teaching approach based primarily on lectures and individual note-taking.

Data Collection

Academic achievement was measured using mid-term and final examination scores. In addition, a questionnaire consisting of both closed-ended and open-ended questions was administered to the experimental group to gather qualitative data on students' attitudes and experiences related to interactive teaching.

Data Analysis

Quantitative data were analyzed using descriptive statistics and comparative analysis to identify differences in academic performance between the two groups. Qualitative responses were analyzed thematically to identify recurring patterns and perceptions.

Results

Zamonaviy raqamli texnologiyalar etno-estetik tarbiyaning yangi formatlarini imkon beradi. Prensky (2020) ta'kidlaganidek, "raqamli tug'ma" avlod uchun an'anaviy va raqamli muhitlarni birlashtirgan gibrid pedagogik yondashuv eng samarali hisoblanadi. Quyidagi raqamli vositalar etno-estetik tarbiyada qo'llanilishi mumkin:

- Virtual muzeylar va 3D-ekskursiyalar – milliy madaniyat yodgorliklarini interaktiv tarzda o'rganish
- Raqamli arxivlar va milliy madaniyat platformalari – milliy san'at va folklor namunalarini saqlab qolish va tarqatish
- Augmented Reality (AR) texnologiyalari – milliy ornamentlar va an'anaviy san'at shakllarini yaratish va o'rganish
- Multimedia loyihalar – o'quvchilarning milliy madaniyat haqida o'zlari kontent yaratishi

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, etno-estetik madaniyat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki Gay (2018) kontsepsiyasiga muvofiq, milliy madaniyat va qadriyatlarni yosh avlodga yetkazuvchi madaniy mediator sifatida ham faoliyat yuritadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, raqamli muhit etno-estetik tarbiyaga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, u milliy madaniyatni yangi avlodga yetkazishda kuchli vosita bo'lsa, ikkinchi tomondan, raqamli madaniyatning global tazyiqi milliy estetik qadriyatlarni siqib chiqarishi xavfini tug'diradi. UNESCO (2023) hisobotiga ko'ra, madaniy xilma-xillikni saqlash uchun ta'lim siyosatida maxsus himoya mexanizmlari zarur.

Banks (2014) multikulturalizm nazariyasi nuqtai nazaridan, etno-estetik madaniyatni rivojlantirish faqat o'z milliy madaniyatini anglashni emas, balki boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat va qiziqishni ham shakllantirishi kerak. Bu yondashuv o'quvchilarni global fuqarolik sari tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda aniqlangan uch komponentli model (kognitiv, emotsional-motivatsion va faoliyat-ijodiy) pedagogika oliy ta'lim muassasalarida etno-estetik kompetensiyani baholash va

rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqishda metodologik asos bo'la oladi. Vygotsky (1971) ning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga asoslanib, pedagog bu jarayonda scaffolding – madaniy yo'l-yo'riq ko'rsatish funksiyasini bajarishi kerak.

Tadqiqotning cheklovlari orasida empirik ma'lumotlarning yetarli darajada to'planmaganligi va eksperimental tekshirishning amalga oshirilmaganligi alohida e'tiborni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilar orasida keng qamrovli eksperimental-pedagogik tadqiqot o'tkazish tavsiya etiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari etno-estetik madaniyat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Etno-estetik madaniyat milliy qadriyatlar, xalq san'ati va estetik qarashlar asosida shakllanadi hamda pedagogik jarayonda muhim tarbiyaviy resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Aniqlashtirilgan uch komponentli model – kognitiv, emotsional-motivatsion va faoliyat-ijodiy – etno-estetik madaniyatni tizimli rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos beradi. Ushbu model xalq pedagogikasining an'anaviy vositalari bilan zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirishga imkon yaratadi.

Pedagogik amaliyot uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: (1) oliy pedagogik ta'lim dasturlariga etno-estetik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan alohida modullar kiritish; (2) raqamli ta'lim muhitida milliy madaniyat elementlarini integratsiyalashning metodologik ko'rsatmalarini ishlab chiqish; (3) o'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimida etno-estetik tarbiyaga oid treninglar joriy etish.

Kelgusida raqamli ta'lim muhitida etno-estetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni empirik asoslash va sinovdan o'tkazish muhim ilmiy yo'nalish sifatida belgilanadi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar nazariya va amaliyot o'rtasidagi bo'shliqni qoplashga, milliy ta'lim siyosatini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Al-Forobiy, A.N. (950/1975). Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1913/1992). Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: o'qituvchi.
3. Banks, J.A. (2014). An Introduction to Multicultural Education (5th ed.). – Pearson Education.
4. Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience. – Harper & Row.
5. Dewey, J. (1934). Art as Experience. – Minton, Balch & Company.
6. Erikson, E.H. (1968). Identity: Youth and Crisis. – W.W. Norton & Company.
7. Gay, G. (2018). Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice (3rd ed.). – Teachers College Press.
8. Hoshimov, K. va boshq. (2005). Pedagogika tarixi. – Toshkent: o'qituvchi.
9. Maslow, A.H. (1970). Motivation and Personality (2nd ed.). – Harper & Row.
10. OECD. (2022). PISA 2022 Results: Learning During – and From – Disruption. – OECD Publishing. DOI: 10.1787/63c0bc7a-en
11. Prensky, M. (2020). Teaching for Wisdom, Wonder, Creativity, and Agency in the Age of Technology. – ASCD.
12. Read, H. (1943). Education Through Art. – Faber and Faber.
13. UNESCO. (2023). Culture and Sustainable Development: Key Messages for COP-15. – UNESCO Publishing.
14. Volkov, G.N. (1974). Etnopedagogika. – Cheboksary: Chuvash Knizhnoe Izdatel'stvo.
15. Vygotsky, L.S. (1971). The Psychology of Art. – MIT Press.
16. Yuldasheva, M. (2022). Raqamli ta'lim muhitida milliy qadriyatlarni shakllantirish. // Pedagogika va psixologiya, 3(18), 45–52.

17. Zaripov, B. (2021). Etno-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. // o'zbekiston ta'limi, 2(7), 12–19.

KASBIY MALAKA TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TUZILMASI

Boymurodova Manzura G'olib qizi,

Buxoro Davlat Pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy malaka tushunchasining pedagogik mohiyati va uning tarkibiy tuzilmasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy malakaning asosiy komponentlari — kognitiv, amaliy-operatsion, motivatsion, refleksiv va shaxsiy — aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi yetakchi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy konsepsiyalari bilan asoslab beriladi. Natijalar bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi va milliy ta'lim tizimida pedagogik kompetensiyani baholash uchun amaliy asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: kasbiy malaka, pedagogik kompetensiya, refleksiya, pedagog tayyorgarligi, kasbiy rivoj, kompetensiyaviy yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ПОНЯТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ

Боймуродова Манзура Голиб кизи,

базовый докторант 1 курса Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическая сущность понятия профессиональной квалификации и её структурное содержание. В исследовании определены основные компоненты профессиональной квалификации — когнитивный, практико-операциональный, мотивационный, рефлексивный и личностный, а также обоснована их взаимосвязь на основе научных концепций ведущих зарубежных и отечественных исследователей. Полученные результаты направлены на совершенствование профессиональной подготовки будущих воспитателей-педагогов и могут служить практической основой для оценки педагогической компетентности в национальной системе образования.

Ключевые слова: профессиональная квалификация, педагогическая компетентность, рефлексия, подготовка педагога, профессиональное развитие, компетентностный подход.

THE PEDAGOGICAL ESSENCE AND STRUCTURE OF THE CONCEPT OF PROFESSIONAL QUALIFICATION

Boymurodova Manzura G'olib qizi,

1st-year basic doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the pedagogical essence of the concept of professional qualification and its structural composition. The study identifies the main components of professional qualification — cognitive, practical-operational, motivational, reflective, and personal — and substantiates their interrelation based on the scientific concepts of leading foreign and local researchers. The results contribute to improving the professional training of future educator-teachers and can serve as a practical basis for assessing pedagogical competence in the national education system.

Keywords: professional qualification, pedagogical competence, reflection, teacher training, professional development, competency-based approach.

1. Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy malakasi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (Shonkoff & Phillips, 2000; Sylva et al., 2004). OECD ma'lumotlariga ko'ra, pedagog sifati — o'quvchilarning o'quv yutuqlari bilan bog'liq eng muhim maktab ichki omilidir (OECD, 2019, p. 14).

Kasbiy malaka tushunchasi pedagogika fanida keng qoʻllanilayotgan boʻlsa-da, uning mazmuni va tuzilmasi yuzasidan yagona yondashuv toʻliq shakllanmagan. Bir tomondan, Weinert (2001) kasbiy malakani kognitiv, motivatsion va ijtimoiy resurslarning integratsiyasi sifatida taʼrifladi, boshqa tomondan, Epstein va Hundert (2002) uni klinik muhitda bilim, koʻnikma va munosabatlarning harakatdagi qoʻllanilishi deb taʼriflaydi. oʻzbek pedagogika fanida esa Muslimov (2004), Hasanboyeva (2006) va Tolipov (2009) tomonidan mahalliy taʼlim kontekstida kasbiy malakaning oʻziga xos tomonlari oʻrganilgan.

UNESCO (2015) Incheon deklaratsiyasi barcha mamlakatlar uchun "sifatli va inkluziv taʼlim" maqsadini belgilab, pedagog kompetensiyasini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida koʻrsatdi. oʻzbekistonda ham taʼlim sifatini yuksaltirish boʻyicha davlat dasturlari (oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2022) doirasida pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi — kasbiy malaka tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish va uning tarkibiy tuzilmasini ilmiy asosda aniqlashdan iborat. Qoʻyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: (1) adabiyotlarda kasbiy malakaning turli taʼriflarini solishtirish; (2) tarkibiy komponentlarni aniqlash; (3) komponentlarning oʻzaro bogʻliqligini asoslash.

2. Metodologiya (Methods)

Tadqiqot falsafiy-metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi, tizimli yondashuv (Bertalanffy, 1968) va kompetensiyaviy yondashuv (Hutmacher, 1997) tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv Yevropa taʼlim tizimida keng qoʻllanilayotgan boʻlib, u oʻquvchining bilim, koʻnikma va munosabatlarini integratsiyalangan holda baholashga yoʻnaltirilgan (European Commission, 2018).

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil — xorijiy va mahalliy pedagogik, psixologik adabiyotlarni oʻrganish, tahlil qilish va umumlashtirish (Creswell, 2014);
- Tizimli yondashuv — kasbiy malakani tarkibiy qismlarga ajratib, ular orasidagi munosabatlarni tahlil qilish;
- Taqqoslama tahlil — "kasbiy malaka" va "kompetensiya" tushunchalarini xalqaro va milliy kontekstlarda solishtirish;
- Konseptual modellashtirish — kasbiy malakaning tarkibiy tuzilmasini schema koʻrinishida taqdim etish.

Manbaviy asosni 2000–2024 yillar oraligʻida nashr etilgan 45 dan ortiq ilmiy manba tashkil etadi, jumladan Scopus va Web of Science maʼlumotlar bazalarida indekslangan jurnallar, UNESCO va OECD rasmiy hisobotlari, shuningdek oʻzbekiston Respublikasining taʼlimga oid normativ hujjatlari.

3. Natijalar (Results)

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida "kasbiy malaka" tushunchasining turlicha talqin etilishi aniqlandi. Ushbu talqinlar ikki asosiy paradigma doirasida shakllanganligini koʻrsatish mumkin: (1) bilimga yoʻnaltirilgan yondashuv (knowledge-based approach) va (2) integratsiyalangan-faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuv (integrated performative approach). Birinchisi asosan 1990-yilgacha boʻlgan tadqiqotlarda ustunlik qilgan boʻlsa, ikkinchisi hozirgi kunda xalqaro miqyosda keng tan olingan (Mulder, 2017).

Jadval 1 turli olimlarning "kasbiy malaka" taʼriflarini solishtirma koʻrinishida taqdim etadi:

Olim /manba	Taʼrif	Yondashuv turi
Weinert (2001)	Kognitiv, motivatsion va ijtimoiy resurslarning bilimga asoslangan integratsiyasi	Integratsiyalangan

Olim /manba	Ta'rif	Yondashuv turi
Epstein & Hundert (2002)	Bilim, ko'nikma va munosabatlarning amaliy faoliyatda qo'llanilishi	Faoliyatga yo'naltirilgan
Hyland (2007)	Kasbiy kontekstda bilim va ko'nikmalarning namoyish etilishi	Kontekstual
Muslimov (2004)	Pedagogning nazariy bilimlari va amaliy tajribasining uyg'unlashgan ko'rinishi	Milliy (o'zbek)
OECD (2019)	Murakkab talablarga javob berish uchun bilim, ko'nikma va munosabatlarni safarbar etish qobiliyati	Xalqaro standart

Jadval 1. Kasbiy malaka tushunchasining solishtirma tahlili

Tahlil asosida kasbiy malakaning quyidagi besh tarkibiy komponenti aniqlandi va asoslandi:

3.1. Kognitiv komponent

Pedagogning kasbiy bilimlari tizimini o'z ichiga oladi. Bloom taksonomiyasi (Bloom et al., 1956; Anderson & Krathwohl, 2001) asosida kognitiv komponentni olti daraja bo'yicha: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish darajalari bo'yicha tuzilishini ko'rsatish mumkin. Shulman (1987) pedagogik bilimni "content knowledge" (predmet bilimlari), "pedagogical content knowledge" (pedagogik-predmet bilimlari) va "curricular knowledge" (o'quv dasturi bilimlari) kabi turlarga ajratgan bo'lib, bu bo'linish hozirgi kunda ham keng qo'llaniladi.

3.2. Amaliy-operatsion komponent

Pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni qamrab oladi. Bandura (1977) ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko'ra, ko'nikmalar kuzatish (observational learning), amaliyot (practice) va o'z-o'zini samaradorlik (self-efficacy) mexanizmlari orqali rivojlanadi. European Teaching and Learning International Survey (TALIS, 2018) ma'lumotlariga ko'ra, pedagoglarning 72 foizi o'z amaliy ko'nikmalarini muntazam rivojlantirish zarurligini his qilishini ta'kidlagan.

3.3. Motivatsion komponent

Kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat, ichki ehtiyoj va kasbiy o'sishga intilishni ifodalaydi. Deci va Ryan (1985) o'zini-o'zi belgilash nazariyasiga (Self-Determination Theory) ko'ra, ichki motivatsiya (intrinsic motivation) tashqi rag'batga (extrinsic motivation) nisbatan kasbiy qoniqish va uzoq muddatli professional rivojlanishni ko'proq ta'minlaydi. Maslow (1954) ehtiyojlar ierarxiyasida o'z-o'zini anglash (self-actualization) eng yuqori daraja sifatida ko'rsatilgan bo'lib, pedagog uchun bu kasbiy yetuklikni anglatadi.

3.4. Refleksiv komponent

Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini anglatadi. Schon (1983) "refleksiv amaliyotchi" (reflective practitioner) kontseptsiyasida professional bilimning amaliyot jarayonida va undan so'ng refleksiya orqali qurilishini asoslab bergan. Dewey (1933) ham

ilk bor pedagogik refleksiya har qanday kasbiy rivojlanishning asosi sifatida belgilagan. Zamonaviy tadqiqotlar (Korthagen, 2004; Hatton & Smith, 1995) refleksiyaning quyidagi darajalari mavjudligini ko'rsatadi: texnik refleksiya, amaliy refleksiya va tanqidiy refleksiya.

3.5. Shaxsiy komponent

Pedagogning individual-psixologik xususiyatlari va kasbiy sifatlarini o'z ichiga oladi. Goleman (1995) emotsional intellekt nazariyasiga ko'ra, pedagog uchun o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar kasbiy muvaffaqiyatning asosiy prediktori hisoblanadi. Gardner (1983) ko'plab intellektlar nazariyasi esa pedagog shaxsini ko'p o'lchovli hodisa sifatida baholash imkonini beradi. o'zbek pedagogikasida Karimova (2005) va Shodiyeva (2010) shaxsiy komponentni milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'kidlaganlar.

Mazkur komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda kasbiy malakaning yaxlit tizimini tashkil etadi. Ularning o'zaro bog'liqligi tizimli yondashuv (Bertalanffy, 1968) asosida isbotlanib, har bir komponentning o'zgarishi boshqalarga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

4. Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kasbiy malaka murakkab, ko'p qirrali va dinamik hodisa bo'lib, u faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi bilan cheklanmaydi. Ushbu xulosa Weinert (2001), Le Deist va Winterton (2005) hamda Mulder (2017) tomonidan ilgari surilgan integratsiyalangan kompetensiya modellari bilan uyg'unidir.

Refleksiv komponentning alohida ahamiyati Schon (1983) va Korthagen (2004) tadqiqotlari tomonidan ham tasdiqlangan: muvaffaqiyatli pedagoglar o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib, yangi strategiyalarni sinovdan o'tkazadi. Bu "ALACT" (Action — Looking back — Awareness — Creating alternatives — Trial) modeli bilan ham uyg'unidir.

Motivatsion komponentga kelsak, TALIS (2018) tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy qoniqish darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar o'quvchilarning o'quv yutuqlariga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu Deci va Ryan (1985) SDT nazariyasining ta'lim amaliyotidagi isbotidir.

Milliy kontekstda esa ta'kidlash joizki, o'zbek pedagogika an'anasida shaxsiy komponent (ma'naviy-axloqiy sifatlar) uzoq tarixiy ildizlarga ega — Al-Forobiy (872–950) "Ideal shahar" asaridan boshlab pedagog shaxsiga qo'yiladigan yuksak talablar shahoda beradi. Shuningdek, Abdulla Avloniy (1878–1934) "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida pedagog shaxsining tarbiyaviy o'rni haqida alohida to'xtalgan. Zamonaviy o'zbek pedagog-olimlari (Muslimov, 2004; Hasanboyeva, 2006) bu an'anani zamonaviy kompetensiya nazariyasi bilan uyg'unlashtirgan.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: birinchidan, tarkibiy tuzilma nazariy tahlilga asoslanib, empirik tekshirishni talab qiladi; ikkinchidan, mahalliy sharoitda komponentlarning nisbiy og'irligi maxsus tadqiqotlar orqali aniqlanishi lozim. Kelajakdagi tadqiqotlarda so'rovnoma va kuzatish metodlari asosida modelni empirik asosda tekshirish tavsiya etiladi.

5. Xulosa (Conclusion)

Kasbiy malaka pedagog shaxsining kompleks, integratsiyalangan tavsifi bo'lib, uning samarali kasbiy faoliyat yuritishida asosiy omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijasida kasbiy malakaning besh tarkibiy komponenti — kognitiv, amaliy-operatsion, motivatsion, refleksiv va shaxsiy — aniqlandi va xalqaro hamda milliy ilmiy adabiyot asosida asoslab berildi.

Taklif etilgan model Bloom (2001), Schon (1983), Weinert (2001), Goleman (1995), Deci & Ryan (1985) va Shulman (1987) nazariy asoslari bilan uyg'un bo'lib, milliy pedagogika an'analari (Al-Forobiy, Avloniy, Muslimov) bilan organik bog'liqdir. UNESCO (2015) va OECD (2019) standartlari nuqtai nazaridan ham taklif etilgan tuzilma xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan kompetensiya modellaridan foydalanadi va ularni mahalliy kontekstga moslashtiradi.

Amaliy jihatdan ushbu yondashuv bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini baholashda va mentorlik tizimini yo'lga qo'yishda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's educational objectives. Longman.
2. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Prentice Hall.
3. Bertalanffy, L. von (1968). General system theory: Foundations, development, applications. George Braziller.
4. Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain. David McKay.
5. Creswell, J. W. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). SAGE Publications.
6. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Plenum.
7. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. D. C. Heath.
8. Epstein, R. M., & Hundert, E. M. (2002). Defining and assessing professional competence. *JAMA*, 287(2), 226–235. <https://doi.org/10.1001/jama.287.2.226>
9. European Commission. (2018). Proposal for a council recommendation on key competences for lifelong learning. Publications Office of the European Union.
10. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. Basic Books.
11. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam Books.
12. Hasanboyeva, O. (2006). Pedagog kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan.
13. Hatton, N., & Smith, D. (1995). Reflection in teacher education: Towards definition and implementation. *Teaching and Teacher Education*, 11(1), 33–49. [https://doi.org/10.1016/0742-051X\(94\)00012-U](https://doi.org/10.1016/0742-051X(94)00012-U)
14. Hutmacher, W. (1997). Key competencies for Europe. Report of the Symposium. Council of Europe.
15. Hyland, T. (2007). Vocational education and training and the therapeutic turn. *Educational Studies*, 35(3), 299–306.
16. Karimova, V. (2005). Pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari. Toshkent: o'qituvchi.
17. Korthagen, F. A. J. (2004). In search of the essence of a good teacher: Towards a more holistic approach in teacher education. *Teaching and Teacher Education*, 20(1), 77–97. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2003.10.002>
18. Le Deist, F. D., & Winterton, J. (2005). What is competence? *Human Resource Development International*, 8(1), 27–46. <https://doi.org/10.1080/1367886042000338227>
19. Leontiev, A. N. (1983). Izbrannye psixologicheskie proizvedeniya (Tom 2). Pedagogika. [Russian]
20. Maslow, A. H. (1954). Motivation and personality. Harper & Row.
21. Mulder, M. (2017). Competence-based vocational and professional education: Bridging the worlds of work and education. Springer.
22. Muslimov, N. A. (2004). Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy shakllanishi. Toshkent: Fan.
23. OECD. (2019). TALIS 2018 results (Volume I): Teachers and school leaders as lifelong learners. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/1d0bc92a-en>
24. o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent.

25. Schon, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.
26. Shodiyeva, M. (2010). *Tarbiyachi-pedagogning kasbiy rivojlanishi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
27. Shonkoff, J. P., & Phillips, D. A. (Eds.). (2000). *From neurons to neighborhoods: The science of early childhood development*. National Academy Press.
28. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. *Harvard Educational Review*, 57(1), 1–22. <https://doi.org/10.17763/haer.57.1.j463w79r56455411>
29. Sylva, K., Melhuish, E., Sammons, P., Siraj-Blatchford, I., & Taggart, B. (2004). *The Effective Provision of Pre-School Education (EPPE) Project: Final report*. DfES/Institute of Education.
30. Tolipov, o'. (2009). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan.
31. UNESCO. (2015). *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*. UNESCO.
32. Weinert, F. E. (2001). Concept of competence: A conceptual clarification. In D. S. Rychen & L. H. Salganik (Eds.), *Defining and selecting key competencies* (pp. 45–65). Hogrefe & Huber.

FILOLOGIYA FANLARI

ПАДЕЖНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдуллоева Сарварой Амрулло кизи, Магистр II - курса специальности русский язык и литература БГПИ

Юлдашева Маишхура Музаффаровна, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент, научный руководитель

Аннотация: В статье рассматриваются особенности падежного управления в русском и узбекском языках в сопоставительном аспекте. Анализируется система падежных форм и способы выражения синтаксических отношений, обусловленных управлением. Особое внимание уделяется сходствам и различиям в реализации падежных значений, а также влиянию лексико-грамматических факторов на выбор падежных форм. Материал исследования включает примеры из современного русского и узбекского языков. Результаты работы могут быть использованы в теоретической грамматике, контрастивной лингвистике, а также в практике преподавания русского и узбекского языков как неродных.

Ключевые слова: Падежное управление, синтаксическая связь, зависимое слово, послелог, падежные аффиксы, флективные изменения, непосредственное и опосредованное управление.

CASE RELATIONS IN RUSSIAN AND UZBEK

Abdulloyeva Sarvaroy Amrullo qizi, Magistr 2nd year, specialty: russian language and literature, BSPI

Yuldasheva Mashkhura Muzaffarovna, Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences, dotsent, scientific supervisor

Abstract: The article examines the features of case relations in the Russian and Uzbek languages from a contrastive perspective. The system of case forms and the ways of expressing syntactic relations determined by verbal and nominal case assignment are analyzed. Special attention is paid to similarities and differences in the realization of case meanings, as well as to the influence of lexico-grammatical factors on the choice of case forms. The research material includes examples from modern Russian and Uzbek. The results of the study can be used in theoretical grammar, contrastive linguistics, as well as in the practice of teaching Russian and Uzbek as non-native languages.

Keywords: case relations, syntactic relation, dependent word, postposition, case affixes, inflectional changes, direct and mediated case assignment.

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA KELISHIK BOSHQARUVI

Abdulloyeva Sarvaroy Amrullo qizi, rus tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha BDPI magistratura II bosqich magistri,

Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, ilmiy rahbar

Annotatsiya: Mazkur maqolada rus va o‘zbek tillarida kelishik boshqaruvi hodisasi qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kelishik shakllari tizimi hamda boshqaruv asosida yuzaga keladigan sintaktik munosabatlarni ifodalash usullari o‘rganiladi. Kelishik ma’nolarining ifodalanishidagi umumiy va farqli jihatlar, shuningdek, kelishik shakllarining tanlanishida muhim bo‘lgan leksik-grammatik omillarning roli alohida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot materiali zamonaviy rus va o‘zbek tillaridan olingan misollar asosida

yoritilgan. Olingan natijalar nazariy grammatika, qiyosiy (kontrastiv) tilshunoslik hamda rus va o'zbek tillarini ona tili bo'lgan til sifatida o'qitish amaliyotida qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: kelishik boshqaruvi, sintaktik munosabat, tobe so'z, yordamchi so'zlar, kelishik affikslari, flektiv o'zgarishlar, bevosita va bilvosita boshqaruv.

Падежное управление является одним из ключевых механизмов выражения синтаксических отношений в языке. Его изучение в сопоставительном аспекте позволяет выявить как универсальные, так и типологически обусловленные особенности языковых систем. В данной статье рассматривается падежное управление в русском и узбекском языках, принадлежащих к разным языковым типам, что способствует более глубокому пониманию их грамматической организации и функциональных различий. Способы построения словосочетаний разнообразны и существенно различаются в разных языках, т.к. "в правилах сочетания слов, в закономерностях образования разных видов и типов словосочетаний ярко проявляется национальная специфика языка"[5].

В многих источниках управлению слов дается такое определение: "Управлением называется такой вид синтаксической связи, когда употребление определенной формы косвенного падежа существительного, предметно-личного местоимения или субстантивированного прилагательного (без предлога или с предлогом) обусловлено грамматическим и лексико-грамматическим значением другого, господствующего слова". Это слово для раскрытия и распространения своего смысла как бы требует определенной зависимой от него формы косвенного падежа имени или местоимения с личным или предметным значением, например: решить задачу, войти в лес, лишиться надежды, считаться со временем, отправление поезда (отправить поезд), интересы дела, интерес к науке и т.д.

В узбекском языке при управлении зависимое слово по требованию главного оформляется определенной формой: зависимое слово принимает аффикс или употребляется с послелогом. В отличие от русского языка, где при употреблении слов независимо от того, имеем ли мы дело с предлодным или беспредложным управлением, форма зависимого слова меняется, в узбекском языке при собственно послеложном управлении форма зависимого слова не меняется, зависимое слово в основном падеже (исключение: *mening bilan* (со мной), *mening uchun* (для меня). Ср.: Студент спорит с товарищем. *Talaba o'rtog'i bilan bahslashyapti*. В узбекском примере глагол "*bahslashyapti*" (спорит) управляет словом "*o'rtog'i*", но здесь не участвует падежный аффикс и невозможно его участие. Управление осуществляется только при помощи послелога "*bilan*" (с).

В русском языке средствами выражения синтаксической связи олов является форма зависимых слов, служебные слова, порядок слов и т.д. Например: преданность Родине, держать рукой, дружба между народами.

Слова в узбекском языке вступают в синтаксическую связь при помощи падежных аффиксов, служебных слов и порядка слов. Например: *Vatanga sadoqat, qo'l bilan ushlamoq, xalqlar o'rtasidagi do'stlik*.

Основным способом выражения синтаксических отношений между словами при управлении в русском языке являются флективные изменения зависимого слова. В узбекском языке также при помощи аффиксов слова вступают в синтаксические отношения. Однако в русском языке изменение падежных форм зависимого слова обуславливается наличием трех типов склонений, связанных с понятием грамматического рода. Кроме того, существительные одного и того же падежа в зависимости от твердости и мягкости основы могут иметь различные окончания, а окончания существительных мужского и среднего рода в винительном падеже могут совпадать с именительным и родительным падежами, что обусловлено одушевленностью и неодушевленностью предмета.

В отличие от русского языка, в узбекском языке падежные аффиксы зависимого слова изменяются по строгой системе; каждый падеж получает определенный аффикс. Отсутствие категории грамматического рода, независимость склонения существительных от одушевленности и неодушевленности, наличие только одной формы склонения в узбекском языке вызывают большие затруднения у носителей узбекского языка в употреблении в речи зависимых форм русских конструкций с управлением.

Ср.: помочь другу - do'stga yordam bermoq
помочь судье - sudyaga yordam bermoq
помочь обществу - jamiyatga yordam bermoq
помочь герою - qahramonga yordam bermoq
помочь студентке - talaba qizga yordam bermoq

Как в русском языке, так и в узбекском различается управление "непосредственное" (беспредложное в русском языке, беспослеложное в узбекском) и "опосредованное" vositali (предложное в русском языке, послеложное в узбекском). Важным средством выражения синтаксических отношений в "опосредованном" управлении в русском языке являются предлоги а в узбекском послелого и служебные имена.

При помощи предлогов четко дифференцируются различные значения управляемых форм. Например: шел в лес, шел через лес, шел около леса.

В узбекском языке в "посредственном" управлении в качестве средств связи выступают послелого, которые "уточняют и дополняют значения падежей, а также обозначают синтаксические отношения, не выражаемые падежами" [4]. Например:

Dala orqali ketdi - ушел через поле
dala tomonga ketdi - ушел в поле
dalaga qarab ketdi - ушел в сторону поля

В узбекском языке различаются два разряда послелогов: послелого - частицы и послелого имена.

Анализ примеров показывает, что в отличие от русского опосредованного управления, где наряду с предлогами участвует и форма слова, в узбекском языке в управлении послелогоми именами форма зависимого слова не принимает участия, падежный аффикс принимает послелог (dala tomonga - ушел в поле), а в управлении послелогоми частицами падежным аффиксом оформляется зависимое слово (dalaga qarab ketdi - ушел в сторону поля). Собственно послелого bilan, uchun, kabi, singari, bo'yab и др. служат средством связи между управляющим и управляемым словом, где невозможно употребление падежного аффикса. Ср.: (o'rtog'i bilan ketdi - ушел с товарищем, adolat uchun kurash - борьба за справедливость).

В русском языке предлоги употребляются со всеми падежами, кроме именительного, а в узбекском языке послелого частицы в зависимости от падежной формы подчиненного слова могут употребляться с тремя падежами: основным, дательноподчинительным, исходным. Употребление послелогов с основным падежом создает определенные трудности для узбеков при составлении словосочетаний на русском языке. По аналогии с родным языком они могут составить словосочетания типа: "ехать по дороге" (yo'l bilan bormoq), "остановиться около леса" (o'rmon oldida to'xtamoq), "песня о Родине" (vatan haqida qo'shiq).

Наблюдаются большие различия между русским и узбекским языками и в порядке слов при управлении. В русском языке управляемое слово по отношению к управляющему занимает постпозицию. В узбекском языке при управлении слов во многих случаях зависимое слово стоит впереди главного.

Ср.: готовиться к экзамену – imtihonlarga tayyorlanmoq
конференция по коррупции – korrupsiya bo'yicha konferensiya

Известно, что характер управления зависит от грамматических и лексико-грамматических факторов, определяющих выбор формы зависимого слова. "Будучи тесно связано с лексическим значением связываемых слов, оно находит как бы на стыке грамматики и лексики, чем определяется в значительной мере трудность его усвоения"

К грамматическим факторам, непосредственно определяющим форму управления, относятся: 1) принадлежность управляющего слова к определенной части речи; 2) наличие у управляющего слова (в основном у глагола) той или иной приставки; 3) залоговые различия глаголов.

Кстановлено, что слова, принадлежащие к одному и тому же лексическому гнезду, в большинстве случаев сохраняют одну и ту же форму управления. Например: работать над рукописью – работа над рукописью, работать со словарем - работа со словарем, разговаривать с преподавателем - разговор с преподавателем.

Общность лексического значения корня управляющего слова в приведенных примерах определяет однотипность формы управления. Но во многих случаях управляемые формы не зависят от общности лексического значения. В этих случаях, "когда однородные отношения передаются разными управляемыми формами, правомерно говорить о том, что на оформление подчиненного слова, действительно, влияют не только выражаемые отношения, но и грамматический характер господствующего слова": защитить Родину - защита Родины
интересоваться наукой - интерес к науке
наградить героя - награда герою

На управляемые формы оказывает влияние принадлежность управляющего слова и определенной части речи. Сохраняя объектные отношения между компонентами словосочетания, управляемые формы при глаголах сменяются присубстантивной формой.

В узбекском языке довольно редки случаи, когда окончание управляемого слова различно в зависимости от того, является ли управляющее слово именем или образованным от него глаголом. Например: kosmonavtga mukofot – kosmonavtni mukofotlamoq, (награда космонавту - наградить космонавта), dushmanga nafrat – dushmandan nafratlanmoq (ненависть к врагу - ненависть врага).

В большинстве случаев подобного рода словосочетаний форма управляемого слова неизменна. Ср.: kitob o‘qimoq – kitob o‘qish (читать книгу - чтение книги), binoga kirmoq – binoga kirish (войти в здание - вход в здание).

В узбекском языке существуют сложные глаголы, которые состоят из именной части и глаголообразующего элемента, в качестве к-кого выступают глаголы qilmoq, etmoq (делать), bo‘lmoq (делаться, становиться) и др. Именная часть, в которой выражается основное лексическое значение сложного глагола, сохраняет свою форму управления: vadaga vafo – vadaga vafo qilmoq (верность обещанию - выполнить обещание), do‘stga yordam - do‘stga yordam bermoq (помощь товарищу - помогать товарищу).

В русском языке в некоторых случаях управление зависит от морфологической структуры управляющего слова, в частности, от наличия в нем той или иной приставки. Эта зависимость основывается на определенном соотношении между приставками и предлогами, при этом некоторые предлоги употребляются с приставками и по значению, и по форме (напр. забежать за стол, добраться до станции и т.д.) или только по значению (выйти из дома, подойти к столу, переехал через дорогу и т.д.).

Приставка, употребляясь с глаголами, меняет и конкретизирует лексическое значение управляющего слова, соответственно она ограничивает возможность сочетаемости слов. По справедливому замечанию Е.С.Скобликовой, "закономерное соответствие предлога и приставки не может быть сведено к какому-либо простому формальному признаку: такое соответствие имеет всегда семантическую основу.

Влияние морфологической структуры главного слова на форму зависимого слова в русском языке и соотношение между некоторыми приставками и предлогами передаются

на узбекский язык разнокорневыми словами, и зависимая форма узбекского языка употребляется без послелога.

Таким образом, несмотря на ряд общих свойств, присущих словосочетаниям, образованным по способу управления в русском и узбекском языках, конструкции этих сочетаний в любом конкретном случае имеют различия, специфичные для каждого языка, что необходимо учитывать при изучении русского управления в узбекоязычной аудитории.

Список использованной литературы:

1. А.К.Боровков. Природа «турецкого изафета», стр. 165-166.
2. A.G.Gulyamov, M.A.Askarova. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili, Sintaksis, b. 129.
3. Н.К.Дмитриев. Категория принадлежности, в сб. «Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков», ч. 11. Морфология, М., 1956, стр. 22.
4. А.Н.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка, стр. 356.
5. А.С.Сафаев. Исследования по синтаксису узбекского языка, Т., 1968, стр. 32-55.
6. Э.В.Севортян. О структуре предложения в тюркских языках, в сб. "Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков", ч. III. Синтаксис, М., 1961, стр. 64.

NUTQIY FAOLIYAT VA NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHALARI HAMDA ULARNING O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sharofova Nilufar Ilhom qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

sharofova_nilufar@buxdpi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq, nutq faoliyati hamda uning nazariy-metodologik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, nutqning shaxs kamolotidagi o'rni, uning kommunikativ kompetensiya va tafakkur rivoji bilan uzviy bog'liqligi ilmiy dalillar asosida asoslanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari shakllanishida nutqiy kompetensiyaning poydevor vazifasini bajarishi pedagogik misollar hamda metodik tahlillar orqali ochib beriladi.

Kalit sozlar: nutq, nutq faoliyati, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, nutq turlari, ogzaki nutq, yozma nutq

ПОНЯТИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Шарофова Нилуфар Ильхом кизи, Базовый докторант,
Бухарский государственный педагогический институт

sharofova_nilufar@buxdpi.uz

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются речь, речевая деятельность и ее теоретические и методологические основы. Также на основе научных данных рассматривается роль речи в личностном развитии, ее неразрывная связь с развитием коммуникативной компетентности и мышления. Фундаментальная роль речевой компетентности в формировании знаний, навыков и квалификаций учащихся, особенно на этапе начального образования, раскрывается на педагогических примерах и методическом анализе.

Ключевые слова: речь, речевая деятельность, речевая культура, ораторское искусство, виды речи, устная речь, письменная речь

THE CONCEPTS OF SPEECH ACTIVITY AND SPEECH CULTURE AND THEIR PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH

Sharofova Nilufar Ilhom qizi, PhD student

Bukhara State Pedagogical Institute

sharofova_nilufar@buxdpi.uz

Abstract: This article analyzes speech, speech activity and its theoretical and methodological foundations from a scientific and pedagogical point of view. Also, the role of speech in personal development, its inextricable connection with the development of communicative competence and thinking is based on scientific evidence. The fundamental role of speech competence in the formation of knowledge, skills and qualifications of students, especially at the primary education stage, is revealed through pedagogical examples and methodological analyses.

Keywords: speech, speech activity, speech culture, oratory, types of speech, oral speech, written speech

Har bir davlatning barqaror rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi bevosita mamlakatdagi yosh avlodning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligiga bog'liqdir. Zero, jamiyatning ertangi kuni aynan bugun ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarning bilim darajasi, tafakkur kengligi va ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi. O'sib kelayotgan o'g'il-qizlarning intellektual salohiyati, avvalo, ularning nutq faoliyatida o'z ifodasini topadi. Nutq – shaxs tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy olamining ko'zgusi bo'lib, unda

fikrning mantiqiyligi, izchilligi va boyligi namoyon bo‘ladi.

Maktab darsliklarida keltirilgan badiiy va ilmiy asarlarda mujassam bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalari — mehr-muhabbat, sadoqat, odamiylik, e‘tiqod kabi yuksak fazilatlar muallifning ichki kechinmalari hamda estetik qarashlarining nutq orqali ifodalangan shaklidir. Shu bois ta‘lim jarayonida mazkur asarlarning mazmun-mohiyatini anglash va ularni tahlil qilish o‘quvchilarning nafaqat nutq madaniyatini, balki ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, fikrlash jarayonida shakllangan mazmun nutq a‘zolari vositasida tashqi ifodaga chiqariladi. Shunday ekan, nutq tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab psixolingvistik hodisadir. Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonida nutqni muntazam ravishda takomillashtirib, uni madaniy va ijtimoiy me‘yorlar asosida sayqallashtirib kelgan.

Ibtidoiy davrlarda insonlar o‘zaro muloqotni turli tovushlar, qichqiriqlar hamda tasviriy belgilar orqali amalga oshirganliklari ma‘lum. Mazkur kommunikativ vositalar jamiyat a‘zolari o‘rtasida axborot almashish ehtiyojining naqadar muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, nutqning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan.

Nutq va nutqiy faoliyat masalalari ilmiy manbalarda keng va atroflicha yoritilgan. Xususan, Sh. Sariyevning “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasi” nomli monografiyasida nutq tushunchasining nazariy asoslari hamda uning boshlang‘ich ta‘lim jarayonidagi o‘rni ilmiy-metodik jihatdan tahlil etilgan: Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko‘rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da “nutq insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [1], “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya‘ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [2], deya e‘tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni”[3] deb ta‘riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq “kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish” [4] sifatida ham talqin etilgan.

Zebiniso Ahmedova, Zarif Quvonovlar nutqqa quyidagicha izoh berishadi: “Nutq-arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, kishilarning ijtimoiy aloqa quroli bo‘lgan tildan foydalanib, xususiy suhbatda, umumiy majlis, uchrashuv va yig‘inlardagi gapi yoki o‘qib eshittirgan so‘zlaridir. Nutq-ma‘lum maqsad bilan so‘zlanadi va ma‘lum bir g‘oyaviy yo‘nalishga hamda estetik ta‘sir kuchiga egadir” [5].


Nutqiy faoliyat — bu nutq a‘zolari (artikulyatsion apparat) ning muvofiqlashtirilgan harakati natijasida yuzaga keladigan psixofiziologik jarayondir. Nutq organlarining faol ishtiroki va bosh miya tomonidan boshqariladigan nutq mexanizmlari tufayli nutq shakllanadi, tovushli ifodaga ega bo‘ladi hamda kommunikativ vosita sifatida tinglovchiga yetkaziladi.

Nutqiy faoliyat tildan foydalanuvchilarning gapirish, nutq so‘zlash bilan birga, tinglash jarayoni ham. Mashhur amerikalik notiq psixolik Deyl Karnegi “yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatning insonda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi [6]. Demak, ushbudan kelib chiqib nutq faoliyati nafaqat so‘zlash balki tinglash ekanligi hamdir degan fikrga kelamiz. Nutqiy faoliyat bizning faoliyatimizning asosiy tarkibiy qismidir.

Nutq faoliyati kishilarning bir-birlariga tushunarli bo‘lgan til vositasida o‘zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir [7].

Nutqning og‘zaki hamda yozma shakli mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega,

albatta shuni ham aytib o‘tish joizki, yozma nutq og‘zaki nutqning ta‘sirida vujudga kelgan. Quyida har ikkala nutqning o‘ziga xosligini jadval ko‘rinishida keltirib o‘tamiz:



Og‘zaki va yozma nutq har biri o‘ziga xos me‘yoriy tizimga ega bo‘lib, muloqot jarayonida ushbu me‘yorlarga tayanish nutqning samaradorligini ta‘minlaydi. Og‘zaki nutq yozma nutqqa nisbatan erkinroq xarakter kasb etadi, chunki unda sheva elementlari, so‘zlashuv uslubiga xos birliklar hamda olinma so‘zlardan foydalanish holatlari uchraydi. Yozma nutqda esa adabiy til me‘yorlariga qat‘iy rioya qilinadi. Adabiy til talablariga muvofiq tashkil etilgan nutq madaniyatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Nutqning sofliqi, aniqligi, tushunarligi, jozibadorligi va mazmundorligi madaniy nutqning muhim mezonlari sifatida e‘tirof etiladi.

Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati qadimdan ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutgan. Xususan, Qadimgi Yunonistonda sud-huquq tizimida notiqlik yuksak darajada qadrlangan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, sud jarayonlarida tomonlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning nutq mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. Omma oldida nutq so‘zlash uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish an‘anasi shakllangan bo‘lib, bu holat nutq madaniyati taraqqiyotining uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichidan boshlab o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini izchil takomillashtirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Nutq savodxonligini oshirish uzluksiz metodik izlanish va yangilanishni talab etadi. Darsliklarda berilgan turli mashq va topshiriqlar ushbu jarayonni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xususan, lug‘at boyligini kengaytirish va paronim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish nutq savodxonligini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. 1-sinf ona tili darsligida nuqtalar o‘rniga mos harfni qo‘yish orqali paronim juftliklarni farqlashga qaratilgan mashqlar keltirilgan: Dar... juda qiziqarli otdi

Piyolaning cheti dar... ketdi

Mar... maydonda sinalar.

Mar... oyida bayramlar kop bo‘ladi [8].

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, so‘z ma‘nolarini anglash va ularni o‘rinli qo‘llash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilarda nutqning aniqligi va ifoda madaniyati bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarga so‘zlarning sinonimlarini aniqlash yoki ma‘nodosh hamda o‘zaro yaqin ma‘noli birliklarni guruhlashga doir topshiriqlar ham taqdim etiladi. Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, nutqiy zaxirasini kengaytirish hamda

ifodali va ravon nutq shakllantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Zero, sinonim birliklardan o‘rinli foydalanish nutqda takrorlarning oldini oladi, fikrning aniq va ta’sirchan ifodalanishini ta’minlaydi hamda so‘zlovchining nutqiy mahoratini namoyon etuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. 3-е издание, стереотипное. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2009. - 15-с
2. Узбекистон Миллий энциклопедияси / 12 жилдли. 6-ж. - Т.. “УМ Э” Давлат илмий иашриёти, 2003. - 424-425-6.
2. Гоголь Н. В. Полное собрание сочинений: в 14 т. М.: Издательство АН СССР, 1952.
3. Белинский В. Г. Статьи о русской литературе. М.: Художественная литература, 1981.
4. Лотман Ю. М. О русской литературе XIX века. СПб.: Искусство-СПБ, 1997.
5. Манн Ю. В. Поэтика Гоголя. М.: Наука, 1988.
6. Гуковский Г. А. Пушкин и проблемы реализма. Л.: Наука, 1985.

IJTIMOIIY FANLAR

O‘ZBEKISTONDA BOLALAR HUQUQLARINI TA’MINLASH VA HIMOYA QILISHNING HUQUQIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Norqulova Munisa Shamsiddinovna, BuxDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta’limi) 1-bosqich magistranti

<mailto:norkulovamunisa8@gmail.com>

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda bolalar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning huquqiy-pedagogik muammolari ta’lim tizimi kontekstida tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilik normalari va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanib, bolalar huquqlarining ta’lim muhitida implementatsiya darajasi baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra bolalar huquqlarini ta’minlashning normativ asoslari shakllangan bo‘lsada, ularning pedagogik mexanizmlari yetarli integratsiyalashmagan. Ta’lim muassasalarida bola manfaatlari ustuvorligi, huquqiy xavfsizlik va bolalar ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar huquqlari, ta’lim tizimi, huquqiy himoya, pedagogik muammo, ta’lim muhiti, bola manfaatlari, pedagog kompetensiyasi, zo‘ravonlik profilaktikasi, huquqiy-pedagogik integratsiya, O‘zbekiston

ПРАВОВЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ И ЗАЩИТЫ ПРАВ ДЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Норкулова Муниса Шамсиддиновна, Студентка 1-го курса магистратуры BuxDPI по специальности Методология преподавания социальных и гуманитарных наук (юридическое образование)

<mailto:norkulovamunisa8@gmail.com>

Аннотация: В статье проанализированы правовые и педагогические проблемы обеспечения и защиты прав ребенка в Узбекистане в контексте системы образования. Выявлены расхождения между нормами действующего законодательства и педагогической практикой, оценена степень реализации прав ребенка в образовательной среде. Установлено, что нормативные основы защиты прав детей сформированы, однако их педагогические механизмы недостаточно интегрированы. Разработаны предложения по обеспечению приоритета интересов ребенка, правовой безопасности образовательной среды и участию детей в образовательном управлении.

Ключевые слова: права ребенка, система образования, правовая защита, педагогическая проблема, образовательная среда, интересы ребенка, компетенция педагога, профилактика насилия, правопедagogическая интеграция, Узбекистан

LEGAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PROVIDING AND PROTECTING CHILDREN'S RIGHTS IN UZBEKISTAN

Norqulova Munisa Shamsiddinovna, 1st year master's student of BuxDPI, Methodology of Teaching Social and Humanities (Legal Education)

<mailto:norkulovamunisa8@gmail.com>

Annotation: The article examines legal and pedagogical problems of ensuring and protecting children's rights in Uzbekistan within the context of the education system. Discrepancies between current legal norms and pedagogical practice are identified, and the level of implementation of children's rights in the educational environment is assessed. The study shows that while the normative foundations of child rights protection are established, their pedagogical mechanisms remain insufficiently integrated. Recommendations are developed to

strengthen the priority of the child's best interests, legal safety of the educational environment, and children's participation in educational governance.

Keywords: children's rights, education system, legal protection, pedagogical problem, educational environment, best interests of the child, teacher competence, violence prevention, legal-pedagogical integration, Uzbekistan

Kirish. Bolalar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarining universal konsepsiyasiga ko'ra, bola jamiyatning alohida himoyaga muhtoj qatlamini tashkil etadi va uning huquqlari nafaqat deklarativ darajada e'tirof etilishi, balki real ijtimoiy institutlar faoliyati orqali amalda ta'minlanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, bolalar huquqlarini ta'minlash tizimida ta'lim sohasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bolaning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va huquqiy ongining rivojlanishi aynan ta'lim muhitida kechadi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi institut, balki bolani himoya qiluvchi ijtimoiy-huquqiy makon sifatida talqin etiladi. Ta'lim muassasasida bola kunining asosiy qismi o'tishi, uning ijtimoiy aloqalari, psixologik holati va shaxsiy rivoji aynan shu muhit bilan chambarchas bog'liqligi sababli, bolalar huquqlarining real ta'minlanish darajasi ko'p jihatdan ta'lim tizimi faoliyatiga bog'liqdir. Shu bois xalqaro bolalar huquqlari konsepsiyasida maktab bolalar huquqlarini amalga oshirishning asosiy institutlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasida mustaqillik yillarida keng ko'lamli huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Bolalarning yashash, rivojlanish, ta'lim olish, himoyalani va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish huquqlari milliy qonunchilikda mustahkamlandi, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Shu bilan birga, bolalar huquqlarining ta'lim muhitida to'liq va izchil ta'minlanishi bilan bog'liq qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida bola manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash, pedagogik zo'ravonlikning oldini olish, diskriminatsion munosabatlarga barham berish, xavfsiz psixologik muhit yaratish hamda bolalarning fikrini inobatga olish mexanizmlarini rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bolalar huquqlarini ta'lim muhitida ta'minlash muammosi ikki o'lchamda namoyon bo'ladi: huquqiy va pedagogik. Huquqiy o'lcham bolalar huquqlarining normativ-huquqiy mustahkamlanishi, himoya mexanizmlari va institutsional kafolatlari bilan bog'liq bo'lsa, pedagogik o'lcham ushbu huquqlarning real pedagogik munosabatlar, ta'lim jarayoni, tarbiya tizimi va ta'lim muhitining tashkil etilishi orqali amalga oshirilishi bilan bog'liqdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar huquqlarining buzilishi ko'pincha huquqiy bo'shliqlar natijasida emas, balki pedagogik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi, avtoritar munosabatlar stereotiplarining saqlanib qolishi, pedagoglarning bolalar huquqlari sohasidagi kasbiy kompetensiyasining pastligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Zamonaviy pedagogika fanida bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi "bola markazli ta'lim", "xavfsiz ta'lim muhiti", "inklyuziv ta'lim", "pedagogik himoya" kabi konseptlar doirasida o'rganiladi. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, ta'lim muassasasining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki bolaning qadr-qimmatini, sha'ni va shaxsiy daxlsizligini ta'minlash, uning individual ehtiyojlarini hisobga olish hamda zo'ravonlik va kamsitishdan himoya qilishdan iborat. Shu sababli bolalar huquqlarini ta'lim muhitida ta'minlash darajasi ta'lim tizimining insonparvarlashuvi va demokratlashuvi ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va transformatsiya qilish jarayonlari bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yangi vazifalarni yuzaga chiqarmoqda. Inklyuziv ta'limni joriy etish, maktablarda psixologik xizmatni rivojlantirish, zo'ravonlik profilaktikasi tizimini yaratish, ta'lim muhitini xavfsizlashtirish, pedagogik etikani kuchaytirish kabi yo'nalishlar davlat ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Biroq ushbu

yoʻnalishlar amaliyotida mavjud muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, bolalar huquqlarini taʼlim muhitida taʼminlashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti — Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimida bolalar huquqlarini taʼminlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti — bolalar huquqlarini taʼlim muhitida taʼminlash va himoya qilishning huquqiy-pedagogik muammolari hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Oʻzbekistonda bolalar huquqlarini taʼminlash va himoya qilishning huquqiy-pedagogik muammolarini kompleks tahlil qilish maqsadida oʻzaro bogʻliq boʻlgan huquqiy, pedagogik va ijtimoiy-ilmiy metodlar majmuasi qoʻllanildi. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy davlat va inson huquqlarining ustuvorligi prinsiplariga asoslandi.

Avvalo, formal-huquqiy metod qoʻllanilib, bolalar huquqlarini taʼminlash sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida, Taʼlim toʻgʻrisida hamda Bola huquqlari toʻgʻrisidagi Konvensiya normalari oʻzaro uygʻunlikda oʻrganildi. Normativ qoidalar bolalar manfaatlarini ustuvorligi, taʼlim muhitida himoya mexanizmlari, pedagogik majburiyatlar va davlat kafolatlari kesimida tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro standartlar bilan solishtirildi. Xususan, bola manfaatlarini ustuvorligi prinsipi, zoʻravonlikdan himoya, taʼlim muhitining xavfsizligi va kamsitmaslik normalari milliy qonunchilikda implementatsiya darajasi boʻyicha baholandi.

Tizimli-tahliliy metod orqali bolalar huquqlarini taʼminlash mexanizmlari taʼlim tizimi kontekstida bir butun tizim sifatida koʻrib chiqildi. Bu metod bolalar huquqlarining huquqiy kafolatlari bilan pedagogik amaliyot oʻrtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini berdi. Taʼlim muassasalarida bolalar huquqlarini taʼminlashga masʼul subyektlar — pedagoglar, psixologlar, maʼmuriyat, vasiylik organlari va ota-onalar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar tahlil qilindi.

Empirik umumlashtirish metodidan foydalanilib, Oʻzbekiston taʼlim tizimida bolalar huquqlariga oid muammolar boʻyicha mavjud ilmiy tadqiqotlar, milliy hisobotlar va amaliyot materiallari tahlil qilindi. Bu orqali normativ talablar va real pedagogik muhit oʻrtasidagi nomuvofiqliklar umumlashtirildi.

Natijalarni konseptual asoslashda induktiv va deduktiv mantiqiy metodlar qoʻllanildi. Induktiv yondashuv orqali alohida muammolar (maktabdagi zoʻravonlik, pedagogik bosim, bola fikrini inobatga olmaslik) umumiy tizimli muammo sifatida umumlashtirildi. Deduktiv yondashuv orqali esa xalqaro standartlardan kelib chiqib milliy taʼlim tizimidagi kamchiliklar aniqlashtirildi.

Mazkur metodlar majmuasi bolalar huquqlarini taʼminlash va himoya qilishning huquqiy-pedagogik muammolarini ilmiy asosda ochib berish, ularning tizimli sabablarini aniqlash va taʼlim tizimiga mos yechimlar ishlab chiqish imkonini berdi.

OʻZBEKISTONDA BOLALAR HUQUQLARINI TAʼMINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TAʼLIM TIZIMIDAGI AMALGA OSHIRILISH HOLATI

Oʻzbekistonda bolalar huquqlarini taʼminlash va himoya qilishning huquqiy asoslari zamonaviy xalqaro standartlar bilan uygʻunlashgan holda shakllangan boʻlib, u bolalar manfaatlarini ustuvorligi prinsipiga asoslanadi. Milliy huquqiy tizimda bola alohida himoyaga muhtoj subyekt sifatida eʼtirof etilib, uning huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasida bolalar huquqlarini taʼminlashga oid normalar sezilarli darajada kuchaytirildi. Konstitutsiyada davlat bolalarning toʻlaqonli jismoniy, aqliy va maʼnaviy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularni zoʻravonlik, ekspluatatsiya va beparvolikdan himoya qilishi belgilandi. Shuningdek, har bir bolaning taʼlim olish huquqi, inson qadr-qimmatining daxlsizligi, shaxsiy hayot himoyasi kabi fundamental huquqlar bolalar uchun ham toʻliq tatbiq etilishi

konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu normalar ta'lim muassasalarida bolalar huquqlarini ta'minlashning oliy huquqiy asosini tashkil etadi.

Bolalar huquqlarini bevosita tartibga soluvchi asosiy maxsus qonun — 2008-yilda qabul qilingan va keyingi yillarda bir necha bor takomillashtirilgan “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonundir. Mazkur qonun bolalarning yashash, rivojlanish, ta'lim olish, himoyalani, fikr bildirish, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish huquqlarini kafolatlaydi hamda davlat organlari, ta'lim muassasalari va mansabdor shaxslarning bolalar huquqlarini ta'minlashdagi majburiyatlarini belgilaydi. Qonunda bola manfaatlarini ustuvorligi prinsipi alohida mustahkamlangan bo'lib, bolaga taalluqli har qanday qarorlar qabul qilinishida uning manfaatlarini birlamchi mezon sifatida ko'rilishi shartligi belgilangan. Ushbu prinsip ta'lim tizimi faoliyatining ham asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida bolalar huquqlarini ta'minlashning asosiy normativ asosini “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun tashkil etadi. Amaldagi tahrirga ko'ra, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari qatorida insonparvarlik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, ta'lim oluvchining shaxsiga hurmat, xavfsiz ta'lim muhitini yaratish kabi normalar belgilangan. Qonunda ta'lim oluvchilarning qadr-qimmatini hurmat qilish, ularni jismoniy va psixologik zo'rvonlikdan himoya qilish, sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash ta'lim tashkilotlarining majburiyati sifatida ko'rsatilgan. Bu normalar bolalar huquqlarini bevosita ta'lim jarayonida ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi.

Bolalar huquqlarini himoya qilish tizimida “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi Qonun ham muhim o'rin tutadi. Mazkur qonun ota-ona qaramog'isiz qolgan yoki ijtimoiy xavfli holatga tushib qolgan bolalarning ta'lim olish, tarbiya va himoya huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini belgilaydi. Ta'lim muassasalari ushbu toifadagi bolalarni aniqlash, ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli organlar bilan hamkorlik qilish majburiyatiga ega. Bu norma ta'lim muassasasini bolani himoya qilish tizimining muhim institutsional subyekti sifatida belgilaydi.

So'nggi yillarda bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlar ham sezilarli darajada kuchaytirildi. Oilaviy zo'rvonlikning oldini olish, bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini aniqlash va himoya choralarini qo'llash tartiblari qonunchilikda aniq belgilandi. Ta'lim muassasalari pedagoglari bolalarga nisbatan zo'rvonlik alomatlarini aniqlash va tegishli organlarga xabar berish majburiyatiga ega subyektlar qatoriga kiritildi. Bu esa maktabni bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish tizimining faol bo'g'iniga aylantirdi.

Shu bilan birga, bolalar huquqlarining ta'lim tizimida real ta'minlanish holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, huquqiy normalarning mavjudligi har doim ham ularning amalda to'liq bajarilishini ta'minlamaydi. Ta'lim muassasalari faoliyatida bolalar huquqlariga rioya etish darajasi ko'p jihatdan pedagogik madaniyat, boshqaruv amaliyoti va institutsional mexanizmlarning samaradorligiga bog'liq. Ayniqsa, psixologik zo'rvonlik, kamsituvchi pedagogik munosabatlar, bolalarning fikrini inobatga olmaslik kabi holatlar ko'pincha huquqiy jihatdan emas, balki pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa bolalar huquqlarini ta'minlash masalasini huquqiy normalar bilan bir qatorda pedagogik mexanizmlar orqali ham ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida bolalar huquqlarini ta'minlashga doir qator institutsional muammolar mavjud. Birinchidan, pedagoglarning bolalar huquqlari sohasidagi huquqiy bilimlari va kasbiy kompetensiyasi yetarli darajada emasligi kuzatiladi. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ichki tartib-mexanizmlar (masalan, shikoyat mexanizmlari, ishonch qutilari, mustaqil psixologik monitoring) barcha muassasalarda bir xil darajada joriy etilmagan. Uchinchidan, bolalarning fikrini inobatga olish va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish amaliyoti ko'pincha formal xarakterga ega. Natijada bola manfaatlarini ustuvorligi prinsipi real pedagogik jarayonda to'liq namoyon bo'lmaydi.

Shunday qilib, O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslari yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, ularning ta'lim tizimida real amalga oshirilishi pedagogik,

institutsional va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu holat bolalar huquqlarini ta'lim muhitida ta'minlash muammosini huquqiy va pedagogik yondashuvlar integratsiyasi asosida o'rganish zarurligini asoslaydi.

Olingan natija va uning tahlili. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslari yetarlicha shakllanganini, biroq ularning ta'lim muhitidagi amaliy ijrosi bilan bog'liq huquqiy-pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur muammolar normativ daraja bilan pedagogik amaliyot o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi.

Birinchi natija sifatida bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari ta'lim tizimida to'liq implementatsiya qilinmayotgani aniqlandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida bolalar davlat himoyasida ekani va ularning huquqlari kafolatlanishi belgilangan. Biroq ta'lim muassasalarida bola manfaatlarini ustuvorligi prinsipi pedagogik qarorlar qabul qilishda tizimli mezon sifatida qo'llanmayotgani kuzatiladi. Amaliyotda pedagogik intizom choralari bolalar manfaatlarini emas, balki muassasa tartibi ustuvor qo'yilishi holatlari uchraydi.

Ikkinchi natija bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining pedagogik tizim bilan integratsiyasi yetarli emasligini ko'rsatdi. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida qonunida bolani zo'ravonlikdan himoya qilish davlatning majburiyati sifatida belgilangan. Shu bilan birga ta'lim tizimida zo'ravonlikni aniqlash, oldini olish va javob choralari qo'llashning aniq pedagogik algoritmlari yagona standart sifatida joriy etilmagan. Natijada psixologik bosim, pedagogik tahqirlash yoki kamsitish holatlari ko'pincha ichki intizomiy muammo sifatida ko'riladi, huquqiy hodisa sifatida baholanmaydi.

Uchinchi natija ta'lim muhitining xavfsizligi bolalar huquqlarini ta'minlashning asosiy sharti ekanini tasdiqladi. Ta'lim to'g'risida qonunida ta'lim oluvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati belgilangan. Shunga qaramay pedagogik amaliyotda avtoritar ta'lim usullari saqlanib qolganligi, bolani jamoat oldida tanbeh berish, past baho bilan jazolash yoki psixologik bosim orqali intizomni ta'minlash holatlari mavjudligi aniqlanadi. Bu holatlar huquqiy nuqtai nazardan bolalar sha'ni va qadr-qimmatini buzish sifatida baholanishi mumkin.

To'rtinchi natija bolalarning fikrini inobatga olish prinsipi ta'lim tizimida cheklangan darajada amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga ko'ra bola o'ziga taalluqli masalalarda fikr bildirish huquqiga ega. Milliy qonunchilik ham bu prinsipni tan oladi. Biroq maktab boshqaruvida, intizomiy masalalarda yoki ta'lim jarayonini tashkil etishda bolalar ishtiroki ko'pincha formal xarakterga ega. Bu esa bolalar huquqlarining subyekt sifatida emas, balki himoya obyekti sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Beshinchi natija pedagoglarning bolalar huquqlari sohasidagi huquqiy kompetensiyasi yetarli emasligini ko'rsatdi. Normativ hujjatlarda pedagogning bolalar huquqlarini hurmat qilish majburiyati aniq belgilangan bo'lsa-da, pedagogik tayyorlov tizimida bolalar huquqlari bo'yicha amaliy kompetensiyalar tizimli shakllantirilmaydi. Natijada pedagogik xatti-harakatlarning huquqiy chegaralari yetarli anglanmaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslari rivojlangan bo'lsa-da, ularning ta'lim tizimidagi amaliy implementatsiyasi huquqiy-pedagogik transformatsiyani talab etadi. Asosiy muammo normativ talablar mavjudligi emas, balki ularning pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshirilishidir. Shu bois bolalar huquqlarini ta'minlashni ta'lim tizimining ajralmas funksiyasi sifatida qayta konseptualizatsiya qilish zarur.

Ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish masalasining ta'lim tizimi kontekstida huquqiy-pedagogik integratsiya nuqtai nazaridan kompleks o'rganilganida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda bolalar huquqlarini himoya qilish faqat huquqiy kafolatlar tizimi sifatida emas, balki pedagogik jarayonning institutsional elementi sifatida konseptual asoslandi.

Birinchi, bolalar huquqlarini ta'minlashning milliy modeli ta'lim muhiti prizmasida

qayta talqin qilindi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida normalari tizimli tahlil qilinib, bolalar huquqlarini ta'minlashning uch pog'onali mexanizmi (normativ, institutsional, pedagogik) konseptual model sifatida ishlab chiqildi. Mazkur model bolalar huquqlarini faqat davlat organlari emas, balki ta'lim tizimi subyektlari ham amalga oshiruvchi ekanini ilmiy asoslaydi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimida bolalar huquqlarining implementatsiya darajasini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Tadqiqotda bolalar huquqlarining ta'lim muhitida amalga oshirilishini uch mezon orqali baholash taklif etildi: pedagogik qarorlarda bola manfaatlari ustuvorligi, ta'lim muhitining huquqiy xavfsizligi va bolalarning ishtirok darajasi. Bu mezonlar bolalar huquqlarining amaliy holatini baholash uchun metodik asos yaratadi.

Uchinchidan, bolalar huquqlarini ta'minlashning huquqiy-pedagogik ziddiyati tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, normativ darajada bolalar huquqlari to'liq e'tirof etilgan bo'lsa-da, pedagogik amaliyotda avtoritar yondashuv elementlari saqlanib qolmoqda. Shu sababli bolalar huquqlarining huquqiy e'tirofi bilan pedagogik amaliyoti o'rtasidagi tafovut tizimli muammo sifatida asoslandi.

To'rtinchidan, ta'lim tizimida bolalar huquqlarini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari tarkibi aniqlashtirildi. Tadqiqotda pedagogik mexanizmlar quyidagi elementlardan iborat ekani ilmiy asoslandi: pedagogning huquqiy kompetensiyasi, maktab muhitining psixologik xavfsizligi, bolalarning ishtirok instituti va huquqbuzarliklarning profilaktik tizimi. Mazkur yondashuv bolalar huquqlarini himoya qilishni pedagogik boshqaruv funksiyasi sifatida talqin etadi.

Beshinchidan, bolalar huquqlarini ta'minlashni ta'lim transformatsiyasi jarayonining mezonlaridan biri sifatida baholash g'oyasi ilgari surildi. Ta'lim to'g'risida qonunida belgilangan ta'lim sifati talablari bolalar huquqlarining ta'minlanishi bilan uzviy bog'liqligi asoslandi. Natijada bolalar huquqlari ta'lim sifatining tarkibiy komponenti sifatida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shu tariqa tadqiqot bolalar huquqlarini ta'lim tizimining huquqiy va pedagogik integratsiya sohasi sifatida konseptual asoslab, ularni ta'lim transformatsiyasi jarayonida baholash mezonlari va mexanizmlarini aniqlab bergani bilan ilmiy yangilikka ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari shakllangan bo'lsa-da, ularning ta'lim tizimidagi amaliy implementatsiyasi to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatdi. Bolalar huquqlarini himoya qilish tizimi huquqiy darajada rivojlangan, biroq pedagogik darajada yetarli integratsiyalanmagan. Shu sababli bolalar huquqlarining real ta'minlanishi ko'p jihatdan pedagogik muhit, pedagog kompetensiyasi va ta'lim muassasalari boshqaruviga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolalar huquqlarining ta'lim tizimidagi asosiy muammolari uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: pedagogik qarorlar qabul qilishda bola manfaatlari ustuvorligining yetarli qo'llanmasligi, ta'lim muhitining huquqiy xavfsizlik mexanizmlarining sustligi va bolalarning ta'lim boshqaruidagi ishtirokining cheklanganligi. Bu muammolar bolalar huquqlarining normativ e'tirofi bilan pedagogik amaliyoti o'rtasidagi tafovutni yuzaga keltirmoqda.

Shu munosabat bilan bolalar huquqlarini ta'minlashni ta'lim tizimining ajralmas funksiyasi sifatida institutsional mustahkamlash zarur. Avvalo, ta'lim muassasalarida bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha ichki standartlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday standartlar pedagogik munosabatlarda bola sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, psixologik xavfsizlikni ta'minlash va zo'ravonlikning oldini olish mezonlarini aniq belgilashi lozim.

Ikkinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimiga bolalar huquqlari bo'yicha amaliy kompetensiyalarni majburiy modul sifatida kiritish zarur. Bu modul pedagogik xatti-harakatlarning huquqiy chegaralari, bolalar manfaatlari ustuvorligi prinsipi va ta'lim muhitida huquqbuzarliklarning oldini olish usullarini qamrab olishi kerak. Bu taklif Ta'lim to'g'risidada belgilangan pedagoglarning professional mas'uliyati talablariga mos keladi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida bolalar ishtirokini ta'minlashning institutsional mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Maktab boshqaruvida o'quvchilar kengashlari, mediatsiya guruhlar va bolalar fikrini inobatga olish tartiblarini joriy etish bolalarning subyekt sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Bu yondashuv Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidada belgilangan bolalar manfaatlarini hisobga olish prinsipiga mos keladi.

To'rtinchidan, ta'lim muhitida bolalarga nisbatan zo'rvonlikni aniqlash va profilaktika qilishning yagona pedagogik algoritmini ishlab chiqish zarur. Mazkur algoritim pedagoglar, psixologlar va ma'muriyatning harakatlarini aniq tartibga solib, zo'rvonlik holatlarini huquqiy hodisa sifatida baholashni ta'minlashi lozim. Bu bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini ta'lim tizimi bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Beshinchidan, bolalar huquqlarining ta'lim tizimidagi ta'minlanish darajasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu indikatorlar ta'lim sifatini baholash tizimiga kiritilishi bolalar huquqlarini ta'lim transformatsiyasining mezonlaridan biriga aylantiradi.

Umuman olganda, bolalar huquqlarini ta'minlash O'zbekistonda ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish jarayonining muhim sharti hisoblanadi. Bolalar huquqlarining real ta'minlanishi nafaqat huquqiy kafolatlar mavjudligiga, balki pedagogik amaliyotning huquqiy standartlarga moslashuviga ham bog'liq. Shu sababli bolalar huquqlarini ta'minlashni ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri sifatida qarash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — Toshkent, 2008 (so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
3. Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasida bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida. — Toshkent, 2024.
5. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. — BMT, 1989 (O'zbekiston tomonidan 1992 yilda ratifikatsiya qilingan).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2020.
8. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. O'zbekistonda bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha milliy hisobot. — Toshkent, 2022.
9. UNICEF Uzbekistan. Situation Analysis of Children in Uzbekistan. — Tashkent, 2021.
10. Abdurahmonov Q.X. Inson huquqlari nazariyasi. — Toshkent: Adolat, 2020.
11. Yuldashev J., Xasanboeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2021.
12. Usmonov M. Bola huquqlari: xalqaro standartlar va milliy amaliyot. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
13. Kadirov F. Ta'lim huquqi. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2021.
14. Karimova V. Ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik. — Toshkent: Fan, 2020.
15. Human Rights Watch. Children's Rights and Protection Systems in Central Asia. — New York, 2020.

IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA INSTITUTSIONAL VA HUQUQIY MEXANIZMLAR

Shodiyeva Dilshoda G'ulomjonovna, Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)" yo'nalishi 2-kurs magistranti
dshodiyeva41@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash jarayonida institutsional va huquqiy mexanizmlarning tutgan o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud-huquq tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy tenglik, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlashdagi faoliyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy adolatni mustahkamlashda milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy tajribaning o'zaro uyg'unligi ochib berilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy adolat, davlat institutlari, ijtimoiy xizmatlar, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy himoya, ta'lim, sud hokimiyati.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

Шодиева Дилшоода Гуломжоновна, Магистрант 2 курса по направлению «Методика преподавания социально-гуманитарных наук (юридическое образование)»
dshodiyeva41@gmail.com

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется роль институциональных и правовых механизмов в процессе обеспечения социальной справедливости. Научно освещается деятельность органов государственной власти и управления, судебной-правовой системы, а также институтов гражданского общества в обеспечении социального равенства, верховенства закона и прав человека. Кроме того, раскрывается взаимосвязь национального законодательства и международного правового опыта в укреплении социальной справедливости, а также предлагаются рекомендации по решению существующих проблем.

Ключевые слова: социальная справедливость, государственные институты, социальные услуги, гражданское общество, общественный контроль, социальная защита, образование, судебная власть.

INSTITUTIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING SOCIAL JUSTICE

Shodiyeva Dilshoda G'ulomjonovna, 2nd year Master's student in the Major "Teaching Methods of Social and Humanitarian Sciences (Law Education)"
dshodiyeva41@gmail.com

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role of institutional and legal mechanisms in ensuring social justice. It examines the activities of state authorities and governance bodies, the judicial system, and civil society institutions in promoting social equality, the rule of law, and the protection of human rights. In addition, the article explores the interaction between national legislation and international legal experience in strengthening social justice and proposes recommendations for addressing existing challenges.

Keywords: social justice, state institutions, social services, civil society, public oversight, social protection, education, judiciary.

Hozirgi globallashuv va jamiyat taraqqiyotining murakkab bosqichida ijtimoiy adolatni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatda ijtimoiy tenglikni qaror toptirish, aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish ijtimoiy

barqarorlik hamda huquqiy davlatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy adolatni ta'minlash nafaqat axloqiy qadriyat, balki institutsional va huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayondir.

Zamonaviy davlatlarda ijtimoiy adolatni ta'minlash davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud-huquq tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Mazkur institutlarning samarali faoliyati qonun ustuvorligini mustahkamlash, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, ta'lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda teng imkoniyatlarni yaratish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarning amaliyotdagi samaradorligi mavjud huquqiy bazaning mukammalligi va institutlarning real mustaqilligiga bevosita bog'liqdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, konstitutsiyaviy islohotlar, sud-huquq tizimini liberallashtirish, ijtimoiy himoya va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq mazkur jarayonda institutsional va huquqiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi, ularning samaradorligini baholash va mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy adolatni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "inson qadrini ulug'lash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, qonun ustuvorligini ta'minlash va adolatli jamiyat barpo etish" davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy maqsadlari sifatida e'tirof etilgan.⁴ Mazkur strategik hujjatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda samarali institutsional tizimni shakllantirish, sud-huquq tizimini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlashda institutsional va huquqiy mexanizmlarning mohiyati, ularning o'zaro aloqadorligi hamda amaliyotdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Shuningdek, milliy va xalqaro tajriba asosida mavjud muammolar aniqlanib, ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda institutsional va huquqiy mexanizmlar mavzusi davlatning barqarorligi va fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi fundamental tizimni qamrab oladi. Ushbu mavzuni yoritishda mexanizmlarni uchta asosiy ustunga bo'lib tahlil qilish lozim.

Birinchi ustun: ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi qonunlar, qoidalar va siyosatlarni o'z ichiga oladi. Unga tenglik, adolat va odillikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar, shu jumladan, diskriminatsiyaga qarshi qonunlar, mehnat huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik, ijtimoiy ta'minot dasturlari va ta'lim sohasidagi siyosatlar kiradi. Ushbu ustunning samaradorligi qonunlarning ishlab chiqilishi, qabul qilinishi va ijro etilishining shaffofligi, hisobdorligi va inklyuzivligiga bog'liq. Qonunchilik va siyosat jarayonlarida fuqarolik jamiyati, akademiklar va manfaatdor tomonlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi ustun: Davlat institutlari. Ushbu ustun ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan davlat idoralari va tashkilotlarini qamrab oladi. Bularga sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, ombudsman institutlari, inson huquqlari bo'yicha komissiyalar va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi agentliklar kiradi. Davlat institutlarining samaradorligi ularning mustaqilligi, xolisligi, professionalizmi va samaradorligi bilan belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi kurash, shaffoflikni ta'minlash va xodimlar malakasini oshirish davlat institutlarining salohiyatini mustahkamlashning muhim omillaridir.

Uchinchi ustun: Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati. Ijtimoiy adolatni ta'minlashda fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati muhim rol o'ynaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlar,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni

ommaviy axborot vositalari, akademik doiralar va fuqarolar faol bo'lishi davlatning ijtimoiy adolat sohasidagi faoliyatini kuzatib borish, qonunbuzarliklarni fosh qilish va adolatni talab qilish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyatining erkin faoliyat yuritishi, jamoatchilik fikrining hisobga olinishi va ijtimoiy dialogning rivojlanishi ushbu ustunning muhim elementlaridir. Bu uch ustunning o'zaro bog'liqligi va muvozanati ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Qonunchilik va siyosat davlat institutlarining faoliyati uchun asos bo'lsa, fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati ularning hisobdorligini ta'minlaydi. Ijtimoiy adolat sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun ushbu ustunlarning hamkorlikda ishlashi, doimiy takomillashtirilishi va zamon talablariga moslashtirilishi zarur. Shundagina davlat barqaror, fuqarolar esa farovon hayot kechirish imkoniga ega bo'ladi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining kompleksligi, ularning o'zaro aloqadorligi va doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurati, davlat boshqaruvida yangi yondashuvlarni talab etadi. Xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali qonunchilik jarayonlarini yanada shaffof va inklyuziv qilish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda samaradorlikni oshirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Elektron hukumat platformalari, onlayn maslahatlashuvlar va interaktiv ta'lim resurslari kabi vositalar ijtimoiy adolatni targ'ib qilishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy adolatni ta'minlashda global hamkorlik va xalqaro standartlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari va boshqa global tashabbuslar ijtimoiy adolat sohasida davlatlar o'rtasida tajriba almashish, ilg'or amaliyotlarni joriy etish va muammolarni birgalikda hal qilish uchun zamin yaratadi. Xalqaro hamkorlik davlatga o'z qonunchiligini va siyosatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga, shuningdek, ijtimoiy adolat sohasida xalqaro moliyaviy va texnik yordamni jalb qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash - bu doimiy davom etadigan jarayon bo'lib, u davlatdan doimiy e'tibor va resurs ajratishni talab qiladi. Ijtimoiy siyosatni rejalashtirish va amalga oshirishda dalillarga asoslangan yondashuvdan foydalanish, ijtimoiy dasturlarning ta'sirini muntazam ravishda baholash va monitoring qilish ijtimoiy adolatga erishish yo'lidagi muhim qadamlardir. Shuningdek, ijtimoiy tadqiqotlar va tahlillarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolat sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish zarur.

o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlashning mustahkam huquqiy asosini yaratgan. Konstitutsiyaning 1-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.⁵

Ijtimoiy adolatni ta'minlash davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lib, u aholining barcha qatlamlari uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu, ayniqsa, zaif va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga nisbatan alohida e'tiborni talab etadi. Nogironligi bor shaxslar, yolg'iz keksalar, ko'p bolali oilalar kabi guruhlar davlatning doimiy g'amxo'rligida bo'lishi lozim.

Ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarishda ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik sohalarining ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim sohasida barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash va munosib ish haqi to'lanadigan ish o'rinlarini yaratish orqali jamiyatning har bir a'zosi o'z potensialini ro'yobga chiqarishi va o'z hayotini yaxshilashi mumkin. Bu o'z navbatida, jamiyatda tenglik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy adolatga erishish jarayoni uzluksiz va doimiy takomillashuvni talab etadi. Ijtimoiy munosabatlar doimiy ravishda o'zgarib turishi sababli, ijtimoiy adolat prinsiplarini hayotga tatbiq etish mexanizmlari ham doimiy ravishda

⁵ o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "o'zbekiston", 2023.

takomillashtirilib borilishi kerak. Bu, ayniqsa, globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, yurtimizda ijtimoiy adolatni ta'minlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali barqaror va farovon jamiyat qurish yo'lida dadil odimlashda davom etaveramiz. Bu maqsadga erishish uchun barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va har bir fuqaro birgalikda harakat qilishi zarur.

Ijtimoiy adolat masalasida jahonda ham ko'pgina olimlar ish olib borishgan. John Rawls "Adolat nazariyasi" asarida ijtimoiy adolatning ikkita asosiy prinsipi haqida ta'limot ishlab chiqdi: birinchisi, har bir shaxs eng keng ko'lamli asosiy erkinliklarga ega bo'lishi, ikkinchisi esa ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar jamiyatning eng kam ta'minlangan a'zolarining manfaatini ko'zatish sharti bilan tashkil etilishi kerak.⁶ – deb ta'kidlaydi.

Friedrich Hayek⁷ esa Institutsionalizm nuqtai nazaridan "huquqiy tartib" va adolat munosabatini o'rgangan klassik olim hisoblanadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda davlatning roli muhim ahamiyatga ega. Aynan davlat ijtimoiy siyosatni ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi, shu bilan birga jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llaydi. Ijtimoiy himoya tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarga investitsiyalar, ishsizlikka qarshi kurash choralari – bularning barchasi ijtimoiy adolatga erishishda muhim vositalar hisoblanadi.

o'zbekistonda ham ijtimoiy adolat masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Konstitutsiyamizda har bir fuqaroning munosib turmush kechirishi, ta'lim olishi, sog'lig'ini saqlashi va bandligi kafolatlanadi. Davlat ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, pensiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha doimiy ravishda ish olib bormoqda.

Ijtimoiy adolatga erishish – bu faqat davlatning vazifasi emas. Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ham bu borada muhim rol o'ynaydi. Ular ijtimoiy muammolarni aniqlash, aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish orqali ijtimoiy adolatni mustahkamlashga hissa qo'shadilar.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy adolatga erishish – uzoq muddatli va murakkab jarayon. Bu jamiyatning barcha a'zolari o'rtasida doimiy muloqotni, o'zaro hurmatni va hamjihatlikni talab etadi. Ijtimoiy adolat mezonlari doimo rivojlanib boradi, shu sababli ijtimoiy siyosatni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur.

Bir qator olimlar ijtimoiy adolatni ta'minlovchi davlat institutlari (sud, prokuratura, adliya) va huquqiy normalar tizimini o'rganganlar. Jumladan, **H.T. Odilqoriyev** davlat institutlarining ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi funksional vazifalarini tahlil qilgan.⁸ Ijtimoiy adolat tushunchasi jamiyat a'zolarining huquq va imkoniyatlarida tenglikni, resurslarning adolatli taqsimlanishini va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishda barcha uchun bir xil sharoitlarni nazarda tutadi. Bu shunchaki nazariy tushuncha emas, balki amaliy maqsad bo'lib, unga erishish davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va har bir fuqaroning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab etadi.

Bugungi kunda, texnologik taraqqiyot va axborot oqimlarining tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir paytda, ijtimoiy adolat masalasi yangicha qirralarni kasb etmoqda. Raqamli tafovut, sun'iy intellektning rivojlanishi va mehnat bozoridagi o'zgarishlar kabi omillar ijtimoiy adolat ta'minlashda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, ijtimoiy adolatni zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish, uning yangi shakllarini ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda.

Ijtimoiy adolatga erishishning muhim sharti - bu ta'lim va bilim olish imkoniyatlarining tengligini ta'minlashdir. Har bir inson, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, irqi va boshqa omillardan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatga foyda keltiradigan

⁶ Rawls J. A Theory of Justice. Revised Edition. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 538 p

⁷ Hayek F.A. Law, Legislation and Liberty. – Routledge, 2013. – pp. 67-82

⁸ Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: Sharq, 2012. – 112-120-betlar

shaxs bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'lim ijtimoiy lift vazifasini bajarib, odamlarga ijtimoiy zinapoyadan yuqoriga ko'tarilishga va hayotda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Shunday ekan, ijtimoiy adolat - bu faqatgina davlatning vazifasi emas, balki jamiyatning har bir a'zosining mas'uliyatidir. Adolatli jamiyat qurish uchun har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz, boshqalarga nisbatan hurmat va hamdardlik ko'rsatishimiz, tenglik va adolat g'oyalarini targ'ib qilishimiz zarur. Faqat shu yo'l bilan biz chinakam adolatli va farovon jamiyatga erisha olamiz.

Ijtimoiy adolat tamoyillarini deklarativ xarakterdan real voqelikka aylantirish bevosita institutsional mexanizmlarning samarali faoliyatiga bog'liq. Ushbu mexanizm jamiyatda huquqiy tenglikni o'rnatuvchi davlat va jamoat institutlarining yaxlit tizimini ifodalaydi: Bunda birinchi, sud hokimiyati – adolatning vertikal

kafolati hisoblanadi. Sud tizimi ijtimoiy adolatni ta'minlashning oliy va yakuniy instansiyasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni qonun ustuvorligi asosida hal etish orqali "protsessual adolat" muhitini yaratishdir.

Sud mustaqilligi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi huquqiy mutanosiblikni saqlab turuvchi barqarorlashtiruvchi kuchdir. Ikkinchi, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va Ombudsman instituti davlat boshqaruvi apparati hamda fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda "tiyilish va muvozanat" (checks and balances) tamoyilini amalga oshiradi. Bu institutlar ma'muriy o'zboshimchaliklarning oldini olish orqali ijtimoiy adolatning "himoya ekрани" vazifasini o'taydi.

Uchinchi, mahalla va fuqarolik jamiyati – "pastdan yuqoriga" tamoyili mexanizmi. Ijtimoiy adolatning mikro-darajadagi ijrosi bevosita mahalla institutiga tayanadi. U ijtimoiy yordamni taqsimlashda "manzillilik" va "shaffoflik" prinsiplarini qo'llagan holda, jamiyatning zaif qatlamlarini himoya qilishning gorizontaal mexanizmini shakllantiradi. Bu institut ijtimoiy adolatning qog'ozdagi normadan real hayotiy ne'matga aylanish nuqtasidir.

To'rtinchi, Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari resurslarning (iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy) adolatsiz taqsimlanishiga qarshi kurashuvchi asosiy bo'g'indir. Korrupsiyani jilovlash orqali davlat resurslarining barcha fuqarolar uchun teng va ochiq bo'lishini ta'minlaydi, bu esa "taqsimot adolati" (distributive justice) asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik va nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki, ayniqsa nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) orqali, ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. NNTlar davlat dasturlari va siyosatining samaradorligini baholashda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlashda va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilishda faol ishtirok etishi mumkin. Ular, shuningdek, aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. NNTlar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular davlat organlarining faoliyati to'g'risida xolis va tezkor ma'lumot berish orqali shaffoflikni ta'minlaydi. OAV ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni ko'tarib chiqish, korrupsiyani fosh qilish va davlat xizmatchilarining javobgarligini oshirish orqali ijtimoiy adolatni himoya qiladi. Mustaqil va erkin OAV ijtimoiy adolatning muhim omili bo'lib, jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida muloqotni osonlashtiradi va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun platforma yaratadi.

Huquqiy mexanizmlar — bu ijtimoiy adolatni qog'ozdagi g'oyadan majburiy xulq-atvor qoidasiga aylantiruvchi normalar yig'indisidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning "Ijtimoiy davlat" deb belgilanishi barcha huquqiy mexanizmlarning o'zagini tashkil etadi. Bu davlatning ijtimoiy adolat uchun mas'uliyatini huquqiy majburiyat darajasiga ko'tardi.

Bu tushuncha faqatgina deklarativ xarakterga ega emas, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, davlatning har bir siyosati va qarorida o'z aksini topishi kerak. Ijtimoiy davlat tamoyili, avvalo, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib turmush tarzini ta'minlashga qaratiladi. Bu nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, ko'p bolali oilalar va boshqa zaif guruhlarga tegishli.

Ijtimoiy davlat – bu, shuningdek, har bir fuqaroning ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, uy-joy bilan ta'minlanish kabi asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish demakdir. Bu siyosat, o'z navbatida, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Davlatning vazifasi nafaqat mavjud resurslarni taqsimlash, balki yangi imkoniyatlar yaratishdan iborat.

O'zbekistonning "Ijtimoiy davlat" sifatida belgilanishi, shuningdek, davlatning ekologik mas'uliyatini ham nazarda tutadi. Sog'lom atrof-muhitni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash – bularning barchasi ijtimoiy davlatning muhim elementlaridir. Ekologik muammolarning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olinsa, bu mas'uliyatning ahamiyati yanada oshadi.

Yangi Konstitutsiyada bu tamoyilning mustahkamlanishi O'zbekistonning o'z rivojlanish yo'lida yangi bosqichga qadam qo'yayotganidan dalolat beradi. Endilikda davlatning barcha harakatlari inson manfaatlariga, uning farovonligiga, ijtimoiy adolat va barqarorlikka yo'naltiriladi. Bu esa jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi. Ijtimoiy davlat tamoyili O'zbekistonning kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat kodeksi (ishga joylashishda adolat), Oila kodeksi (oilaviy munosabatlarda tenglik), Soliq kodeksi (daromadlarni adolatli qayta taqsimlash) kabi hujjatlar ijtimoiy adolatning huquqiy asboblardir. Bu kodekslar jamiyat a'zolarining huquqlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat kodeksi xodimlarning ish haqi, dam olish huquqi, xavfsizlik va mehnat sharoitlari kabi sohalarda adolatli munosabatlarni o'rnatishga xizmat qiladi. Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar qonuniy asosda tartibga solinadi, bu esa ekspluatatsiya va zulmning oldini oladi. Mehnat kodeksi mehnat unumdorligini oshirish, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham hissa qo'shadi.

Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga solib, er-xotinlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi. Bu kodeks nikoh, ajralish, bolalarni tarbiyalash, aliment to'lash kabi masalalarda tenglik va adolatni ta'minlashga qaratilgan. Oila kodeksi oilaning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlash, bolalarning farovonligini himoya qilish va jamiyatning axloqiy qadriyatlarini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Soliq kodeksi davlat tomonidan soliqlarni yig'ish va ularni qayta taqsimlash tartibini belgilaydi. Soliqlar jamiyatning umumiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladi, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va infratuzilma kabi sohalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Soliq kodeksi daromadlarni adolatli qayta taqsimlash orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, kambag'allikni bartaraf etish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Adolatli soliq tizimi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va davlatning barqaror moliyaviy holatini ta'minlashi mumkin.

Ushbu huquqiy asboblarda jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish va ta'minlash uchun muhim vosita bo'lib, ular amalga oshirilayotgan siyosat va dasturlarning asosi hisoblanadi. Ijtimoiy adolatga erishish jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va har bir insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon yaratishga yordam beradi. Shu sababli, bu kodekslarning qoidalari jamiyat tomonidan hurmat qilinishi va so'zsiz amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina biz adolatli va farovon jamiyat qurishimiz mumkin.

Adolat faqat moddiy qonunda emas, balki uni qo'llash jarayonida ham bo'lishi kerak (masalan, sud jarayonlarining ochiqligi va tortishuv tamoyili).

Adolat tushunchasi qadim-qadim zamonlardan beri insoniyatni o'ylantirib kelgan abadiy mavzulardan biridir. U nafaqat falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida, balki jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, huquqiy tizimda ham muhim ahamiyatga ega. Adolatli jamiyat qurish, adolatli qarorlar qabul qilish – har bir davlatning, har bir fuqaroning oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Huquqiy adolat esa, bu maqsadga erishishning muhim vositalaridan biridir.

Huquqiy adolatning mohiyatini tushunish uchun avvalo "adolat" tushunchasining o'ziga murojaat qilish lozim. Adolat – bu har bir insonga unga tegishli bo'lgan narsani berish, har bir insonni o'z haqqi bilan ta'minlash demakdir. Huquqiy adolat esa, bu adolatning huquq sohasidagi ko'rinishi bo'lib, u qonun ustuvorligini, barcha qonun oldida tengligini, inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishini nazarda tutadi.

Ammo adolat faqatgina qonunlarning mazmunida emas, balki ularning qo'llanilish jarayonida ham namoyon bo'lishi kerak. Ya'ni, qonunlar adolatli bo'lishi bilan birga, ularni hayotga tatbiq etish, ularga rioya qilish ham adolat mezonlariga mos kelishi zarur. Bu, o'z navbatida, sud jarayonlarining ochiqligi, tortishuv tamoyilining ta'minlanishi, advokatlarning faoliyati uchun sharoit yaratilishi, guvohlarning xavfsizligini kafolatlash kabi bir qator muhim omillarga bog'liq.

Sud jarayonlarining ochiqligi adolatning muhim shartlaridan biridir. Ochiq sud majlislari xolislik va shaffoflikni ta'minlaydi, sudning faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Tortishuv tamoyili esa, har bir tomonning o'z pozitsiyasini erkin himoya qilish, dalillarni taqdim etish, qarshi dalillarni rad etish huquqini kafolatlaydi. Bu, o'z navbatida, sudga ishning haqiqiy holatini aniqlashga, adolatli qaror qabul qilishga yordam beradi. Advokatlarning faoliyati uchun sharoit yaratish ham huquqiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Advokatlar o'z mijozlarining huquqlarini himoya qilish, ularga yuridik yordam ko'rsatish orqali adolatning qaror topishiga hissa qo'shadi. Guvohlarning xavfsizligini kafolatlash esa, ularning qo'rquv va tazyiq ostida emas, balki xolis guvohlik berishlarini ta'minlaydi.

Shunday qilib, adolat faqat moddiy qonunda emas, balki uni qo'llash jarayonida ham bo'lishi kerak. Bu – adolatli jamiyat qurish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Huquqiy adolatni ta'minlash – nafaqat huquqshunoslarning, balki butun jamiyatning vazifasidir. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali biz adolatli jamiyat qurishga erisha olamiz.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli ham muhim ahamiyatga ega. Ular qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, shuningdek, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu o'rinda prokuratura, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning faoliyati alohida o'rin tutadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda fuqarolik jamiyatining ishtiroki ham muhim. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar), ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik nazorati institutlari va boshqa fuqarolik jamiyati sub'ektlari jamiyatda adolat mezonlarini targ'ib qilish, huquqiy madaniyatni oshirish, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonlarida ishtirok etish orqali muhim rol o'ynaydi. Ular ijtimoiy adolat buzilishining oldini olish, huquqlarni himoya qilish va muammolarni hal qilishga ko'maklashadi.

Huquqiy ta'lim va huquqiy ongni oshirish ham ijtimoiy adolatni mustahkamlashning muhim omilidir. Jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish, ularga o'z huquq va majburiyatlarini tushuntirish, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishga erishish mumkin. Bu borada ta'lim muassasalari, huquqshunoslar, ommaviy axborot vositalari va boshqa manfaatdor tomonlar hamkorlikda faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Nihoyat, xalqaro hamkorlik ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va uning ixtisoslashgan muassasalari, Yevropa Ittifoqi (YeI) va boshqa mintaqaviy tashkilotlar ijtimoiy adolat sohasida global standartlar ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi. O'zbekistonning

xalqaro huquq normalariga rioya qilishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha milliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolatni ta'minlashda institutsional va huquqiy mexanizmlarning roli beqiyosdir. Qonunchilik va siyosat, davlat institutlari, fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati o'rtasidagi muvozanatni saqlash, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, global hamkorlikni rivojlantirish va doimiy ravishda o'rganish va takomillashtirishga intilishgina davlatning barqarorligini va fuqarolarning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning har bir a'zosi o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va to'laqonli hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash – har bir zamon va makonning dolzarb masalasi. Uning samarali hal etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning farovonligi va davlatning qudrati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy resurslarni adolatli taqsimlashni, balki inson huquqlarini himoya qilish, teng imkoniyatlar yaratish va barcha ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini hisobga olishni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy adolatga erishishda institutsional va huquqiy mexanizmlarning roli beqiyosdir.

Institutsional mexanizmlar deganda, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tuzilmalarning ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Bu mexanizmlar orqali ijtimoiy siyosat ishlab chiqiladi, dasturlar amalga oshiriladi, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi va adolat buzilishiga qarshi kurash olib boriladi. Masalan, ta'lim sohasida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat dasturlari, sog'liqni saqlash sohasida aholining barcha qatlami uchun tibbiy xizmatlarning qulayligini ta'minlash, ijtimoiy himoya sohasida kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish kabi chora-tadbirlar institutsional mexanizmlarning yorqin namunasidir. Ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslarni to'g'ri taqsimlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bilan belgilanadi.

Huquqiy mexanizmlar esa ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy huquqiy bazasini tashkil etadi. Ular qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va sud tizimi orqali amalga oshiriladi. Qonunlar barcha fuqarolar uchun teng huquq va erkinliklarni kafolatlaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va adolat buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Sud tizimi esa qonunlarning buzilish holatlarini ko'rib chiqadi va aybdorlarni javobgarlikka tortadi. Huquqiy mexanizmlarning samaradorligi qonunlarning adolatliligi, ularning barcha uchun bir xil qo'llanilishi va sud tizimining mustaqilligi bilan belgilanadi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish, aholining o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda institutsional va huquqiy mexanizmlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi elementlardir. Huquqiy mexanizmlar adolatning mezonini chizib beradi, institutsional mexanizmlar esa ushbu chiziqlar ichida jamiyat hayotini barpo etadi. Agar huquqiy mexanizmlar adolat talablariga javob bermasa, institutsional mexanizmlar ham samarali ishlay olmaydi. Aksincha, agar institutsional mexanizmlar zaif bo'lsa, huquqiy mexanizmlarning qo'llanilishi qiyinlashadi va adolatga erishish imkoniyati cheklanadi. Shuning uchun, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun har ikki mexanizmni bir vaqtda rivojlantirish va ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash zarur. Bu esa davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashda institutsional va huquqiy mexanizmlarning dialektik birligi shundaki, huquqiy mexanizmlar adolatning mezonini chizib beradi, institutsional mexanizmlar esa ushbu chiziqlar ichida jamiyat hayotini barpo etadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash — bu dinamik jarayon bo'lib, u huquqiy normalar, mustaqil institutlar va faol fuqarolik jamiyati hamkorligini talab etadi. Faqatgina ushbu mexanizmlarning kompleks va doimiy takomillashuvi orqali "Inson qadri uchun" tamoyilini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin.

Yuqoridagi mexanizmlarning hammasi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Ularning kompleks va doimiy takomillashuvi orqali "Inson qadri uchun" tamoyilini to'liq ro'yobga

chiqarish mumkin. Bu tamoyil har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, ularning asosiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatini yaratishni nazarda tutadi. Ijtimoiy adolat – bu insonparvarlik jamiyatining asosi bo'lib, unga erishish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022 — 2026 YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "o'zbekiston", 2023.
3. Rawls J. A Theory of Justice. Revised Edition. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 538 p
4. Hayek F.A. Law, Legislation and Liberty. – Routledge, 2013. – pp. 67-82
5. Dworkin R. Justice for Hedgehogs. — Cambridge: Harvard University Press, 2011.
6. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: Sharq, 2012. – 112-120-betlar
7. Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi. — Toshkent: Adolat, 2020.
8. Mustafoyev B.X. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. — Toshkent, 2019.

TURKIYA O'RTA TA'LIMIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MODELLARI

Temirova Mohiniso To'lqin qizi, BuxDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(huquq ta'limi) 1-bosqich magistranti
mohinisotemirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiya o'rta ta'limida huquqiy madaniyatni rivojlantirishning turli pedagogik modellarini tahlil qiladi. Maqolada huquqiy madaniyat tushunchasi, uning yosh avlod ongida shakllanishi va o'rta ta'lim jarayonidagi roli ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida Turkiya maktablarida qo'llanilayotgan interfaol, loyiha asosidagi va muhokama usullari, dars dasturlari va amaliy faoliyatlar tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholangan. Natijalar Turkiya tajribasi orqali o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish va faol fuqarolikni rag'batlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni aniqlash imkonini beradi. Maqola ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga oid ilmiy tavsiyalarni ham beradi.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, o'rta ta'lim, fuqarolik ta'limi, inson huquqlari, Turkiya, model

МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ТУРЦИИ

Темирова Мохинисо Толкин кизи, Студентка 1-го курса магистратуры ВухDPI по специальности Методология преподавания социальных и гуманитарных наук
(юридическое образование)
mohinisotemirova@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются различные педагогические модели формирования правовой культуры в системе среднего образования Турции. В работе научно рассматриваются понятие правовой культуры, её формирование в сознании молодого поколения и роль в образовательном процессе. В исследовании проанализированы интерактивные, проектные и дискуссионные методы, учебные программы и практическая деятельность, применяемые в турецких школах, а также оценена их эффективность. Результаты позволяют определить эффективные стратегии формирования правового сознания и стимулирования активной гражданской позиции среди учащихся на основе турецкого опыта. Статья содержит рекомендации для образовательной политики и педагогической практики по развитию правовой культуры.

Ключевые слова: правовая культура, среднее образование, гражданское образование, права человека, Турция, модел

MODELS FOR DEVELOPING LEGAL CULTURE IN TURKEY'S SECONDARY EDUCATION

Temirova Mohiniso To'lqin qizi, 1st year master's student of BuxDPI, Methodology of Teaching Social and Humanities (Legal Education)
mohinisotemirova@gmail.com

Annotation: This article analyzes various pedagogical models for developing legal culture in Turkey's secondary education system. It provides a scholarly examination of the concept of legal culture, its formation in the consciousness of young generations, and its role in the educational process. The study reviews interactive, project-based, and debate-centered teaching methods, curricula, and practical activities implemented in Turkish schools and evaluates their effectiveness. The findings provide insights into effective strategies for cultivating legal awareness and promoting active citizenship among students based on Turkey's experience. The article also offers recommendations for education policy and pedagogical practice in fostering legal culture.

Keywords: legal culture, secondary education, citizenship education, human rights, Turkey, model

KIRISH

Huquqiy madaniyat – bu jamiyat a’zolarining huquqiy tushunchalar, qadriyatlar va qoidalarga bo’lgan ongli munosabati bo’lib, u nafaqat shaxsning shaxsiy xulq-atvorida, balki jamiyatning ijtimoiy va siyosiy barqarorligida ham muhim rol o’ynaydi. Yosh avlodning huquqiy madaniyati esa uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi, chunki u shaxsning fuqarolik mas’uliyati, adolatga hurmat, inson huquqlarini hurmat qilish va demokratik qadriyatlarga sodiqlikni shakllantiradi. Shu boisdan, o’rta ta’lim bosqichida huquqiy madaniyatni rivojlantirish o’quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy huquqiy ko’nikmalarni ham egallash imkonini beradi.

Turkiya ta’lim tizimida huquqiy madaniyat mavzusi ko’plab fanlar, jumladan, “Inson huquqlari, fuqarolik va demokratiya” darsi orqali o’quv dasturiga integratsiya qilingan. Ushbu dastur bolalarda huquqiy ongini shakllantirish, tenglik, adolat, erkinlik va mas’uliyat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, Turkiyada huquqiy madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari turli pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi: interfaol metodlar, loyiha ishlari, guruh muhokamalari va simulyatsiyalar bolalarda huquqiy fikrlashni rag’batlantiradi.

TADQIQOT OBYEKTI

Turkiya o’rta ta’limida huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bo’lib, bu jarayon o’quvchilarning huquqiy tushunchalari, qadriyatlari va qonuniy me’yorlarga bo’lgan munosabatini o’rganishga qaratilgan. Ushbu jarayon o’rta ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan pedagogik yondashuvlar, o’quv dasturlari, dars metodlari va amaliy faoliyatlarni o’z ichiga oladi. Tadqiqot obyekti sifatida o’quvchilarning huquqiy ongini shakllantirish, fuqarolik mas’uliyati, inson huquqlariga hurmat va demokratik qadriyatlarga sodiqlik kabi ko’rsatkichlar ham o’rganiladi. Shuningdek, tadqiqot obyekti Turkiya maktablarida qo’llanilayotgan interfaol, loyiha asosidagi, guruh muhokamasi va simulyatsiya metodlari orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini qamrab oladi. Bu jarayon pedagogik tizim, o’qituvchining metodik yondashuvi va o’quvchining faol ishtiroki o’rtasidagi o’zaro ta’sirlarni tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotning obyekti bilan birga u o’quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning samaradorligi, metodlarning afzalliklari va cheklavlarini aniqlashga ham yo’naltirilgan. Ushbu ob’ekt ilmiy jihatdan Turkiya o’rta ta’limining huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo’yicha amaliyoti va pedagogik strategiyalarini tahlil qilish, shuningdek, olingan natijalarni ta’lim siyosati va pedagogik amaliyotga integratsiya qilish imkonini beradi. Tadqiqot obyekti – bu o’quv jarayonining markazida joylashgan huquqiy ongini shakllantirish va uni qo’llab-quvvatlovchi pedagogik modellar tizimidir.

QO’LLANILGAN METODLAR

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlarning integratsiyalangan metodikasi qo’llanildi. Sifatli tadqiqot metodlari pedagogik jarayonning sifat jihatlarini aniqlashga, o’quvchilarning huquqiy ongini shakllantirish jarayonidagi metodlarning samaradorligini chuqur tushunishga imkon berdi. Shu maqsadda Turkiyaning ta’lim sohasiga oid qabul qilinga normativ-huquqiy hujjatlar, maktablaridagi dars dasturlari, metodik qo’llanmalar tahlil qilindi. Ular orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo’yicha metodik yondashuvlar va darslarda qo’llanilayotgan pedagogik strategiyalar o’rganildi.

Tadqiqot davomida qo’llanilgan interfaol metodlar – guruh muhokamalari, simulyatsiya mashqlari va loyiha ishlari o’quvchilarda huquqiy fikrlashni rag’batlantirish va amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga qaratildi. Shu bilan birga, metodlarning samaradorligi o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishi, muhokamada faol qatnashishi va huquqiy masalalarni tahlil qilish ko’nikmalari orqali baholandi.

Natijada, qo’llanilgan metodlar kompleks yondashuvni tashkil etib, Turkiya o’rta

ta'limida huquqiy madaniyatni rivojlantirishning amaliy va nazariy jihatlarini aniqlashga imkon berdi. Ushbu metodik kombinatsiya nafaqat dars jarayonining samaradorligini o'lchashga, balki o'quvchilarda huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Turkiyada ta'limning asosiy huquqiy poydevori bu Turkiya konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 42-moddasi aynan ta'lim sohasiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu moddada quyidagi normalarni ko'rish mumkin:” Hech kim ta'lim va o'qish huquqidan mahrum qilinmasligi kerak.

Ta'lim olish huquqining doirasi qonun bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

Ta'lim va o'qitish davlat nazorati va nazorati ostida, Otaturk tamoyillari va islohotlariga muvofiq hamda zamonaviy ilmiy va ta'lim tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.”[1:39] Ta'lim olish huquqining asosiy qonunda belgilab qo'yilishi bu sohaning davlat siyosatining asosiy qismi ekanligini isbotlaydi.

Boshlang'ich ta'lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o'qitiladi. Majburiy ta'limdan so'ng, uning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta'minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan.

Ta'lim muassasalarida faqat o'quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o'rgatish mumkin emas.

Turkiyada 12 yillik majburiy ta'lim belgilangan bo'lib, ta'lim maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, quyi o'rta ta'lim, yuqori o'rta ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy va texnik ta'lim kabi bosqichlarga bo'linadi. Turkiyada ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat bu “Milliy ta'lim tamal qonuni” hisoblanib, u ta'lim bosqichlari, ta'limning maqsadi va vazifalari, o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish va pedagoglar masalalarini o'z ichiga oladi. “Milliy ta'lim tamal qonuni”ning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Har bir turk bolasini yaxshi fuqaro bo'lish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma, xulq-atvor va odatlar bilan qurollantirish va ularni milliy axloqiy tushunchaga muvofiq tarbiyalash.[2:5105].
- Otaturkning islohotlari va tamoyillariga hamda Konstitutsiyada ifodalangan Otaturk millatparvarligiga sodiq bo'ladigan, turk millatining milliy, axloqiy, insoniy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini qabul qiladigan, himoya qilgan va rivojlantiradigan, oilasini, vatanini va millatini sevgan va ularni doimo ulug'lashga intiladigan hamda inson huquqlari va Konstitutsiyaning muqaddimasidagi asosiy tamoyillarga asoslangan demokratik, dunyoviy va ijtimoiy davlat bo'lgan Turkiya Respublikasi oldidagi burch va mas'uliyatlarini bilgan va amalda qo'llaydigan fuqarolarni tarbiyalash.2
- Tana, ong, axloq, ruh va hissiyotlar jihatidan muvozanatli va sog'lom, erkin va ilmiy fikrlash qobiliyatiga ega, keng dunyoqarashga ega, inson huquqlarini hurmat qiladigan, shaxsiyat va tashabbusni qadrlaydigan, jamiyat oldida mas'uliyatni his qiladigan; konstruktiv, ijodiy va samarali shaxslarni tarbiyalash.[3:2]

“Milliy ta'lim tamal qonuni”ning asosiy tamoyillaridan bir bu demokratiya tamoyili bo'lib, unda kuchli, barqaror, erkin va demokratik ijtimoiy tartibni amalga oshirish va davom ettirishni ta'minlash uchun barcha ta'lim faoliyati orqali o'quvchilarda demokratiya tuyg'usini, milliy boshqaruv bilan bog'liq bilim, tushuncha va xulq-atvorni, mas'uliyat hissini va axloqiy qadriyatlarga hurmatni singdirish va rivojlantirishga harakat qilinadi - bularning barchasi fuqarolar uchun zarur ekanligi belgilab qo'yilgan.[2:5103]

Turkiya boshlang'ich va yuqori o'rta ta'limida huquqiy bilim beruvchi bir nechta fanlar mavjud. Ulardan ba'zilar mustaqil fan sifatida o'tilsa, ba'zilar boshqa fanlar tarkibida joy olib o'quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Inson huquqlari, fuqarolik va demokratiya” fani Turkiya boshlang'ich ta'limning 4-sinfida

o'qitiladigan muhim fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan dasturi Milliy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va umumiy o'quv rejasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Mazkur darsning asosiy maqsadi o'quvchilarda inson huquqlari, fuqarolik mas'uliyati va demokratik qadriyatlar to'g'risida boshlang'ich tasavvurlarni shakllantirish, ularni ongli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Dars jarayonida bolalarga inson sifatida qadriyatga egalik, tenglik, adolat, hurmat, erkinlik va mas'uliyat tushunchalari sodda va hayotiy misollar asosida tushuntiriladi.

Mazkur fan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, unda murakkab huquqiy terminologiyadan ko'ra kundalik hayot bilan bog'liq tushunchalarga ko'proq e'tibor qaratiladi. O'quvchilar dastlab inson bo'lishning ahamiyati, har bir shaxsning qadriyat va huquqlari borligi haqida bilim oladilar. Inson huquqlari tushunchasi orqali bolalarga har bir inson tug'ilganidan boshlab ma'lum huquqlarga egaligi, bu huquqlar millati, dini, jinsi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha uchun teng ekanligi tushuntiriladi. Shu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar bolalar huquqlari deganda ta'lim olish, sog'liqni saqlash, himoya va fikr bildirish huquqi kabi asosiy huquqlarni anglab yetadilar. Dars davomida adolat va tenglik tushunchalariga alohida e'tibor qaratiladi. Adolat tushunchasi bolalarga kundalik hayotdagi oddiy vaziyatlar orqali tushuntiriladi. Masalan, sinfda navbatni saqlash, o'yin paytida qoidalarga rioya qilish yoki baholash jarayonida xolislikni ta'minlash kabi misollar orqali adolatning ahamiyati ochib beriladi. Tenglik tushunchasi esa har bir o'quvchining bir xil huquqlarga ega ekanligi, hech kimning kamsitilmasligi, hamma uchun bir xil imkoniyatlar yaratilishi zarurligi bilan izohlanadi. Shu orqali bolalarda diskriminatsiyaga qarshi munosabat va hurmat tuyg'usi shakllantiriladi.

Mazkur fan doirasida demokratiya tushunchasi ham sodda va tushunarli shaklda bayon etiladi. Demokratiya xalq boshqaruvi ekanligi, qarorlar ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi, biroq ozchilik fikrining ham hurmat qilinishi zarurligi bolalarga misollar orqali tushuntiriladi. Masalan, sinf sardorini saylash jarayoni yoki umumiy qaror qabul qilishda ovoz berish amaliyoti orqali demokratik jarayon modeli ko'rsatiladi. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat ovoz berish, balki boshqalarning fikrini tinglash, murosaga kelish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham egallaydilar. Fuqarolik tushunchasi mazkur darsning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarga fuqarolik nafaqat huquqlardan foydalanish, balki ma'lum burch va mas'uliyatlarni bajarish ekanligi tushuntiriladi. Maktab ichki qoidalariga rioya qilish, atrof-muhitni asrash, o'qituvchi va tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish fuqarolik mas'uliyatining oddiy ko'rinishlari sifatida talqin qilinadi. Shu orqali bolalarda huquq va burch o'rtasidagi muvozanat tushunchasi shakllanadi. Ya'ni, har bir huquq ma'lum mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq ekanligi ongli ravishda anglatiladi.

Darsning o'qitilish metodikasi an'anaviy ma'ruza uslubiga emas, balki interfaol yondashuvlarga asoslanadi. Rol o'ynash, sahnalashtirish, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi metodlar keng qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar adolat mavzusini o'rganishda turli vaziyatlarni sahnalashtiradilar va qaysi qaror adolatli yoki adolatsiz ekanini muhokama qiladilar. Bu usullar orqali bolalar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Shu bilan birga, bahs-munozaralar orqali fikr bildirish, dalil keltirish va boshqalarni tinglash madaniyati shakllanadi.

Baholash tizimi ham jarayonga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning faolligi, ishtiroki va ijtimoiy xulq-atvori e'tiborga olinadi. An'anaviy yozma imtihonlardan ko'ra loyiha ishlari, ijodiy topshiriqlar va kuzatuv asosidagi baholash ustuvor hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarga "Mening huquqlarim va burchlarim" mavzusida kichik loyiha tayyorlash yoki sinf ichki qoidalarini ishlab chiqish vazifasi berilishi mumkin. Bu esa ularning mustaqil fikrlash va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur fan bolalarda empatiya, bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli fikr va qarashlarga hurmat bilan yondashish, kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, jamoada ishlash kabi ijtimoiy

kompetensiyalar mustahkamlanadi. Ayniqsa, kichik yosh davrida demokratik qadriyatlarni singdirish kelgusida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mustahkam shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, mazkur fan o'quvchilarning keyingi bosqichlarda o'rganiladigan fuqarolik, huquq va ijtimoiy fanlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. 4-sinfda olingan dastlabki bilim va tasavvurlar yuqori sinflarda yanada kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Shu ma'noda, "Inson huquqlari, fuqarolik va demokratiya" darsi nafaqat alohida fan, balki uzluksiz huquqiy ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiya maktablarida o'rta ta'limning 10-11-sinlarda o'qitiladigan Falsafa fani muhim ijtimoiy fanlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritish va asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu dars dasturi Millî Egitim Bakanligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, barcha turdagi litsey va gimnaziyalarda haftalik dars soatlariga mos ravishda amalga oshiriladi. Darsning asosiy maqsadi o'quvchilarda nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, tushunchalarni tahlil qilish va turli qarashlarni solishtira bilish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. 10-sinf falsafa faning Siyosat felsefasi bo'limi doirasida o'quvchilar siyosat va huquq bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi. Unda davlat, adolat, huquq, erkinlik va tenglik tushunchalari o'rganiladi. "Davlat nega mavjud?", "Adolat nima?" va "Shaxsmi, jamiyatmi ustun?" kabi savollar orqali turli siyosiy qarashlar solishtiriladi. Demokratiya, huquqiy davlat va inson huquqlari kabi tushunchalar asosda muhokama qilinadi.

11-sinf Falsafa fanining falsafa va huquq bo'limining asosiy maqsadi – o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, adolat, erkinlik va tenglik kabi tushunchalarni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Dars jarayonida huquqning mohiyati, uning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni, axloq va huquq o'rtasidagi bog'liqlik masalalari muhokama qilinadi. O'quvchilar "Huquq nima?", "Adolat qanday ta'minlanadi?", "Qonun va axloq o'rtasidagi farq nimada?" kabi savollar ustida fikr yuritadilar. Bo'limda tabiiy huquq nazariyasi va pozitiv huquq yondashuvi kabi asosiy falsafiy konsepsiyalar tushuntiriladi. Tabiiy huquq nazariyasiga ko'ra, inson huquqlari tug'ma va ajralmasdir, ular inson tabiatidan kelib chiqadi. Pozitiv huquq esa davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar tizimi sifatida talqin etiladi. O'quvchilar ushbu ikki yondashuvni taqqoslab, ularning afzallik va cheklovlarini baholashni o'rganadilar. Shuningdek, adolat tushunchasi tarixiy-falsafiy kontekstda ko'rib chiqiladi. Masalan, Platon adolatni jamiyatdagi uyg'unlik sifatida talqin qilgan bo'lsa, Aristotel uni tenglik va taqsimlovchi adolat bilan bog'lagan. Zamonaviy davrda esa John Rawls adolatni "adolatli jamiyat" tamoyili orqali asoslab, imkoniyatlar tengligi g'oyasini ilgari surgan. Bu yondashuvlar o'quvchilarga huquqiy me'yorlarning nazariy asoslarini tushunishga yordam beradi. Darslarda inson huquqlari va demokratiya tushunchalari ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar huquqiy davlat, qonun ustuvorligi va fuqaroning huquq hamda burchlari haqida bilim oladilar. Bahs-munozara, matn tahlili va vaziyatli topshiriqlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, 11-sinf falsafa fanining "falsafa va huquq" bo'limi o'quvchilarga huquqiy tushunchalarni faqat normativ emas, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy kontekstda anglash imkonini beradi. Bu esa ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, demokratik qadriyatlarga hurmat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Turkiya o'rta ta'limida huquqiy madaniyatni rivojlantirish modellari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon tizimli davlat siyosati va kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan. 2012 yildan buyon amalda bo'lgan 4+4+4 tuzilmasi doirasida umumiy majburiy 12 yillik ta'lim modeli huquqiy va fuqarolik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini yaratdi. O'quv dasturlari Milliy ta'lim vazirligi tomonidan markazlashgan holda ishlab chiqilib, inson huquqlari, demokratiya, konstitutsiyaviy tamoyillar va faol fuqarolik masalalari integratsiyalashgan holda o'qitiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyatni shakllantirish samaradorligi an'anaviy normativ o'qitishdan ko'ra interfaol va kompetensiyaga yo'naltirilgan metodlar orqali yuqoriroq natija beradi. Xususan, bahs-munozara, vaziyatli tahlil

(case study), loyiha ishlari va simulyatsiya usullari o'quvchilarning huquqiy fikrlash, dalillash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv konstruktivistik pedagogika tamoyillariga mos kelib, o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qiyosiy pedagogika, Qurbonova O'lmas Usmonovna, o'quv qo'llanma, Buxoro, 2013;
2. TÜRKİYE CUMHURİYETİ ANAYASASI, TBMM Basımevi, Ankara, 2020;
3. MİLLÎ EĞİTİM TEMEL KANUNU, 24/6/1973.yıl;
4. TÜRK MİLLÎ EĞİTİM SİSTEMİ, TÜRKİYE YÜZYILI MAARİF MODELİ, 2025, Ankara;
5. <https://tymm.meb.gov.tr/>;
5. <https://www.meb.gov.tr/>.

О‘ЗБЕКИСТОНДА FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Xoliqova Marjona Husniddinovna,

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich magistranti.

khalikovamarjona03@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning demokratik islohotlardagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va mahalla institutining jamiyat hayotidagi o‘rni tizimli yondashuv asosida o‘rganilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari mustahkamlangani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati va fuqarolik faolligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachilik roli kuchayib borayotgani asoslanadi hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy sheriklik, demokratik islohotlar, huquqiy davlat, fuqarolik faolligi, mahalla instituti, ommaviy axborot vositalari, konstitutsiyaviy islohotlar.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУЦИЙ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Холикова Марджона Гусниддиновна,

Студентка 1 курса магистратуры Бухарского государственного педагогического института.

khalikovamarjona03@gmail.com

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ формирования и этапов развития институтов гражданского общества в Узбекистане и их роли в демократических реформах. Исследование системным подходом изучает роль неправительственных некоммерческих организаций, общественных объединений, политических партий, средств массовой информации и институтов махалла в общественной жизни. Показано, что правовая база институтов гражданского общества укрепилась в рамках новой Конституции Республики Узбекистан. Также анализируются механизмы усиления социального партнерства, общественного контроля и гражданской активности. В результате исследования обосновывается возрастающая роль институтов гражданского общества как посредников между государством и обществом и разрабатываются практические предложения по их развитию.

Ключевые слова: гражданское общество, неправительственные некоммерческие организации, общественный контроль, социальное партнерство, демократические реформы, верховенство права, гражданская активность, институты махалла, средства массовой информации, конституционные реформы.

ROLE AND IMPORTANCE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Kholikova Marjona Husniddinovna,

1st year master's student at the Bukhara State Pedagogical Institute.

khalikovamarjona03@gmail.com

Abstract: This article scientifically analyzes the formation, stages of development of civil society institutions in Uzbekistan, and their role in democratic reforms. The study studies the role of non-governmental non-profit organizations, public associations, political parties, mass media, and the mahalla institute in public life based on a systematic approach. It shows that the legal

framework of civil society institutions has been strengthened within the framework of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan. It also analyzes the mechanisms for increasing social partnership, public control, and civic activity. As a result of the study, the increasing role of civil society institutions as mediators between the state and society is substantiated, and practical proposals for their development are developed.

Keywords. Civil society, non-governmental non-profit organizations, public control, social partnership, democratic reforms, the rule of law, civic activity, mahalla institute, mass media, constitutional reforms.

Kirish. Globallashuv sharoitida demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasi har bir mamlakat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishiga aylanmoqda. Fuqarolik jamiyati davlatdan nisbatan mustaqil boʻlgan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga asoslangan, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi institutlar majmuasini anglatadi. U jamiyat va davlat oʻrtasida vositachilik vazifasini bajarib, ijtimoiy muvozanatni taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratildi. Ayniqsa, soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar doirasida fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Xususan, yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillari yanada kuchaytirildi.[1]

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi Oʻzbekiston” taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini qoʻllab-quvvatlash, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kengaytirish hamda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.[2]

Mazkur maqolaning maqsadi Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kompleks ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlari tizimi tanlandi. Unga nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari hamda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari kiradi.

Tadqiqot predmeti esa mazkur institutlarning jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini taʼminlashdagi roli va ahamiyatidan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol ishtirok etmoqda. Bu institutlarning asosiy vazifasi - fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish, ijtimoiy adolatni taʼminlash hamda hukumat siyosatini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishdan iborat. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimiga nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari (OAV), fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va kasaba uyushmalari kiradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samarali mexanizmi qonuniy-huquqiy kafolatlar orqali taʼminlanadi. Xususan, yangi tahrirdagi konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi kiritilib, ularning davlat boshqaruvida ishtiroki huquqiy asosda mustahkamlanyapti. Shuningdek, loyihalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash uchun davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar tizimi joriy qilingan. Bu mexanizm orqali ijtimoiy loyihalar manzilli ravishda amalga oshiriladi hamda byurokratik toʻsiqlar kamayadi.

NNTlar Oʻzbekiston ijtimoiy maydonida samarali mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ular ekologiya, inson huquqlari, nogironligi boʻlgan shaxslar himoyasi, gender tenglik va yoshlar siyosati kabi yoʻnalishlarda faoliyat yuritadi. NNTlar faoliyati qonuniy asoslar bilan taʼminlangan boʻlib, ular davlat grantlari, xalqaro fondlar hamda ijtimoiy buyurtmalar orqali

moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Bu mexanizm NNTlarning ijtimoiy sheriklik rolini mustahkamlab, jamiyat ehtiyojlarini qondirishda davlat organlari bilan hamkorlikni kuchaytiradi.

Mahalla institutining o'rni fuqarolik jamiyatining noyob shakllaridan biridir. Mahalla organlari aholining ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlashda, ijtimoiy himoya choralarini amalga oshirishda, shuningdek, jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim vositadir. Mahalla institutining faoliyati fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi vositachilik vazifasini bajardi va jamoat hayotidagi ijtimoiy dialogni kuchaytiradi.

Mahalla 1990-yillardan boshlab an'anaviy jamoa boshqaruvi sifatida o'z funksiyalarini bajargan bo'lsa, so'nggi yillarda uning roli ijtimoiy himoya, profilaktika, jamiyat barqarorligi va bandlikni ta'minlash kabi kompleks funksiyalar bilan boyitildi. Mahalla organlari hududiy aholining dolzarb muammolarini aniqlab, ularni joyida hal etishda vositachilik qiladi, jamiyat bilan davlat organlari o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun yo'nalishlar ishlab chiqadi.[3]

Jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining demokratik mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy partiyalar saylov kampaniyalari, ijtimoiy siyosat bo'yicha dasturlar hamda fuqarolarning hukumat siyosatiga ta'sirini oshirish orqali demokratik institutlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ular o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan tashabbuslar, qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir va jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali siyosiy ishtirokchanlikni rag'batlantiradi.

Ommaviy axborot vositalari ham fuqarolik jamiyatining asosi sifatida faol ishtirok etadi. Xususiy va nodavlat OAVlar axborot almashish, jamoatchilik munozaralarini shakllantirish, davlat organlari faoliyatini ochiqlik tamoyili asosida yoritishda muhim rol o'ynaydi. Internet jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi, bu esa jamiyatning huquqiy xabardorligini oshiradi.

Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining vizual mexanizmi bo'lib, u jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritadi, jamoatchilik muhokamalarini jonlantiradi va davlat organlari faoliyatini ochiqlik tamoyili asosida baholash imkonini yaratadi. Bugungi kunda jurnalistika, bloggerlik, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy axborot vositalari fuqarolik faolligini oshirishda muhim vositaga aylangan.

Kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlar ham fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga kiradi. Ular mehnat huquqlarini himoya qilish, ish sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu institutlar demokratik institutlar bilan o'zaro ta'sir orqali ijtimoiy kelishuvlarni kuchaytiradi.[4]

Fuqarolik jamiyati institutlarining samarali ishlashi bir qator mexanizmlar orqali ta'minlanadi.

Birinchidan, normativ-huquqiy mexanizm mavjud bo'lib, unda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi mustahkamlanadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy mexanizmlar, OAV va jamoat nazorati institutlari uchun kafolatlangan erkinliklar, shaffoflik tamoyillari fuqarolik jamiyatining hokimiyat organlaridan mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik mexanizmi jarayonida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida doimiy muloqot yo'lga qo'yiladi. Masalan, ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlar davlat siyosati shakllanishida ishtirok etadi, jamoat kengashlari orqali mahalliy muammolar bo'yicha yechimlar ishlab chiqiladi.

Uchinchidan, jamoatchilik nazorati mexanizmi amalda tatbiq etilmoqda. Bu mexanizm orqali fuqarolar va fuqarolik institutlari davlat organlarining strategiyalarini baholaydi, byudjet jarayonlarida ishtirok etadi va ijtimoiy xizmatlar sifati bo'yicha monitoring olib boradi. Raqamli platformalar (elektron murojaatlar, ochiq ma'lumotlar tizimi) esa jamoatchilik nazoratini yanada samarali qiladi.[5]

Shuningdek, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlashga doir ta'lim-tarbiya mexanizmlari shakllanmoqda. Huquqiy savodxonlik, ijtimoiy faollik bo'yicha seminar va treninglar orqali

fuqarolarning huquqiy ongi va ijtimoiy faolligi oshiriladi.

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati institutlari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ularning faoliyati demokratik boshqaruv tizimini mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda markaziy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, institutlarning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy barqarorlik, huquqiy madaniyatni kuchaytirish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish zarurlari mavjud.

Alohida e'tibor fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan Mahalla institutining zamonaviy sharoitdagi funksional transformatsiyasiga qaratildi. Mahalla nafaqat ijtimoiy boshqaruvning an'anaviy shakli, balki bugungi kunda ijtimoiy himoya, profilaktika, bandlik va yoshlar bilan ishlash sohalarida muhim bo'g'in sifatida faoliyat yuritmoqda.

Mazkur tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, tahlil va sintez metodi orqali fuqarolik jamiyati institutlarining nazariy asoslari va ularning funksiyalari umumlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro demokratik standartlar bilan solishtirildi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli orqali fuqarolik jamiyati institutlarining son jihatidan o'sishi va ularning faoliyat ko'rsatkichlari o'rganildi.

To'rtinchidan, tizimli yondashuv asosida fuqarolik jamiyati institutlari yagona ijtimoiy mexanizm sifatida tahlil qilindi.

Nazariy asos sifatida G'arb siyosiy-falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari – Jon Lokk, Montekiyo qarashlaridan foydalanildi. Ularning fuqarolik jamiyati, hokimiyatlar bo'linishi va jamoatchilik faolligi haqidagi konsepsiyalari tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etdi.[6]

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko'rsatdi. Quyida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan omillar haqida to'xtalib o'taman. Bular:

1. Huquqiy asoslarning takomillashuvi. Yangi konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtirokini kengaytirdi. Jamoatchilik nazorati, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari normativ darajada mustahkamlandi. Bu esa davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kengayishi. So'nggi yillarda NNTlar soni va faoliyat yo'nalishlari kengaydi. Ular ekologiya, inson huquqlari, gender tengligi, yoshlar siyosati, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda faoliyat olib bormoqda. Davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar tizimi ijtimoiy sheriklik mexanizmini kuchaytirdi.

3. Mahalla institutining zamonaviylashuvi. Mahalla instituti an'anaviy jamoa boshqaruvi shaklidan zamonaviy ijtimoiy boshqaruv mexanizmiga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda. U ijtimoiy muammolarni joylarda aniqlash va tezkor hal etishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

4. Ommaviy axborot vositalari va ochiqlik. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy muammolarni ko'tarish va davlat organlari faoliyatini yoritishda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.[7]

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- NNTlarning moliyaviy mustaqilligi yetarli darajada emas;
- Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati past darajada;
- Ayrim hududlarda fuqarolik faolligi sust;
- Jamoatchilik nazorati mexanizmlarining samaradorligi yetarli emas.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim qatlamiga aylangan. Ular jamiyat va davlat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta‘minlash, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish, ijtimoiy muammolarni hal etishda ishtirok etish hamda demokratik institutlarni mustahkamlash vazifalarini bajaradi.

So‘nggi rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan NNTlar soni 2025-yil holatiga qariyb 10,000 dan ortiqni tashkil etadi. Bu NNTlar ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ekologiya, ayollar huquqlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash kabi turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlar respublika bo‘ylab 70,000 dan ortiq xodimni ish bilan ta‘minlab, fuqarolik jamiyati faoliyatining iqtisodiy asosini mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligini oshirishda davlat va jamiyat o‘rtasida ijtimoiy sheriklik mexanizmi muhim hisoblanadi. Bu mexanizm davlat organlari va fuqarolik institutlari o‘rtasidagi hamkorlik platformasini yaratadi. Masalan, ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlar davlat siyosati shakllanishida bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo‘lyapti, jamoat kengashlari esa mahalliy muammolar bo‘yicha yechimlar ishlab chiqadi. Jamoatchilik nazorati mexanizmi esa davlat organlari faoliyatini baholash, byudjet jarayonlarida ishtirok etish va ijtimoiy xizmatlar sifatini monitoring qilish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda ta‘lim-tarbiya mexanizmlari ham muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy savodxonlik, ijtimoiy faollik bo‘yicha seminar va treninglar orqali fuqarolarning huquqiy ongi oshiriladi, bu esa ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, fuqarolik jamiyati institutlari oldida hali ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ba‘zi NNTlar moliyaviy mustaqillikka ega emas, mustaqil huquqiy faoliyat yuritish uchun ma‘muriy to‘siqlar mavjudligi va ba‘zi hollarda ro‘yxatga olish jarayonining murakkabligi ham uchraydi. Shuningdek, ba‘zi tahlillar mustaqil fuqarolik institutlarining soni ko‘pincha davlat tashkil etgan tuzilmalar bilan aralash bo‘lib, haqiqiy mustaqil NNTlar soni rasmiy statistikadan kamroq ekanligini ko‘rsatmoqda. [8]

Umuman olganda, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati demokratik jarayonlarni mustahkamlash, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash kabi muhim mexanizmlarga asoslanadi. Ularning rivojlanishi barqaror demokratik o‘sishning muhim omili bo‘lib qoladi.

Mazkur muammolar fuqarolik jamiyati institutlarining to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu maqolamning ilmiy yangiligi haqida to‘xtaladigan bo‘lsam, u quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda tasniflandi.
2. Fuqarolik jamiyati va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikning institutsional modeli ishlab chiqildi.
3. Mahalla institutining transformatsiyasi zamonaviy boshqaruv paradigmasi nuqtai nazaridan asoslab berildi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari demokratik islohotlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular jamiyat va davlat o‘rtasida samarali muloqotni ta‘minlab, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularning huquqiy asoslari takomillashib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik mexanizmlari mustahkamlanmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari va ommaviy axborot vositalarining faolligi fuqarolik ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, institutlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va jamoatchilik nazorati samaradorligini

kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Fuqarolik jamiyatini izchil rivojlantirish barqaror demokratik taraqqiyotning muhim omilidir. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratik davlatning tayanchi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “o‘zbekiston”, 2023-y. //https://lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – 520 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onunustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07- 12-2019
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2018.
5. John Locke. Two Treatises of Government. – London, 1689.
6. Montesquieu. The Spirit of the Laws. – Geneva, 1748.
7. Ibragimova Z.M., JAMOATCHILIK NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences//
8. Fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF THE FAMILY INSTITUTION IN NEW UZBEKISTAN

Ashirova Hilola Zaripovna, Bukhara State Pedagogical Institute
2nd-year Master's student in Teaching social and humanitarian
sciences (Legal Education)

hilolaashirova9@gmail.com

Annotation: In the context of New Uzbekistan, the family institution plays a significant role as one of the key social foundations of societal development. This article analyzes the main factors influencing the development of the family institution in New Uzbekistan. In particular, the study examines the state social policy, legal reforms, programs aimed at supporting families, the strengthening of the spiritual and educational environment, and the revival of national values. The article also highlights the role of the family in ensuring social stability, educating the younger generation, and forming social justice and moral values. The research concludes that strengthening the family institution is an important factor in creating a stable social environment, raising a well-rounded generation, and contributing to national development.

Keywords: New Uzbekistan, family institution, family values, social policy, spiritual and educational environment, youth upbringing, social stability, national values, social development, family support policy.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Бухарский государственный педагогический институт магистрант 2 курса
направления, Преподавание социально-гуманитарных
наук (правовое образование)

hilolaashirova9@gmail.com

Аннотация: В условиях Нового Узбекистана институт семьи приобретает особое значение как один из важнейших социальных основ развития общества. В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие института семьи в Новом Узбекистане. В частности, рассматриваются государственная социальная политика, правовые реформы, программы поддержки семьи, укрепление духовно-просветительской среды, а также возрождение национальных ценностей. Также раскрывается роль семьи в обеспечении социальной стабильности, воспитании молодого поколения и формировании социальной справедливости и нравственных ценностей. В ходе исследования обосновывается, что укрепление института семьи является важным фактором создания стабильной социальной среды, воспитания гармонично развитой личности и обеспечения национального развития.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, институт семьи, семейные ценности, социальная политика, духовно-просветительская среда, воспитание молодежи, социальная стабильность, национальные ценности, социальное развитие, политика поддержки семьи.

YANGI O'ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING RIVOJLANISH OMILLARI

Ashirova Hilola Zaripovna, Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish
(Huquq talimi) yo 'nalishi 2-kurs magistri

hilolaashirova9@gmail.com

Annotatsiya: Yangi O'zbekiston sharoitida oila instituti jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy tayanchlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda oila institutining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Jumladan, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, huquqiy islohotlar, oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, ma'naviy-ma'rifiy muhitning mustahkamlanishi hamda milliy qadriyatlarning tiklanishi kabi jihatlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, oilaning jamiyat

barqarorligi, yosh avlod tarbiyasi, ijtimoiy adolat va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishidagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot davomida oila institutining mustahkamlanishi jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni yaratish, yoshlarni komil inson etib tarbiyalash hamda milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, oila instituti, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy siyosat, ma'naviy-ma'rifiy muhit, yoshlar tarbiyasi, jamiyat barqarorligi, milliy qadriyatlar, ijtimoiy rivojlanish, oilani qo'llab-quvvatlash siyosati.

KIRISH. Jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan oila institutining mustahkamligi va uning jamiyat hayotidagi o'rniga bog'liqdir. Oila insoniyat tarixida eng qadimiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, u shaxs kamoloti, ma'naviy qadriyatlar shakllanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki oila nafaqat insonning birlamchi tarbiya maskani, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni avloddan-avlodga yetkazib beruvchi muhim ijtimoiy muhitdir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan oilani qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa oila institutining jamiyatdagi rolini yanada mustahkamlash va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy muhitning sog'lomligi hamda yoshlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi bevosita oila muhitiga bog'liqdir. Shu bois Yangi O'zbekiston sharoitida oila institutining rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan o'rganish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Yangi O'zbekistonda oila institutining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy omillarni tahlil qilish hamda oilaning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy asosda yoritishdan iboratdir.

Asosiy qism. Yangi O'zbekiston sharoitida oila instituti jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo'g'ini bo'lishiga qaramay, unda shakllangan qadriyatlar, tarbiya tamoyillari hamda ijtimoiy munosabatlar butun jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oila institutining rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar oilaning mustahkamligini ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Oila masalasi o'zbek jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ham alohida e'tibor bilan yoritilgan. Xususan, Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida oilani jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori sifatida talqin qiladi. Fitratning fikricha, har bir jamiyatning ravnaqi avvalo oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tizimiga bog'liqdir. U oilani nafaqat shaxs kamoloti shakllanadigan muhit, balki millat kelajagini belgilab beruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholaydi. Fitrat "Oila" asarida farzand tarbiyasi, ota-onaning mas'uliyati hamda oiladagi axloqiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, agar oilada sog'lom ma'naviy muhit hukm sursa, unda voyaga yetayotgan farzandlar ham komil inson sifatida shakllanadi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Aksincha, oiladagi tarbiya sust bo'lsa yoki ma'naviy qadriyatlar yetarli darajada shakllanmasa, bu jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.⁹ Shu jihatdan Fitrat oilani millat taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi sifatida baholaydi. Yangi O'zbekiston sharoitida oila institutining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatdir. So'nggi yillarda oilani qo'llab-quvvatlash, ayollar

⁹ Abdurauf Fitrat. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari." – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2019.

huquqlarini himoya qilish, yoshlarni har tomonlama rivojlantirish hamda sogʻlom maʼnaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bu islohotlar oila institutining jamiyatdagi oʻrnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, oila institutining rivojlanishida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va anʼanalar ham muhim rol oʻynaydi. Oʻzbek xalqining asrlar davomida shakllangan oilaviy qadriyatlari — kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, oʻzaro hamjihatlik va mehr-oqibat tamoyillari oila barqarorligini taʼminlovchi muhim omillar hisoblanadi. Bu qadriyatlar nafaqat oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, balki jamiyatda sogʻlom ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Abdulla Avloniy — oʻzbek jadid maʼrifatparvarlaridan biri boʻlib, u oʻqituvchilik va adabiy faoliyati orqali jamiyat taraqqiyotini taʼminlovchi asosiy omil sifatida oilaga eʼtibor qaratgan. Uning mashhur asari “Maktab gulistoni” nafaqat taʼlim va maktab hayotini yoritadi, balki oila va oilaviy tarbiya masalalarini ham chuqur ilmiy yondashuv bilan tahlil qiladi. Avloniy asarda oilani shaxs tarbiyasidagi birlamchi muhit, millatning axloqiy va maʼnaviy qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida koʻrsatadi. “Maktab gulistoni” asarida Avloniy oila va taʼlimning uzviy bogʻliqligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, oila shaxsning birlamchi tarbiya maskani sifatida jamiyat barqarorligi va yosh avlodning barkamolligi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Avloniy oilaning farzand tarbiyasidagi rolini keng yoritib, ota-onaning masʼuliyati, mehr-muhabbat va maʼnaviy qadriyatlarni singdirish zaruriyatini taʼkidlaydi. Shu bilan birga, u oiladagi tarbiyaviy tizimni maktab taʼlimi bilan uygʻunlashtirish orqali yoshlarni jamiyatga foydali, maʼnaviy yetuk shaxslar sifatida tarbiyalash imkoniyatlarini koʻrsatadi. Asarda Avloniy oilaviy qadriyatlarni shakllantirishni milliy maʼnaviyat va axloqiy meʼyorlar bilan bogʻlaydi¹⁰. Bu esa bugungi kunda ham Yangi Oʻzbekistonda oilani mustahkamlash siyosati bilan muvofiqlik hosil qiladi. Misol uchun, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan oilani qoʻllab-quvvatlash dasturlari, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni kuchaytirish kabi chora-tadbirlar A.Avloniy ilgari surgan maʼnaviy tamoyillarni zamonaviy kontekstga moslashtiradi. Shu jihatdan, “Maktab gulistoni” asari oila institutining rivojlanish omillarini ilmiy yondashuv bilan yoritish uchun mustahkam nazariy manba hisoblanadi. Avloniy fikricha, oilada shakllangan sogʻlom maʼnaviy muhit, ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi hurmat, tarbiya va hamjihatlik jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, yoshlar tarbiyasi va milliy qadriyatlarning rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, Yangi Oʻzbekistonda oila institutining mustahkamlanishi va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda Avloniy ilgari surgan tamoyillar bugungi siyosat va amaliyot bilan uzviy bogʻliq ekanligini ilmiy jihatdan asoslash mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev oilaning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini alohida taʼkidlaydi va shunday deydi: “Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni oʻqitsak, butun oilani oʻqitgan boʻlamiz. Oila bilimli, maʼrifatli boʻlsa, butun jamiyat bilimli, maʼrifatli boʻladi”.¹¹ Ushbu fikr Yangi Oʻzbekistonda oilani rivojlantirish strategiyasining markaziy gʻoyasini tashkil etadi. Prezidentning taʼkidlashicha, oilaning bilimli va maʼrifatli boʻlishi jamiyatni bilimli va maʼrifatli qilishga xizmat qiladi, bu esa nafaqat shaxs tarbiyasi, balki jamiyat barqarorligi va milliy qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham bevosita taʼsir qiladi. Bugungi kunda Yangi Oʻzbekistonda oilani qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan siyosatning amaliy koʻrinishlari koʻp qirrali. Yoshlar uchun stipendiya va grantlar, kasb-hunar oʻrgatish dasturlari oilaning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi va Prezident Mirziyoyevning “bitta qizni oʻqitsak, butun oilani oʻqitgan boʻlamiz” degan gʻoyasini amaliyotga tatbiq etadi. Shu bilan birga, maktab va maktabgacha taʼlim muassasalarida oilaviy tarbiyaga doir darslar, ota-onalar uchun maʼnaviy-maʼrifiy seminarlar va psixologik maslahat markazlari faoliyati kengaytirilmoqda, bu orqali oilada sogʻlom munosabatlar va farzand tarbiyasining uygʻun

¹⁰ A.Avloniy “Maktab Gulistoni”— Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 2008.

¹¹ Shavkat Mirziyoyev, Prezident nutqi, Xalqaro xotin-qizlar kuniga bagʻishlangan tadbir, 8 mart 2025, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy sayti: <https://president.uz/oz/lists/view/7928>

rivojlanishi ta'minlanadi.

Avloniyning "Maktab gulistoni" asarida oilaviy tarbiya va maktab ta'limining uzviy bog'liqligi yoritilgan bo'lib, bugungi islohotlar bilan mukammal uyg'unlik hosil qiladi. Shu bilan birga, Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi fikrlar ham oilaning jamiyatdagi ma'naviy poydevor sifatidagi rolini mustahkamlashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Fitrat fikricha, oilada shakllangan sog'lom ma'naviy muhit butun jamiyatni ma'rifatli va bilimli qilishga xizmat qiladi, bu esa Prezident Mirziyoyevning nutqida ifodalangan g'oya bilan bevosita uyg'unlashadi. Shuningdek, huquqiy himoya choralari ham muhim rol o'ynaydi. Oila kodeksining takomillashuvi, farzandlar huquqlari va ota-ona majburiyatlarini aniq belgilash, yetim va kam ta'minlangan farzandlar uchun qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish oilaning barqarorligini ta'minlaydi va oilani jamiyat poydevori sifatida mustahkamlaydi. Shu tarzda, Prezident Mirziyoyevning iqtibosi, Avloniyning pedagogik qarashlari va Fitratning ilmiy nazariyasi Yangi O'zbekistonda oilaning rivojlanish omillarini mukammal yorituvchi manbalar ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy, ma'naviy va huquqiy omillarni birlashtirgan holda amalga oshiriladi. Prezidentning iqtibosi oilaning jamiyat barqarorligi va ma'naviy taraqqiyotdagi markaziy rolini konseptual jihatdan yoritadi, amaliy islohotlar esa bu g'oyani hayotga tatbiq etadi. Shu tarzda, oilaning bilimli va ma'rifatli bo'lishi nafaqat shaxs tarbiyasi, balki butun jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda oila institutining rivojlanish omillari ko'p qirrali bo'lib, u ijtimoiy, ma'naviy, ta'limiy va huquqiy omillar orqali shakllanadi. Oila nafaqat shaxs tarbiyasi uchun birlamchi muhit sifatida ahamiyatga ega, balki jamiyatning barqarorligi, ma'naviy qadriyatlarning saqlanishi va yosh avlodning mas'uliyatli, bilimli shaxs sifatida shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu institutning rivojlanishiga ijtimoiy va ma'naviy muhit, yoshlar tarbiyasi va davlat tomonidan olib borilayotgan siyosiy chora-tadbirlar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila institutining ijtimoiy barqarorligi davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biridir. Shu bilan birga, yoshlar uchun stipendiya, grant va kasb-hunar dasturlari oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi, bu esa yosh avlodning jamiyatga moslashishi va mustaqil hayotga tayyorlanishiga zamin yaratadi. Ijtimoiy muhitni mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan siyosat oilaning tarbiyasi bilan bevosita bog'liq. Masalan, oilaviy maslahat markazlari, onlayn va oflayn konsultatsiyalar, oilalar va yoshlar uchun ijtimoiy dasturlar yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shu tarzda, davlat oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit yaratishga harakat qilmoqda. Ma'naviy muhit ham oilaning rivojlanishida ajralmas omil hisoblanadi. Oila ichidagi axloqiy qadriyatlar, ota-onaning farzand tarbiyasiga yondashuvi va oilaviy an'analar yosh avlodning shaxsiyati va jamiyatga munosabatini shakllantiradi. Davlatning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishga qaratilgan siyosati, jumladan, yoshlar ma'naviyati va tarbiyasiga qaratilgan seminarlar, o'quv dasturlari, madaniy va ma'rifiy tadbirlar, oilaning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi va yoshlar tarbiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, oilada shakllangan ma'naviy muhit maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan uyg'unlashib, yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimi oilaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida oilaviy tarbiyaga yo'naltirilgan qo'shimcha darslar, ota-onalar uchun ma'naviy-ma'rifiy seminarlar va pedagogik yordam dasturlari yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan olib borilayotgan "Har bir bolaga sifatli ta'lim"¹² siyosati oilaning tarbiyaviy va ma'naviy rolini kuchaytiradi va yoshlarning bilimli, mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu tarzda, davlat siyosati nafaqat oilaning iqtisodiy va ma'naviy holatini qo'llab-quvvatlaydi, balki yoshlarni tarbiyalashda zarur huquqiy shart-sharoit yaratadi. Natijada, Yangi O'zbekistonda oilaning rivojlanish omillari ijtimoiy, ma'naviy, ta'limiy va huquqiy tizimlar orqali uyg'unlashtiriladi. Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, jumladan, oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yoshlar tarbiyasiga e'tibor,

¹² Shavkat Mirziyoyev: Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar belgilandi. <https://president.uz/oz/lists/view/8471> (09.09.2025)

ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va huquqiy mexanizmlar, oilaning jamiyatdagi markaziy o'rni va yoshlar tarbiyasidagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, oilaning barqaror, ma'rifatli va tarbiyali bo'lishi nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni rivojlantirishning poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda oila institutining rivojlanish omillari ijtimoiy, ma'naviy, ta'limiy va huquqiy komponentlarning uzviy integratsiyasi orqali shakllanadi. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, oilaning jamiyatdagi poydevor vazifasi nafaqat shaxs tarbiyasini ta'minlashda, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi, yosh avlodning bilimli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitning barqarorligi va oilaviy farovonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, shuningdek, yoshlar tarbiyasiga yo'naltirilgan pedagogik va ma'naviy chora-tadbirlar oilaning rivojlanish jarayonini tizimli va samarali qiladi. Oila institutining ma'naviy jihatdan mustahkamligi, oiladagi axloqiy qadriyatlar va farzand tarbiyasidagi pedagogik yondashuvlar bilan mustahkamlanadi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy tarbiyaning sifatli rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy qadriyatlariga moslashuvi yoshlar shaxsiyatini shakllantirishda bevosita vosita vazifasini bajaradi.

Ushbu jarayonda davlat siyosati oilani ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar orqali oilaviy institutning poydevorini mustahkamlaydi va yoshlarni jamiyatga foydali, bilimli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashni ta'minlaydi. Shuningdek, oilaning rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarning samaradorligi nafaqat oilaviy barqarorlik va ma'naviy muhitning uyg'unligida, balki yosh avlodning ijtimoiy moslashuvi, madaniy qadriyatlarni qabul qilishi va jamiyatga integratsiyasi bilan o'lchanadi. Shu tarzda, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat va strategik chora-tadbirlar oilaning rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi, oilani jamiyatning ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy poydevori sifatida mustahkamlaydi va yoshlar tarbiyasining sifatini yangi bosqichga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari."
2. A.Avloniy "Maktab Gulistoni"– Toshkent: Adabiyot va san'at, 2008.
3. Tursunov, R. (2022). Yoshlar tarbiyasida oilaning ahamiyati. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Shavkat Mirziyoyev, Prezident nutqi, Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tadbir, 8 mart 2025, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy sayti: <https://president.uz/oz/lists/view/7928>
5. Shavkat Mirziyoyev: Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar belgilandi. <https://president.uz/oz/lists/view/8471> (09.09.2025)

GLOBALLASHUV VA DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI

Hasanova Maxfiratbonu, Buxoro davlat pedagogika instituti

3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada dunyoning globallashib borayotganligi, uning sabablari, globallashuvning mazmun-mohiyati, salbiy va ijobiy tomonlari, yurtimizning globallashish jarayoniga ko'proq tortilib borayotganligi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar : O'zbekiston, globallashuv, urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, aksilglobalistlar, Buyuk davlatchilik shovinizmi.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ КАРТИНА МИРА

Хасанова Макфиратбону, студентка 3 курса Бухарского государственного

педагогического института

Аннотация: В статье дается комплексный анализ глобализации мира, ее причин, сущности глобализации, ее негативных и позитивных сторон, а также все большей вовлеченности нашей страны в процесс глобализации.

Ключевые слова: Узбекистан, глобализация, война и мир, экологические катастрофы, духовная нищета, наркотрафик, терроризм, антиглобалисты, великодержавный шовинизм.

GLOBALIZATION AND THE IDEOLOGICAL LANDSCAPE OF THE WORLD

Hasanova Maxfiratbonu, 3rd-year student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: The article provides a comprehensive analysis of the globalization of the world, its causes, the essence of globalization, its negative and positive sides, as well as the increasing involvement of our country in the process of globalization.

Keywords: Uzbekistan, globalization, war and peace, environmental disasters, spiritual poverty, drug trafficking, terrorism, antiglobalists, great-power chauvinism.

Hozirgi davr-dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Butun yer yuzi odamzod uchun yagona makon bo'lib hisoblanadi. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgan. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir yo ikki davlat yoxud mintaqa o'rtasida bo'lgan. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etgan.

Xullas, urush qurollari takomilashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

“Globallashuv jarayoni insoniyatning katta yutug'i sifatida chegara bilmasdan, har bir mamlakatning ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borayotgani hech kimga sir emas. Mazkur jarayonning o'ziga xos muammolari ham mavjudki, uni o'z vaqtida bartaraf etish insoniyatdan juda katta kuchni talab etayotir. Tasavvur qiling, globallashuv jarayonida milliy chegaralar o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, axborot oqimi har qanday chegaradan oshib o'tib, jamiyat ichkarisiga, shuningdek, fuqarolarning ongiga qadar singib borayotir” [1.B.14.].

Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi ta'rifida globallashuv jarayonining 3 o'lchovli ekaniga urg'u beriladi: 1.Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon. 2.Globallashuv-jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni. 3.Globallashuv-milliy chegaralarning

“yuvilib ketish” jarayoni. Rossiyalik A. Parshev globallashuvga quyidagicha ta’rif beradi: “Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo‘shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarni o‘zlashtirishdan iborat” [2.B.5.].

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma’naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlarida yaxshi ifodalangan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”. Shuning uchun ham, milliy istiqloq g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta’minlab, ayni paytda, “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Globallashuvning salbiy tomoni shundan iboratki, ko‘p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo‘ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir fuqaroning vazifasi-o‘z millatining raqobatbardoshligini ko‘tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O‘zbekistonning har bir fuqarosi 4 ta sifatga ega bo‘lishi kerak: 1) zamonaviy mutaxassis bo‘lishi; 2) o‘zbek (davlat tili), rus, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim o‘z bilim doirasini yangilab borishi va 4) tadbirkor-tashabbuskor bo‘lishi kerak.

Globallashuv jarayoni murakkab hodisa. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma’naviyatiga o‘tkazayotgan ta’siri murakkabligi sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga qarshi, muxolifatda bo‘lgan ikki guruh: 1) globalistlar va 2) aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

1.Globalistlar- globallashuv tarafdorlari. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko‘proq uchraydi.

XX asr o‘rtalarida globallashuvning institutsionlashuvi (tashkillashuvi) kuchaygandan keyin bu jarayon tezlashdi. Masalan, Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki tashkilotlari globalistlar ta’sirida vujudga keldi.

2.Aksilglobalistlar - globallashuv muxoliflari bo‘lib, ular orasida ko‘proq so‘l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqda. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o‘tkazish uchun to‘planib turadilar.

Aksilglobalistlar faoliyati ham bugungi kunda kuchaydi. Lekin ular faqat uning salbiy oqibatlarigagina emas, umuman unga qarshi chiqmoqda. Masalan, Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovyev “Aksilglobalizm vektorlari” nomli anjumanda shunday degan edi: “Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko‘satishdan boshqa yo‘lini ko‘rmayapman. Faqat qarshilik!” [2.B.6-7.]. Umuman globallashuv “mafkuralashishdan” xoli bo‘lishi kerak.

XX asr so‘ngida ro‘y bergan ulkan ijtimoiy- siyosiy o‘zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o‘zgartirib yubordi.

XX asrda dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo‘ldi. XX asr so‘ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o‘zgardi. Islom Karimov ta’kidlaganidek, “XX asr oxirida dunyoda jo‘g‘rofiy-siyosiy ahamiyati va ko‘lami jihatidan noyob o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu o‘zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'yimoqda" (3.B.240-241.).

Jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: 1. Siyosiy (buyuk davlatchilik shovinizmi). 2. Diniy (diniy ekstremistik va aqidaparastlik, panislomizm). 3. Badiiy (G'arb turmush tarzini targ'ib qiluvchi, amerikacha turmush tarzini targ'ib qiluvchi, zo'ravonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizliklarni targ'ib qiluvchi).

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib kommunistik va sotsialistik partiya ta'siridagi sotsializm lageri parchalandi. Dunyo mamlakatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lindi. Ana shu rivojlangan ba'zi mamlakatlar o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan, rivojlanayotgan mamlakatlarni, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqdalar. Bular quyidagi holatlarda ko'rinadi:

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

1. Buyuk davlatchilik mafkurasi. 2. Diniy ekstremistik mafkuralar. 3. Panislomizm mafkurasi. 4. Pansovetizm mafkurasi. 5. G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar. 6. Amerikacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar. 7. Turli diniy sektalarning g'oyalarni ifodalovchi mafkuralar.

1. Buyuk davlatchilik shovinizmi. Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yosi to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqalar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir shaxs yoki millatning alohidaligini "mumtozligini") targ'ib etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiyoti bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysundirilgan xalqlarga, ularning madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilar edi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik bir-birini to'ldiradi, bular o'z davlati manfaatini ilgari surib, milliy qadriyatlarni tayyorlashda, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni oyoq osti qilishda, avtoritar tuzum o'rnatishda, boshqa mamlakat xalqlarini itoatgo'y qilib saqlab turishda, hozir esa sobiq Ittifoqni tiklash uchun qilayotgan harakatida, o'z ta'sir doirasini boshqa mustaqil davlatlarda saqlab qolish uchun intilishda, millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik tug'dirishda, xalqaro-huquqiy me'yorlarni inkor etishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni to'sishda, yangi mustamlakachilikni zo'rlab qabul qildirish harakatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda buyuk davlatchilik g'oyalari mazmunan o'sha-o'sha bo'lsada, unga endilikda o'ta zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida bular rus millatining mumtozligini tiklash, Rossiya tevaragida kuchli jug'rofiy - siyosiy maydon yaratish, "Yagona va ahil xalqlar oilasi"ni tiklash, yangi mustaqil davlatlarning qaysi biri bilan hamkorlik qilish, qaysilarini ajratib qo'yish va boshqa sohalarida ko'rinmoqda.

Mustaqil O'zbekiston uchun bugungi kunda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tug'dirayotgan tahdidlarning real xavfi quyidagilardan iborat: 1) Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish. 2) Xalqaro-huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish. 3) O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish. 4) Mamlakatimiz aholisiga elektron, radio-axborot vositalari orqali mafkuraviy yo'l bilan tazyiq

o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish.5) Millatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish. 6) Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo'rlab qabul qildirish, hamma sohalardagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

2.Diniy ekstremistik mafkuralar. "Ekstremizm" so'zi keskin fikrlar bildirish yoki keskin chora ko'rish tarafdori ma'nosini anglatadi. Jamiyat uchun nosog'lom ma'nodagi keskin chora yoki fikrlarni yoqlovchilarni ekstremistlar yoki jaholatparastlar deb atashadi. Diniy ekstremizm faqat islom diniga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga taaluqlidir. Masalan, o'rta asrlarda xristian ruhoniylari "Muqaddas kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish xudoning irodasini buzish demakdir",-deb uqtirib, diniy aqidalarga qarshi chiquvchilarga nisbatan keskin choralar qo'llash tarafdori bo'lganlar. Islom dinidagi ekstremistlar islom aqidalarini qayta tiklash niqobi ostida harakat qilayotgan bo'lsalarda, aslida esa ularning diniy, siyosiy qarashlari hokimiyatga intilish, mamlakat boshqaruvini egallashga qaratilgandir.

Diniy aqidaparastlik - esa siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat. Islomiy aqidaparastlik - zamonaviy islomda mavjud 3 yo'nalishdan (qolgan ikkitasi: traditsionalizm va modernizm) biri. Islom aqidaparastligining asosiy g'oyasi-"Sof islom" qar'iyatlariga qaytish, maqsad esa - islomiy davlat va taraqqiyot yo'lini joriy etishdan iborat [4.B.7-8.].

Mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatimizda eski mafkura asoratlariga, quruq safsatabozlikka, xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan sobiq siyosiy va mafkuraviy tuzilmalarga barham berildi. Ijtimoiy adolat, xavfsizlik, ijtimoiy muhofaza, millati, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini, qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-siyosiy muhitni buzadigan, odamlar fikrini chalg'itadigan noxush holatlarga barham berildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashish, hamjihat bo'lish, barcha imkoniyatlardan ehtiroslarga berilmay, aql-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Aslida "fundamentalizm" va "ekstremizm" g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad - dinning qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlarda tuzatib bo'lmaz fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan, tarix sahifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash g'oyasiga ham zo'r berilishi bilan bog'liq. Bugun diniy ekstremizm va fundamentalizm oqimlari tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terroristik harakatlar ham ana shunday maqsad, yo'l va uslublarga tayanmoqda.

O'zlarini islom dinining "himoyachilari" deb ko'rsatishga urinayotgan terroristlarning asl niyati chinakam islomiy qadriyatlarni tiklash emas, balki hokimiyatni qo'lga kiritish, Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni o'zlari tanlagan yo'ldan qaytarish va butun mintaqada o'z hukmronligini o'rnatishdir. Umuman, XXI asr boshidagi mafkuraviy kurashlarni targ'ibotlar kurashi davri, deb tavsiflash mumkin.

Umuman, islom ekstremizmi, fundamentalizmi tomonidan O'zbekiston xavfsizligiga solinayotgan tahdidlar quyidagilardan iborat:

1)Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotish, demokratik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni va milliy totuvlikni buzishga urinish. 2)Asossiz da'vatlar orqali yoshlarni mutelik, erksizlik holiga tushirib qo'yish, aqliga va taqdiriga hukmron bo'lish. 3) Qarama-qarshilikni keltirib chiqarib mamlakatni parchalab tashlash. 4) Din uchun kurashuvchi jangarilarning yangi avlodini vujudga keltirish.5) Musulmon va nomusulmon mamlakatlar orasida O'zbekiston obro'sini to'kish, obro'sizlantirish. 6) Islom va boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish.7) Omma ongida soxta tasavvurlarni qaror toptirish.

"Bu radikal guruhlarining barchasini birlashtirib turadigan umumiy bir xususiyat bor. Ular,

mohiyat e'tiboriga ko'ra, biz uchun mutlaqo yot bo'lgan bir maqsadni - diniy davlat, musulmon xalifaligini o'rnatishni targ'ib qilmoqda"[5.B.53.].

Respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2250ga yaqin diniy tashkilot faoliyat ko'ratmoqda. Mir Arab madrasasi, Toshkent Islom universiteti, 14 ta madrasa, 400 ga yaqin diniy musulmon o'quv muassasalari, boshqa dinlarga tegishli 19 ta o'quv yurti ishlab turibdi. Diniy ta'limot muassasalarida minglab yoshlar dinlar asoslarini hamda dunyoviy bilimlarni o'rganmoqda. Shu holatning o'ziyiq bizda e'tiqod erkinligi yuqori saviyada ekanligidan dalolat berib, har qanday diniy ekstremistik harakatlarning oldini olish mumkinligini ko'satadi. Umuman, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va globallashtirish jarayonlari aqidaparastlik va jaholatga tamomila ziddir.

3.Panislomizm - XIX asr oxirida o'rta Sharqdagi musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqim. Asoschisi-Jamoladdin al-Afg'oniy Panislomizm tarafdorlari musulmonlarning "birligi" va ularni xalifa rahbarligidagi yagona musulmon davlatiga birlashtirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Ayni vaqtda panislomizm tarafdorlari diniy islohotchilik pozitsiyasida turib, islom dinini davr talablariga muvofiq isloh qilishga intilganlar.

XX asr boshlarida Turkiya sultonlari bu nazariyadan foydalanib, musulmon xalqlarini o'z qo'l ostida birlashtirishga uringan. Bu oqim Vahhobiylar, "Hizbut-tahrir" kabi diniy oqimlarda qiyofasida bugungi kunda O'zbekiatonda xalifalik davlatini tiklash uchun urinmoqa. "Panislomizm" g'oyasida hozirgi kunda turli xristian konfessiyalari ham targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormoqdalar.

XX asr boshlarida quyidagi oqimlar ham mavjud bo'lgan:

Panturkizm-bolshevizmning ashaddiy dushmani edi. U I-jahon urushi arafasida "Yosh turklar partiyasi"ning, Rossiyaga qarshi urush ochishda yagona tashviqot-targ'ibot quroli vazifasini o'tadi, jadidchilik harakatini avj oldirishda bosh rolni o'ynadi. Panturkizm oqimi, uning siyosati Tatariston va Boshqiriston o'lkalariga 1912-yilda kirib keldi. Bolshevizm XX asr 20-30-yillarida ularni "millatchilik"da ayblab, "Sho'roga qarshi" deb bosh liderlarini qirib tashladi. Musulmonlarni umumiy dushman-mustamlakachilikka qarshi kurashda birlikka va birdamlikka da'vat etgan panturkchilik ta'limotining ijobiy rolni ta'kidlash bilan bir qatorda, musulmon xalqlarining milliy tafovutlarini inkor etgan mazkur mafkuraning ikki tomonlama tavsifini ham hisobga olish lozim.

